

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIM MARKAZI

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“O‘ZBEK TILI” FANINI KASBGA YO‘NALTIRIB O‘QITISH
(o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik
qo‘llanma)**

TOSHKENT - 2012

S.Muhamedova, Sh.Yunusova, K.Shayxova. “O‘zbek tili” fanini kasbga yo‘naltirib o‘qitish (o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma)

Mazkur metodik qo‘llanmada asosiy e’tibor O‘MKHTM ta’limi muassasalarida o‘zbek tili o‘quv fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish, o‘quvchilarni DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish bilan birga ularni kasbiy yo‘naltirish orqali shaxs sifatida barkamolligini ta’minlash masalalariga qaratilgan.

Metodik qo‘llanma akademik litsey va kasb – hunar kollejlari o‘zbek tili o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Jo‘raeva – Toshkent moliya va iqtisod kasb-hunar kolleji “Gumanitar fanlar” kafedrası mudiri

O.Nurullaev – Jizzax transport, aloqa kolleji O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari.

Kirish

O'zbekistonning o'z mustaqilligini qo' lga kiritishi natijasi o'laroq navqiron davlat jahon hamjamiyati sari yuzlandi. Tarixan qisqa davr oralig'ida xorijiy mamlakatlar bilan savdo, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diplomatik aloqalar mustahkamlandi. Binobarin, O'zbekiston BMTga a'zo bo'ldi, milliy qadriyatlarga munosabat tubdan yangilandi va milliy tizimda xalqaro ilm-fan integratsiyalashuv jarayoni ancha teranlashdi. Buning natijasida o'zining siyosiy mustaqilligini mustahkamlash, iqtisodini, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish, ma'naviyatimiz va qadriyatimizni tiklash, ta'lim-tarbiyani mustaqillik talablaridan va millat manfaatlaridan kelib chiqqan holda tubdan isloh qilish imkoniga ega bo'ldi. Ta'lim tizimining moddiy bazasini va zamonaviy talablarga mos strukturasini yaratish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi jahon andozalari darajasida har tomonlama etuk kadrlarni tayyorlash tizimiga asos bo' ldi.

Oliy ta'lim va o' rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni mazkur hujjatlar asosida tubdan yangilandi: davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari ishlab chiqildi. O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga, o'quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarini tatbiq etish ishlariga jadal kirishildi. Xususan, KHK da malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion, pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan darslik va o'quv qo'llanmalarining o'rni va roli benihoya kattadir. Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimovning "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2012 - yil 28-maydagi Qarori bu borada amalga oshirilayotgan ishlarga muhim metodologik asos bo'xizmat qildi. Mazkur Qarorda ko'rsatilgan har bir vazifani amalga oshirish uchun barcha ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samarali amalga oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, zamonaviy pedagogik, innovatsion va

axborotli texnologiyalarga asoslangan darslik va o'quv qo'llanmalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ularni yaratish jarayonidagi ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, bu borada turdosh ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish va uni mustahkamlash dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ayniqsa, bu jarayonda KHKdagi umuta'lim fanlarni sohaga yo'naltirib o'qitish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur metodik qo'llanmada o'zbek tili fani bo'yicha sohaga yo'naltirib o'qitish bo'yicha tavsiyalar berilgan

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

O'ZBEK TILI
(120 soat)

fanidan

**akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun
o'quv dasturi**

Toshkent-2010

Ushbu o'quv dasturi Oliy va o'rta maxsus hamda Xalq ta'limi vazirliklarining 2010-yil 1-iyuldagi 6/1 va 4/2 - sonli qo'shma Hay'at majlisi qarori bilan tasdiqlangan va akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari uchun "O'zbek tili" fanidan uzviylashgan o'quv dasturi sifatida uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etish uchun tavsiya etilgan.

Tuzuvchi: A.R.Rafiyev - filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O'zMU)

Dasturni optimallashtirishda ishtirok etgan ishchi guruhi a'zolari:

R.Niyozmetova -pedagogika fanlari doktori, dotsent (ToshDPU)

M. Rahimova -Toshkent sh.Sirg'ali t. Moliya-iqtisodiyot kolleji o'qituvchisi


D.G'aybullayeva -ToshYUI qoshidagi akademik litsey o'qituvchisi

M .Qodiriy -Toshkent sh. Avtomobil va yo'llar kolleji o'qituvchisi

Taqrizchi: R.Sayfullayeva - filologiya fanlari doktori, professor

Nashrga tayyorlovchi:

N.Chiniqulov -Ta'lim standartlari va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari



Kirish

Ta'lim tizimining o'rta bosqichida o'quvchilarning bilimlarini uzviy tarzda boyitish, muayyan fan yoki kasb-hunar yo'nalishida chuqurroq bilim olishlariga yordam berish, kasbiy uquvlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, akademik litsey va kollejlarning ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlarida "O'zbek tili" fanini o'qitishda o'quvchilarning maktabda o'zbek tili bo'yicha egallagan nutqiy ko'nikmalarini leksik-grammatik imkoniyatlarini nisbatan kengroq mavzular doirasida mustahkamlash, og'zaki ravishda amaliy nutqiy muloqotga kirishish va davlat tilida ish yurita olishga tayyorlash asosiy vazifa sanaladi. Ushbu o'quv dasturi shu maqsadda til ta'limining kommunikativ tamoyili asosida o'zbek tilini puxta o'rgatish, kundalik turmush va ish faoliyati mavzularida og'zaki va yozma nutqiy savodxonlikni egallashlarini ta'minlashga qaratilgan.

Dasturda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan nutq materiallari, nutqiy amallar darajasi, leksik-grammatik bilimlar majmui o'zaro bog'liq va uzviy tarzda alohida nutq mavzulari tarkibida talqin etilgan. Tavsiya etilgan 24 ta nutq mavzusi o'quvchilarning bilim va dunyoqarashi ko'lamiga, ijtimoiy hayot va davlat siyosatidan kelib chiqadigan ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarga asoslangan. O'zbekcha nutqni mustaqil ravishda tinglab tushuna olish, berilgan mavzulardagi matnlarni xatosiz va ravon o'qish, ushbu nutq mavzulari va ular ichida berilgan kichik mavzular doirasida o'zbek tilini talaffuz me'yorlariga amal qilgan holda erkin so'zlay bilish, matn tuza olish, rasmiy-idoraviy hujjatlarni tayyorlay bilish kabi amallarni egallash yuzasidan dasturda yetarli ilmiy-metodik material berilgan.

O'quvchilarining bilimlariga qo'yiladigan minimal talablar:

Tinglab tushunish:

- 12-14 ta gapdan iborat matnni tinglab tushunish.
- Berilgan nutqiy mavzular doirasidagi suhbatlarni to'liq tushunish va unga o'z munosabatini bildirish.
- O'qituvchining nutqi va izohi, grammatik topshiriqlar mazmunini tushunish.
- Turli uslubdagi matnlarni tinglab tushuna olish.
- Fan va kasb sohasiga oid 8-10 ta gap hajmidagi matnni tushunish.

O'qish:

- Tanish matnni so'z urg'usi va gap ohangiga rioya qilgan holda o'qish.
- Fan sohalariga oid ilmiy atamalarni va kasb-hunar so'zlarini to'g'ri o'qiy olish.
- Ommaviy axborot vositalari materiallarini tushunib o'qish.
- O'rganilgan mavzulardagi matnni 1 daqiqada 85-100 ta so'z tezligida o'qish.

So'zlash:

- Kundalik muloqotda erkin ishtirok eta olish.
- O'rganilgan nutq mavzulari doirasida 10-12 ta gap bilan o'z fikrini bog'lanishli tarzda ifodalay olish.

- 1800-2200 soʻz boʻyigiga tayangan holda oʻz fikrini turli mavzularda mustaqil ifodalay bilish.
- Oʻzbek tilining grammatik qonun-qoidalar va adabiy til meʼyorlariga amal qilgan holda soʻzlash.

Yozish:

- 80-90 soʻzdan iborat diktantni xatosiz yoza olish.
- Fan sohasi va kasb-hunarga oid atamalarni toʻgʻri koʻchirib yozish.
- Davlat tilida ish qogʻozlarini yoza olish.
- 100-120 soʻzdan iborat matn asosida bayon yoza olish.
- 90-110 soʻzli insho yoza olish.

Oʻquv dasturi mazmuni

I. Oʻzbekiston - mustaqil yurt (4 soat)

Ogʻzaki nutq:

Oʻzbekiston tabiati, el-yurti, boyliklari haqida matnlarni oʻqish, ularni kengaytirib hikoya qilish.

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Quyidagi nutqiy mavzularda oʻzaro suhbatlashish:

- Shu aziz vatan barchamizniki.
- Toshkent - tinchlik va doʻstlik shahri.
- Bir kelib keting qishlogʻimizga.
- Barkamol avlod - Oʻzbekiston kelajagining poydevori.

Poytaxt, oʻz shahri(qishlogʻi) haqida soʻzlay olish.

Yozma nutq:

Vatan haqida savollarga javob yozish.

Oʻzbekiston haqida matn tuzish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Grammatika: Nutq tovushlari va ularning uslubiy xususiyatlari.

II. Mening qiziqishlarim va mashgʻulotlarim (6 soat)

Ogʻzaki nutq:

Oʻqish joyi, oʻrganilayotgan fanlar xususida oʻzbek tilida maʼlumot bera olish.

Taʼlim jarayoni, qiziqqan fanlari haqida mustaqil suhbatlasha olish, bular haqida fikr almashish.

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Quyidagi nutqiy mavzularda oʻzaro suhbatlashish:

- Shu kollejda oʻqiyman.
- Fanlarni oʻrganamiz.
- Nima bilan shugʻullanasan?
- Har kunning samarali boʻlsin.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

O`quv yurti bo`yicha ma'lumotnoma va yo`l ko`rsatkichi tuzish.

Qiziqqan fanining biron hodisasi to`g`risida bayon yozish.

Grammatika: Ot, uning qo`llanishi, uslubiy xususiyatlari

III. Oilam - tayanchim va faxrim (4 soat)

Og`zaki nutq:

Oila, qarindosh-urug`lar, do`stlarning oiladagi o`rni haqida suhbatlashish.

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish,

mazmunini qayta hikoyalash, oila haqida she`rlarni yod olish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o`zaro suhbatlashish:

- Biz ahil oilamiz.
- Oilamiz an'analari.
- Oila - muqaddas dargoh.
- Qarindoshlar davrasida.

Yozma nutq:

Oiladagi o`zaro munosabatlar to`g`risida hikoya tuzish.

Ota-ona(yoki biror qarindosh)ga xat yozish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Kelasi zamon fe`li orqali ifodalangan rivoya matni tuzish.

Grammatika: Kelishik qo`shimchalarining ko`makchilar bilan qo`llanilishi.

IV. Ustozlar maktabi (4 soat)

Og`zaki nutq:

Ustozlar ta`rifi va tavsifiga oid matnlarni o`qib, savol-javoblarda ishtirok etish.

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish,

mazmunini qayta hikoyalash.

Ustozlari, tengdoshlarini ta`riflay olish, ularga tavsif berish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o`zaro suhbatlashish:

Bular ustozlarim.

Yaxshi fazilat - inson ko`rki.

Odamlardagi qaysi xislatlarni xush ko`rasiz?

Ustozingni e`zozla, do`stim/

Yozma nutq:

Ta`rif va tavsif rejasini tuzish.

Atrofdagilarning xislatlari haqida o`z fikr-mulohazalarini yozma bayon qilish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Grammatika: Asliy va nisbiy sifatlar, otlashgan sifatning qo`llanishi.

V. Sevimli gazetam (jurnalim) (6 soat)

Og`zaki nutq:

Kutubxonachi va boshqa sinfdoshlar bilan muloqotga kirisha olish.

Yangi kitob(gazeta, jurnal)lar haqida suhbatda ishtirok eta olish.

Kitob(gazeta, jurnal)ni tavsiya, reklama qila olish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Kitoblar - jonu dilim.
- Bu kitob menga yoqadi.
- Har yili obuna bo'laman.
- Matbuot sahifalarida.

Yozma nutq:

Sevimli kitob(gazeta, jurnal)lardagi materiallarni yozma tahlil qlish.

Muallif haqida ma'lumotnoma yozish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Grammatika: Son, sonning hisob so'zlari bilan ishlatilishi.

VI. Til - ma'naviyat kizgusi (4 soat)

Og'zaki nutq:

O'zbek tilini o'rganishning ahamiyati haqida fikr almashish.

"Til dilga yo'l ochar" mavzusida bahs-munozara yuritish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- O'zbek tili - davlat tili.
- Til -do'stlik kaliti.
- So'z boyligi - til ko'rki.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

O'zbek tilini qanday o'rganayotganligi haqida bayon yozish.

Lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi va imlo qoidalari bo'yicha referat tayyorlash.

Bildirishnoma matnini yozish.

Grammatika: Olmosh va sonlarning otlashgan holda qo'llanishi.

VII. Sharq bozori ne'matlari (6 soat)

Og'zaki nutq:

Bozordagi meva va poliz mahsulotlari nomini to'g'ri tushunish, ularni nutqda to'g'ri qo'llash.

Bozordagi dialoglarda ishtirok eta olish ko'nikmasini egallash, taklif va mulohazalarni sotuvchi va boshqalarga bildira olish.

Rolli o'yinlarda qatnashish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Bozorga tushdim.
- Arzonroq bo'ladimi?
- Mazasini tatib ko'ring.
- Hosil bayrami.

Yozma nutq:

SHarq bozoriga yozma ta'rif berish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Meva va sabzavotlar ko'rgazmasi haqida xabar tayyorlash.

Grammatika: Sifat va ravishlarda modal ma'noning ifodalanishi. Birikmali sifatdoshlarning turlari va qo'llanishi.

VIII. O'zbek dasturxoni atrofida (4 soat)

Og'zaki nutq:

O'zbek taomlari nomlarini bilish, ularni izohlay olish.

Birga ovqatlanishga taklif etish, ovqatlanish paytida qo'llalinadigan muomala odobi iboralaridan o'rinli va to'g'ri foydalana olish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Birga ovqatlanamiz.
- Palovni xush ko'raman.
- Ovqatlanish odobi.
- Nima pishirmoqchisiz?

Yozma nutq:

Taomnomalar tuzish.

O'zi yoqtirgan taomga tavsif berish.

Taomlar tarkibini va tayyorlash usulini yozib olish.

Mavzuga oid so'z va iboralar lug'atini tuzish.

Grammatika: Kirish so'z, kirish birikma va kirish gaplarning ishlatilishi

Buyruq-istak mayli shakllarining ko'chma ma'nolarni ifodalanishi.

IX. Sog'liq - tuman boylik (4 soat)

Og'zaki nutq:

Betob bo'lib qolganlar holidan xabar olishda o'zbekcha so'z va iboralarini to'g'ri va o'rinli ishlatish.

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Sport turlarining o'zbek tilida atalishini o'zlashtirish, so'zlarning ma'nosini izohlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Tobingiz qochdimi?
- Parhez qiling.
- Sog'ligingni asra!
- Sport bilan shug'ullanaman.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

O'quv xonangizning tozaligi haqida bildirishnoma yozish.

Badantarbiya bilan shug'ullanish zarurligini asoslab matn tuzish.

Grammatika:

Fe'l nisbatlarining birdan ortiq qo'llanilishi. Fe'llarning modal ma'noni ifodalovchi shakllari.

X. Tarixni o'rganamiz (6 soat)

Og'zaki nutq:

O'zbekiston tarixidan hikoyalarni o'qish, ularni qayta hikoyalash.

Teleko'rsatuvlar matni bo'yicha savol-javobda ishtirok etish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Tarixdan bir sahifa.
- Tarixiy obidalarni asrang.

- Temuriylar muzeyida.

Yozma nutq:

Temuriylar muzeyi, Amir Temur haqida ma'lumotlar asosida reja tuzish unga muvofiq insho yozish.

Tarixiy mavzudagi matnni qisqartirib ko'chirish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Grammatika:

Fe'lning analitik shakllari, ko'makchi va to'liqsiz fe'llarning qo'llanish xususiyatlari.

XI. Dunyo mo'jizalari (4 soat)

Og'zaki nutq:

Dunyodagi g'aroyib voqea-hodisalar, inson qo'li bilan barpo etilgan va tabiat tomonidan yaratilgan mo'jizalar haqida savol-javobda ishtirok etish, bularning o'rni va ahamiyati haqida so'zlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Dunyoning yetti mo'jizasi.
- Hayvonot olamida.
- Tabiat injiqliklari.
- Ginnesning rekordlar kitobini varaqlab.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

O'z shahri(qishlog'i) dagi ajoyibotlar haqida hikoya yozish.

YAngi rekord haqida devoriy gazetaqa maqola tayyorlash.

Grammatika:

Sodda yoyiq va murakkablashgan sodda gaplar, ularda tire va nuqtali vergulning ishlatilishi.

XII. Kasbimni sharaflayman (6 soat)

Og'zaki nutq:

Yo'nalish fanlari haqida matnlarni o'qish, ular bo'yicha savol-javoblarda ishtirok etish.

Tanlagan kasbi haqida hikoya qila olish, do'stlari tanlagan

kasblarga munosabat bildirish, rolli o'yinda ishtirok eta olish.

Kasbi haqida she'r yod olish va uni ifodali o'qish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Hunar, hunardan unar.
- O'z ishimdan sevinaman.
- Ilm - kamolot beshigi.
- Mehnatning tagi rohat.

Yozma nutq:

Hunar va ilmga oid hikmatlarni yozish.

Kasb-hunar tasviri asosida bayon yozish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Tavsifnoma matnini tayyorlash.

Grammatika:

Bog'langan qo'shma gaplar va ularning turlari. Biriktiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar, ularning ma'nodoshligi.

XIII. Dam olish va ta'til (4 soat)

Og'zaki nutq:

Dam olish vaqtini mazmunli o'tkazishga doir matnlarni o'qish, ular bo'yicha savol-javobda ishtirok etish.

Ta'til taassurotlari bilan o'rtoqlashish.

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Hiyobonda dam oldik.
- Bo'sh vaqtingizni qanday o'tkazasiz?
- Ta'til - jonu dilim.
- Ta'til rejasi.

Yozma nutq:

Ta'til haqida hikoya qilish uchun reja tuzish.

O'z va o'rtoqlari ta'tili haqida insho yozish.

Ta'til taassurotlariga oid matn tuzish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Grammatika:

Zidlov bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar, ularning ma'nodoshligi.

XIV. Maishiy xizmat (4 soat)

Og'zaki nutq:

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash.

Maishiy xizmat korxona va muassasalari ishi haqida ma'lumot olish, ularning xizmatidan foydalanishda o'zbekcha so'z va iboralardan to'g'ri foydalanish.

Maishiy xizmat sohasida savol-javob va mulozamat iboralarini mustahkamlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Sochimni oldirmoqchiman.
- Buyurtma qabul qiling.
- Xizmatingiz kafolatlimi?
- Imtiyozlar siz uchun foydali.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Qanday maishiy xizmat turlaridan foydalanayotgani haqida matn yozish.

Maishiy xizmat korxonasining afzalligi va imtiyozlari haqida reklama matnini tayyorlash.

Grammatika:

Ayiruv bog'lovchili bog'langan qo'shma gaplar, ularning ma'nodoshligi.

XV. Yurt posbonlari (4 soat)

Og'zaki nutq:

Yoshlarning majburiy harbiy xizmat qismlaridagi hayoti va faoliyati haqida suhbatlashish.

Harbiy vatanparvarlik haqidagi tarixiy lavhalarni o'qib, bahs - munozara o'tkazish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Majburiy harbiy xizmat burchi.
- Vatanimni qo'riqlayman.
- Chegaradagi xushyorlik.
- Generallikni orzu qilgan askar.

Yozma nutq:

Chegara qo'shinlarining ishlari oid gazeta matnini o'qib, kengaytirib yangi hikoya yozish.

Harbiy xizmatga yo'llash tadbiri haqida gazetaga xabar tayyorlash.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Grammatika:

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar, ularda tinish belgilari va ohang.

XVI. Madaniyatimiz fidoyilari (6 soat)

Og'zaki nutq:

O'zbek qo'shiqlari, hofiz va xonandalari haqida savol-javobda ishtirok etish. Teatr va kino san'ati, ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, gazeta-jurnallar) materiallari fikr almashish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Birga qo'shiq aytamiz.
- Menga rol bering.
- Xalq olqishlagan san'atkor.
- Hayot ko'zgusi.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Biror san'atkorga tavsifnoma yozish.

O'zi yoqtirgan sanat turining shaxs barkamolligiga ta'siri haqida bayon yozish.

Grammatika:

Ergashgan qo'shma gaplar, bunday gaplarni tashkil etgan sodda gaplar o'rtasidagi mazmuniy munosabatlar.

XVII. Barhayot an'ana va udumlar (6 soat)

Og'zaki nutq:

Odob-axloq, o'zbekona andisha, hurmat haqidagi matnlarni o'qish, ularni qayta hikoyalash.

Yordam so'rash va taklif etish uchun ishlatiladigan so'z va iboralarni o'rinli va to'g'ri qo'llash.

Insoniy fazilatlar haqidagi maqollarni o`rganish, ona tilidagi shu mazmundagi maqollar bilan qiyoslash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o`zaro suhbatlashish:

- Odob salomdan boshlanadi.
- Yordamingizni ayamang.
- Insonlardan o`rgandim.
- Oila marosimlari.

Yozma nutq:

Teleko`rsatuv asosida milliy udumlar haqida bayon yozish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Maqollar asosida kichik hikoya yozish.

Grammatika:

Qo`shma gaplarning tarkibidagi bog`lovchi vositalariga ko`ra tasnifi,
Bu vositalarining ishlatilishi.

XVIII. Xalq bayramlari va sayllari (4 soat)

Og`zaki nutq:

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish,
mazmunini qayta hikoyalash.

Bayram liboslari bo`yicha suhbatda va rolli o`yinda ishtirok etish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o`zaro suhbatlashish:

- Mustaqillik maydonida.
- Xalq sayli boshlandi.
- Navro`z tantanalari.
- Bayram libosini kiyamiz.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Bayram taassurotlarini yozma bayon qilish va gazetaga maqola yozish.

Videotasvir asosida Navro`z sayllari haqida matn tuzish.

Grammatika:

Qo`shma gaplarning tarkibiy qismlarining ifoda maqsadiga ko`ra turlari, ularda tinish belgilarining qo`llanishi.

XIX. Bizning mahalla (4 soat)

Og`zaki nutq:

O`z mahallasining manzili, obodonchiligi, odamlari haqida savol-javobda qatnashish.

Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish,
mazmunini qayta hikoyalash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o`zaro suhbatlashish:

- Qayerda yashaysan?
- Xonamni tozalayman.
- Vatan mahalladan boshlanadi.
- Ona yurti - oltin beshiging.

Yozma nutq:

O'z mahallasi haqida reklama matnini tayyorlash.
Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.
O'tgan zamon fe'llari orqali mahalladabajarilgan ishlarga
oid matn tuzish.

Grammatika:

Qo'shma gaplarning gap bo'laklariga ko'ra tasnifi. Kesim ergash
gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.

XX. Safar rejasi (4 soat)**Og'zaki nutq:**

Safar rejalari haqida o'zbek tilida so'zlab berish, safarga ketayotganlarga
tilaklar bildirish.

Buyuk Ipak yo'li haqidagi matnlarni o'qish, ularni so'zlash, shu kabi
matnlarni kengaytirish. Buyuk Ipak yo'li xaritasini izohlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Oy borib, omon keling!
- Buyuk Ipak yo'li bo'ylab.
- Bir marta ko'rgan afzal.
- Safar taassurotlari.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

O'zbekistonning tarixiy me'morchilik obidalari haqida matnlar bo'yicha
bayon yozish va matn mazmunini kengaytirish.

Safar xotiralariga oid matn tuzish.

Grammatika:

Ega ergash gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.

XXI. Jamoat transporti (4 soat)**Og'zaki nutq:**

Jamoat transportida, bekat va ko'chalarda turli vaziyatlarda o'zbek tilida
muloqotga kirisha olish, o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni aniqlash.

Muayyan manzilga yetib borish yo'nalishini og'zaki ifodalay olish.

Rolli o'yinda ishtirok etish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Manzilga yetdingizmi?
- Hiyobonda uchrashamiz.
- Shahar transporti.
- Harakat xavfsizligiga amal qiling.

Yozma nutq:

So'ralgan manzilga yetib borish yo'nalishini yozma ifodalay olish.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

SHahringiz jamoat transportining qatnovi haqida maqola tayyorlash.

Hozirgi zamon fe'llari orqali ifodalangan mavzuga oid dialog tuzish.

Grammatika:

Hol ergash gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.

XXII. O'zbek teatri va kinosi (6 soat)**Og'zaki nutq:**

Tasviriy san'at asarlari, teatr san'ati haqidagi matnlarni o'qish, ularni qayta hikoyalash. Rasmlarga qarab hikoya qilish.

Sahna ustalari haqida matnlarni o'qish, teatr sohasi atamalarini izohlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Aktyor va hayot haqiqati.
- Mohir so'z ustasi.
- Mumtoz o'zbek kinosi.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Teatr sahnasi tasvirini yozma bayon qilish.

O'zi yoqtirgan kinosi aktyor haqida matn tuzish.

Grammatika:

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.

XXIII. Xalqimizning asl farzandlari (4 soat)**Og'zaki nutq:**

O'zbek xalqi tarixida o'chmas iz qoldirgan allomalar, dunyo ilm-fani taraqqiyotiga yirik hissa qo'shgan o'zbek mutafakkirlari haqidagi matnlarni o'qish, qayta hikoyalash, kengaytirish, shu mavzuda savol-javobda ishtirok etish.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Ular bilan faxrlanamiz.
- Xotira maydonida.
- Bilimini dunyo tan olgan.
- Xalq xotirasida mangu qoladi.

Yozma nutq:

Adabiy kecha uchun buyuk vatandoshlarimiz haqida ma'ruza matnini hozirlash.

O'zbek xalqining sevimli qahramoni haqida gazetaga maqola tayyorlash.

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Grammatika:

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.

XXIV. Ishlab chiqarish amaliyoti (4 soat)**Og'zaki nutq:**

Ishlab chiqarish amaliyoti o'tkazilgan korxonadagi ishlar xususidagi savol-javobda ishtirok etish, o'z fikr-mulohazalarini bildirish.

Fikrga munosabat bildirish, e'tiroz va rad etish sabablarini izohlash.

Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:

- Korxona(tashkilot, jamoa xo'jaligi)da.
- Mustaqil ishlayapman.
- Xavfsizlik texnikasi.
- Mening ish joyim.

Yozma nutq:

Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash.

Ishlab chiqarish amaliyotida qatnashgan kursdoshiga tavsifnoma yozish.

Ishlab chiqarish amaliyoti bo'yicha hisobot tayyorlash.

Grammatika:

Shart ergash gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.

Jami amaliy dars mashg'ulotlari - 112 soat

Nazorat ishlari - 8 soat

Jami - 120 soat

“O'ZBEK TILI” fanidan mavzuiy reja va soatlar taqsimoti

№	Fan bo'limlari va mavzular	Umumiy yuklama (soatlarda)							
		Dars turi bo'yicha soatlar taqsimoti							
		Hammasi	Jami	Nazariy (ma'ruza)	Amaliy	Labaroto riya	Seminar	Kurs ishi(loyih	Mustaqil ish
1	O'zbekiston - mustaqil yurt	8	6	-	6	-	-	-	2
2	Mening qiziqishlarim va mashg'ulotlarim	9	6	-	6	-	-	-	3
3	Oilam - tayanchim va faxrim	8	4	-	4	-	-	-	2
4	Ustozlar maktabi	8	4	-	4	-	-	-	2
5	Sevimli gazetam (jurnalim)	8	6	-	6	-	-	-	2
6	Til - ma'naviyat kizgusi Yozma nazorat ishi	8	4	-	4	-	-	-	2
7	Sharq bozori ne'matlari	8	6	-	6	-	-	-	2
8	O'zbek dasturxoni atrofida	8	4	-	4	-	-	-	2
9	Sog'liq - tuman boylik	8	4	-	4	-	-	-	2
10	Tarixni o'rganamiz	9	6	-	6	-	-	-	3
11	Dunyo mo'jizalari	8	4	-	4	-	-	-	2
12	Kasbimni sharaflayman Yozma nazorat ishi	8	6	-	6	-	-	-	2
13	Dam olish va ta'til	8	4	-	4	-	-	-	2
14	Maishiy xizmat	8	6	-	6	-	-	-	2
15	Yurt posbonlari	8	4	-	4	-	-	-	2
16	Madaniyatimiz fidoyilari	8	6	-	6	-	-	-	2
17	Barhayot an'ana va udumlar	8	6	-	6	-	-	-	2
18	Xalq bayramlari va sayllari Yozma nazorat ishi	8	6	-	6	-	-	-	2
19	Bizning mahalla	8	4	-	4	-	-	-	2
20	Safar rejasi	8	4	-	4	-	-	-	2
21	Jamoat transporti	8	4	-	4	-	-	-	2

22	O'zbek teatri va kinosi	8	6	-	6	-	-	-	2
23	Xalqimizning asl farzandlari	8	6	-	6	-	-	-	2
24	Ishlab chiqarish amaliyoti Yozma nazorat ishi	8	4	-	4	-	-	-	2
Жами:		170	120	-	120	-	-	-	50

Foydalaniladigan darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent., “Ma'naviyat”, 2008. - 176 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent., “O'zbekiston”, 1992. - 46 b.
3. O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni // O'zbekistonning yangi qonunlari: To'plam. –Toshkent., 1996, 20-30 b.
4. Azizov O. va b. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi. –Toshkent., “O'qituvchi”, 2007.
5. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent., “Fan va texnologiya”, 2006.
6. Rafiyev A., Mahmudov N., Yo'ldoshev I. Deloproizvodstvo na gosudarstvennom yazike. –Toshkent.: “Cho'lpon”, 2009.
7. Shodmonov E., Rafiyev A., G'oyipov S. O'zbek tili. Darslik. –Toshkent., “O'zbekiston”, 1995.
8. Usmonova M. va b. O'zbek tili. Darslik. –Toshkent., “O'qituvchi”, 1992.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abdurahmonov X., Shodmonov E., Rafiev A. O'zbek tili. – Toshkent., “O'qituvchi”, 1988.
2. Yuldashev R.A. Izuchaem uzbekskiy yazik /O'zbek tilini o'rganamiz. Izd. 2-e, dop. – Toshkent., “O'qituvchi”, 1996. - 264 s.
3. Nazarov K., Sayfullaev R., Ubaydullaeva M. O'zbek tili (Ixtisoslik grammatikasi). – Toshkent., “O'qituvchi”, 1993.
4. Madvaliev A., Mahmudov N., va b. O'zbek tilida ish yuritish (munshoot). - Toshkent., “O'zbek Milliy ensiklopediyasi”.; 1990. - 223 b.
5. Reshetov V.V. Osnovi fonetiki I grammatiki uzbekskogo yazika. – Toshkent., “O'qituvchi”, 1966.
6. Rafiyev A. va boshqalar. Chet elliklar uchun o'zbek tili. I-qism.(CD kassetali) – Toshkent., “O'zbekiston”, 2001.
7. Rafiyev A. va boshqalar. O'zbek tili. Kasb-hunar kollejlarning rus guruhlar uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent., “Ilm Ziyo”, 2006 - 160 b.
8. Qo'chqortoyev I., Rafiyev A. Kundalik muloqot so'zlashgichi/ Razgovornik povsidnevnogo obsheniya, - Toshkent ., “O'zbekiston”, 1995.
9. Ruscha - o'zbekcha lug'at. 1-2 jild. –Toshkent., “O'zbek Milliy ensiklopediyasi”.; 1988.
10. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-5 jild. –Toshkent., “O'zbek Milliy ensiklopediyasi”, 2005 - 2008.
11. XXI asr: istiqbolimiz timsollari. – Toshkent., “O'zbekiston”, 2001.

II. “O‘zbek tili” fanini bilim sohalari bo‘yicha kasbga yo‘naltirib o‘qitish yuzasidan tavsiyalar

II.1. TA'LIM, GUMANITAR SOHA

T/R	Bo‘lim va mavzularning nomi	Ta'lim, gumanitar sohaga yo‘naltirib o‘qitish yuzasidan tavsiyalar
1	Ustozlar maktabi Og‘zaki nutq: Ustozlar ta'rifi va tavsifiga oid matnlarni o‘qib, savol-javoblarda ishtirok etish. Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash. Ustozlari, tengdoshlarini ta'riflay olish, ularga tavsif berish. Quyidagi nutqiy mavzularda o‘zaro suhbatlashish: Bular ustozlarim. Yaxshi fazilat - inson ko‘rki. Odamlardagi qaysi xislatlarni xush ko‘rasiz? Ustozingni e‘zozla, do‘stim/ Yozma nutq: Ta'rif va tavsif rejasini tuzish. Atrofdagilarning xislatlari haqida o‘z fikr-mulohazalarini yozma bayon qilish. Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Grammatika: Asliy va nisbiy sifatlar, otlashgan sifatarning qo‘llanishi.	Ustozlar maktabi O‘zbek tili fani bo‘yicha dasturda mavjud mavzularni ta'lim, gumanitar sohaga yo‘naltirib o‘qitishda ko‘proq didaktik ahamiyatga ega bo‘lgan va gumanitar sohaga oid bo‘lgan matnlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar orqali rusiyzabon o‘quvchilarda pedagogikaga oid atamalar bo‘yicha tasavvur hosil qilish, o‘z kasbiga oid atama va so‘zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi mazmunni tavsiya etamiz: Og‘zaki nutq: Musiqa ustozlari ta'rifi va tavsifiga oid matnlarni o‘qish. Musiqa muallimi xususidagi savol-javoblarda ishtirok etish. Ustozlarni, tengdoshlarni ta'riflay olish. O‘zining dastlabki musiqa ustozlari haqida matn tuzish. Yozma nutq: “Musiqa ustozlari qanday bo‘lishi lozim” mavzusida kichik insho yozish. Kasbga oid terminlarning minimal lug‘atini to‘plash va yozish. Mashg‘ulotni olib borishda hamkorlikda ishlash texnologiyasidan va munozara, suhbat, tezkor so‘rov usullaridan foydalanish mumkin. Adabiyotlar: 1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. - 176 b. 2. Rasulov R., Mirazizov A. O‘zbek tili. O‘rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o‘quv

		qo'llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2006. 3. Rafiyev A. va boshqalar. O'zbek tili. Kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2006 - 160 b. 4. Tolipov O' .Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. 5. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar. . – Toshkent: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. 6. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b. 7. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.
2	O'zbek teatri va kinosi Og'zaki nutq: Tasviriy san'at asarlari, teatr san'ati haqidagi matnlarni o'qish, ularni qayta hikoyalash. Rasmlarga qarab hikoya qilish. Sahna ustalari haqida matnlarni o'qish, teatr sohasi atamalarini izohlash. Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish: Aktyor va hayot haqiqati. Mohir so'z ustasi. Mumtoz o'zbek kinosi. Yozma nutq: Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Teatr sahnasi tasvirini yozma bayon qilish. O'zi yoqtirgan kinosi aktyor haqida matn tuzish.	O'zbek teatri va kinosi O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitishda ko'proq didaktik ahamiyatga ega bo'lgan va gumanitar sohaga oid bo'lgan matnlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda pedagogikaga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, o'z kasbiga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi mazmunni tavsiya etamiz: Og'zaki nutq: Teatr va kino san'ati haqidagi matnlarni o'qish. “Toshkent shahridagi teatrlar” mavzusida matn tuzish. Atoqli o'zbek teatr va kino arboblari haqidagi savol-javobda ishtirok etish. O'zi yoqtirgan o'zbek aktyori yoki aktrisasi haqida suhbat.. Yozma nutq: Teatr sahnasini tasvirlovchi matn yozish. “Mening orzuimdagi stsenariy” mavzusidagi kichik tanlovni o'tkazish.

	Grammatika: Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.	Kasbga oid terminlarning minimal lug'atini to'plash va yozish. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalar aynan ta'lim va gumanitar sohaga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Mashg'ulotni olib borishda blits-so'rov, aqliy hujum, kichik guruhda ishlash, xulosalash usullari va BBB jadvalidan foydalanish mumkin. Adabiyotlar: 1. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2006. 2. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. 3. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar. . – Toshkent: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. 4. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b. 5. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.
--	--	--

II.2. IJTIMOIIY FANLAR, BIZNES VA HUQUQ SOHA

T/R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1.	Tarixni o'rganamiz Og'zaki nutq: O'zbekiston tarixidan hikoyalarni o'qish, ularni qayta hikoyalash. Teleko'rsatuvlar matni bo'yicha savol-javobda ishtirok etish. Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish:	Tarixni o'rganamiz O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohasiga yo'naltirib o'qitishda sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohasiga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

	Tarixdan bir sahifa. Tarixiy obidalarni asrang. Temuriylar muzeyida. Yozma nutq: Temuriylar muzeyi, Amir Temur haqida ma'lumotlar asosida reja tuzish unga muvofiq insho yozish. Tarixiy mavzudagi matnni qisqartirib ko'chirish. Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Grammatika: Fe'lning analitik shakllari, ko'makchi va to'liqsiz fe'llarning qo'llanish xususiyatlari.	Quyidagi mazmunni tavsiya etamiz: <i>Og'zaki nutq:</i> O'zbekiston tarixidan hikoyalarni o'qish. O'zbekistonda joylashgan tarixiy obidalar haqida so'zlab berish. Ularni tavsiflash. "Amir Temur muzeyi" mavzusidagi matnni o'qish. <i>Yozma nutq:</i> O'zbekistonning tarixiy shaharlari va arxitektura yodgorliklari haqida kichik matn yaratish. Kasbiga oid terminlarning minimal lug'atini to'plash va yozish. Mashg'ulotni olib borishda suhbat, tezkor-so'rov, tushuntirish, insert, loyihalar (O'quv loyihasi) usulidan foydalanish mumkin. Adabiyotlar: 1. Qahhorova H., Muhamedova S. O'zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2004. 2. Mirzayev I. va boshqalar. O'zbek tili. - Toshkent, 2004. 3. Muhiddinova X. va b. O'zbek tili. – Toshkent, 2006. 4. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2006. 5. Tolipov O' .Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. 6. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar. . – Toshkent: "Iste'dod" jamg'armasi, 2008. 7. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b. 8. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.
--	--	--

II.3. ISHLAB CHIQUARISH VA TEXNIK SOHA

T/R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ishlab chiqarish va texnik sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1	Jamoat transporti Og'zaki nutq: Jamoat transportida, bekat va ko'chalarda turli vaziyatlarda o'zbek tilida muloqotga kirisha olish, o'zini qiziqtirgan ma'lumotlarni aniqlash. Muayyan manzilga yetib borish yo'nalishini og'zaki ifodalay olish. Rolli o'yinda ishtirok etish. Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish: Manzilga yetdingizmi? Hiyobonda uchrashamiz. Shahar transporti. Harakat xavfsizligiga amal qiling. Yozma nutq: So'ralgan manzilga yetib borish yo'nalishini yozma ifodalay olish. Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Shahringiz jamoat transportining qatnovi haqida maqola tayyorlash. Hozirgi zamon fe'llari orqali ifodalangan mavzuga oid dialog tuzish. Grammatika: Hol ergash gapli qo'shma gaplar, ularni bog'lovchi vositalar ma'nodoshligi.	Jamoat transporti O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni ishlab chiqarish va texnik sohaga yo'naltirib o'qitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda ishlab chiqarish va texnik sohaga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan ishlab chiqarish va texnik sohaga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Kasbiy yo'naltirilib o'qitilayotgan mavzular rusiyzabon o'quvchilarga ishlab chiqarish, texnik jarayonlar haqida ma'lumotlar berishi, o'quvchilarni kasbga oid atama va so'zlar bilan tanishtirishi lozim. Quyidagi mazmunni tavsiya etamiz: Og'zaki nutq: Yerusti transporti tizimi turlari, ularning tarkibiy qismlari xususida ma'lumot bera olish. Transportda o'zbek tilida muloqotga kirishish. "Jamoat transportida" mavzusida dialogik matn tuzish. Yozma nutq : O'zi yashayotgan hududdagi transport tizimi haqida yozma ma'lumot tayyorlash. Kasbga oid terminlarning minimal lug'atini to'plash va yozish. Mashg'ulotni olib borishda munozara, suhbat, blits-so'rov, tushunchalar tahlili, klaster usullaridan foydalanish mumkin. Adabiyotlar: 1. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2006.

		2. Rafiyev A. va boshqalar. O'zbek tili. Kasb-hunar kollejlarning rus guruhlar uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent: “Ilm Ziy”, 2006 - 160 b. 3. Tolipov O' .Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. 4. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar. . – Toshkent: “Iste'dod” jamg'armasi, 2008. 5. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O'quv-uslubiy qo'llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b. 6. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o'quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.
--	--	---

II.4. QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI

T/R	Bo'lim va mavzularning nomi	Qishloq va suv xo'jaligi sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1	Sharq bozori ne'matlari <i>Og'zaki nutq:</i> Bozordagi meva va poliz mahsulotlari nomini to'g'ri tushunish, ularni nutqda to'g'ri qo'llash. Bozordagi dialoglarda ishtirok eta olish ko'nikmasini egallash, taklif va mulohazalarni sotuvchi va boshqalarga bildirish. Rolli o'yinlarda qatnashish. Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish: Bozorga tushdim. Arzonroq bo'ladimi? Mazasini tatib ko'ring. Hosil bayrami.	Sharq bozori ne'matlari O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni qishloq va suv xo'jaligi sohasiga yo'naltirib o'qitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda qishloq va suv xo'jaligi sohasiga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan qishloq va suv xo'jaligi sohasiga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Kasbiy yo'naltirilib o'qitilayotgan mavzular rusiyzabon o'quvchilarga qishloq va suv xo'jaligi haqida ma'lumotlar berishi, o'quvchilarni kasbga oid atama va so'zlar bilan tanishtirishi lozim. Quyidagi mazmunni tavsiya etamiz: <i>Og'zaki nutq:</i>

Yozma nutq: SHarq bozoriga yozma ta`rif berish. Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. Meva va sabzavotlar ko`rgazmasi haqida xabar tayyorlash. Grammatika: Sifat va ravishlarda modal ma'noning ifodalanishi. Birikmali sifatdoshlarning turlari va qo`llanishi.	Sharq bozoridagi meva va sabzavotlar nomini to`liq o`rganish, ularni nutqda to`g`ri qo`llash. Bozordagi mahsulotlar va xizmat yuzasidan dialogik suhbatlar tuzish. Bozor mavzusida rolli o`yinlar tashkil qilish. Yozma nutq: “Fermer xo`jaligi – bozorning bosh ta`minotchisi” mavzusida yozma ma'lumotlar tayyorlash. “Mening orzuimdagi bozor” mavzusida insho yozish. Kasbiga oid terminlarning minimal lug`atini to`plash va yozish. Mashg`ulotni olib borishda musobaqa, suhbat, rolli o`yin, keys stadi usullaridan foydalanish mumkin. Adabiyotlar: 1. Rasulov R., Mirazizov A. O`zbek tili. O`rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o`quv qo`llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2006. 2. Rafiyev A. va boshqalar. O`zbek tili. Kasb-hunar kollejarining rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2006 - 160 b. 3. Tolipov O` .Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. 4.Ishmuhammedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar. . – Toshkent: “Iste`dod” jamg`armasi, 2008. 5. Adilova S., Mirazizov A., Kuvandikova I., Sidikova M. Amaliy o`zbek tili. Metodik qo`llanma. – Toshkent, 2010. 6. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O`quv-uslubiy qo`llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b. 7. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o`quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.
--	---

II.5. SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOY TA'MINOT

T/R	Bo'lim va mavzularning nomi	Sog'likni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1	Sog'liq - tuman boylik Og'zaki nutq: Betob bo'lib qolganlar holidan xabar olishda o'zbekcha so'z va iboralarni to'g'ri va o'rinli ishlatish. Mavzuga oid adabiy – badiiy matnlar tinglab tushunish, mazmunini qayta hikoyalash. Sport turlarining o'zbek tilida atalishini o'zlashtirish, so'zlarning ma'nosini izohlash. Quyidagi nutqiy mavzularda o'zaro suhbatlashish: Tobingiz qochdimi? Parhez qiling. Sog'ligingni asra! Sport bilan shug'ullanaman. Yozma nutq: Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. O'quv xonangizning tozaligi haqida bildirishnoma yozish. Badantarbiya bilan shug'ullanish zarurligini asoslab matn tuzish. Grammatika: Fe'l nisbatlarining birdan ortiq qo'llanilishi. Fe'llarning modal ma'noni ifodalovchi shakllari.	Sog'liq- tuman boylik O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasiga yo'naltirib o'qitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasiga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasiga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Kasbiy yo'naltirilib o'qitilayotgan mavzular rusiyzabon o'quvchilarga sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minotga doir jarayonlar haqida ma'lumotlar berishi, o'quvchilarni kasbga oid atama va so'zlar bilan tanishtirishi lozim. Quyidagi mazmunni tavsiya etamiz: Og'zaki nutq: Bemorlar bilan o'zbek tilida muloqot qila olish. Ayrim kasalliklarning o'zbekcha nomini yod olish. Kasal odamdan xabar olishda zarur bo'ladigan o'zbekcha so'z va iboralarni to'g'ri va o'rinli ishlatish. Mavzuga oid matnlarni tarjima qilish. Yozma nutq: “Sog'liq” va “Sog'lom turmush tarzi” mavzusida esse yozish. Kasbga oid terminlarning minimal lug'atini toplash va yozish. Ushbu mavzuni olib borishda muammoli savol-javob, suhbat, esse, muammo, rolli o'yin usullaridan foydalanish mumkin. Adabiyotlar:

		1. Rasulov R., Mirazizov A. O`zbek tili. O`rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o`quv qo`llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2006. 2. Rafiyev A. va boshqalar. O`zbek tili. Kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent: “Ilm Ziy”, 2006 - 160 b.</p> <p>3. Tolipov O` .Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O` quv qo` llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. 4. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar. . – Toshkent: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008. 5. Adilova S., Mirazizov A., Mirazizova D., Yunusova Sh. Amaliy o‘zbek tili. Metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2010. 6. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘quv-uslubiy qo‘llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b. 7. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o‘quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.
--	--	--

II.6. XIZMATLAR

T/R	Bo‘lim va mavzularning nomi	Xizmatlar sohaga yo‘naltirib o‘qitish yuzasidan tavsiyalar
1	Safar rejasi Og‘zaki nutq: Safar rejalari haqida o`zbek tilida so`zlab berish, safarga ketayotganlarga tilaklar bildirish. Buyuk Ipak yo`li haqidagi matnlarni o`qish, ularni so`zlash, shu kabi matnlarni kengaytirish. Buyuk Ipak yo`li xaritasini izohlash. Quyidagi nutqiy mavzularda o`zaro	Safar rejasi O`zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni xizmatlar sohasiga yo`naltirib o`qitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o`quvchilarda xizmatlar sohasiga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Kasbiy yo'naltirilib o`qitilayotgan mavzular

suhbatlashish: Oy borib, omon keling! Buyuk Ipak yo`li bo`ylab. Bir marta ko`rgan afzal. Safar taassurotlari.</p> <p><b>Yozma nutq:</b> Mavzuga oid mashq va topshiriqlar ustida ishlash. O`zbekistonning tarixiy me'morchilik obidalari haqida matnlar bo`yicha bayon yozish va matn mazmunini kengaytirish. Safar xotiralariga oid matn tuzish.</p> <p><b>Grammatika:</b> Ega ergash gapli qo`shma gaplar, ularni bog`lovchi vositalar ma'nodoshligi.	rusiyzabon o`quvchilarga xizmatlar jarayoni haqida ma'lumotlar berishi, o`quvchilarni kasbiga oid atama va so`zlar bilan tanishtirishi lozim. Quyidagi mazmunni tavsiya etamiz: <i>Og`zaki nutq:</i> Safar, sayohatlar xaqida so`zlab berish. “O`zbekistondagi arxetektura yodgorliklari” mavzusida matn tuzish. O`zbekistonga kelgan turistlar bilan o`zbekcha muloqot qilish formulalarini yod olish. <i>Yozma nutq:</i> “Safar xotiralariga” mavzusida insho yozish. Kasbiga oid terminlarning minimal lug`atini to`plash va yozish. Mashg`ulotni olib borishda muammoli savol-javob, suhbat, sayohat usullari va sinkveyn usulidan foydalanish mumkin.</p> <p><b>Adabiyotlar:</b> 1. Rasulov R., Mirazizov A. O`zbek tili. O`rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o`quv qo`llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2006. 2. Rafiyev A. va boshqalar. O`zbek tili. Kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent: “Ilm Ziyo”, 2006 - 160 b. 3. Tolipov O` .Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O`quv qo`llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b. 4. Ishmuhammedov R.J. va boshq. Ta'limda innovatsiyalar. . – Toshkent: “Iste'dod” jamg`armasi, 2008. 5. Adilova S., Mirazizov A., Mirazizova D., Yunusova Sh. Amaliy o`zbek tili. Metodik qo`llanma. – Toshkent, 2010. 6. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O`quv-uslubiy qo`llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b. 7. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o`quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . –
--	--

		Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.
--	--	--

III. “O‘zbek tili” fanini o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik metod va texnologiyalarni qo‘llash.

Interfaol o‘qitish metodlari

Interfaol so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, «**inter**» – o‘zaro va «**act**» – harakat qilmoq ma'nolarini bildirib, ularning umumiy mazmuni interfaol – ya'ni o‘zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. Bunday o‘zaro harakat turlariga talaba (o‘quvchi) va o‘qituvchining maqsadli harakatini kiritish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qituvchi o‘quv faoliyatninig faol tashkilotchisi bo‘lib, o‘quvchi bu faoliyatning sub'ekti sifatida namoyon bo‘ladi. Interfaol usullar o‘quvchilardan axborotlarni o‘zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantiribgina qolmay, o‘qitish maqsadlarining to laqonli amalga oshishiga yordam beradi. Bugungi kunda o‘qitish tizimidagi eng samarali interfaol o‘qitish metodlari va texnikalariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin bo‘ladi:


- Keys-stadi
- SCORE
- SWOT-tahlil
- Sinkveyn
- FSMU
- Xulosalash (Rezyume)
- Klaster
- Labirint
- Qora quti
- Charxpalak
- Blits-o‘ yin
- Aqliy hujum
- Skrabey
- Ikki qismli kundalik
- Venn Diagrammasi
- Tushunchalar tahlili
- Debatlar
- 6-3-5
- Akvarium
- Davra suhbatlari metodlari, shuningdek
- Insert
- Assesment
- Fidbek
- Pinbord
- Juftliklarda ishlash
- Beshinchisi ortiqcha
- Chorraha texnikasi v.h.k

Quyida ularning amaliyotda qo‘llash metodikasi bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi va uning o'ziga xosliklari

Keys-stadi inglizcha case – aniq vaziyat, stadi – ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta'lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta'lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o'rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o'quv jarayonida ma'lum bir maqsadga erishish yo'li sifatida qo'llanilsa, metod xarakteriga ega bo'ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma'lum bir algoritm asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o'zida aks ettiradi.

Ushbu metod dastlab 1920- yilda Garvard biznes maktabida qo'llanilgan. Garvard biznes maktabining o'qituvchilari biznes yo'nalishidagi aspirantura bo'limi uchun to'g'ri keladigan darsliklarning mavjud emasligini tez anglaydilar. Ushbu masalani echish uchun biznes maktabining o'qituvchilari tomonidan qo'yilgan dastlabki qadam etakchi biznes amaliyotchilaridan intervyu olish hamda mana shu menejerlarning faoliyati, unga ta'sir etuvchi omillar yuzasidan batafsil xisobot yozish bo'ldi. Ma'ruza tinglovchilarga u yoki bu tashkilot to'qnash kelgan konkret vaziyat, ushbu vaziyatni tahlil etish va mustaqil ravishda yoki jamoa bo'lib munozara tashkil etish asosida uning echimi topish tarzida taqdim etilar edi. Keyinchalik keys metodi biznes yo'nalishidagi ta'lim muassasalarida keng targ'ib etilgan. Hozirgi kunda esa, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish nuqtai nazaridan mazkur metod tarafdorlari ko'payib bormoqda. XX asrning 50- yillaridan boshlab biznes-keyslar G'arbiy Evropa mamlakatlarida ommalashdi. Evropaning yetakchi biznes maktablari INSEAD, LBS, HEC, LSE, ESADE va boshqalar keys-stadi metodi asosida dars beribgina qolmay, keyslarni yaratishda ham faol ishtirok eta boshlaydilar.



1-rasm. Keys-stadi maktablari

2000- yillarning birinchi yarmidan boshlab chet el oliy o'quv yurtlarida tabiiy fanlar va texnik fanlarni o'qitishda keys-stadi texnologiyasidan foydalanish tendensiyasi kuzatilib, hozirgi kunda keys-stadi ta'lim texnologiyasi muammoli ta'limning yetakchi usullaridan bo'lib qoldi, umumiy tarzda keys-stadi texnologiyasining mohiyati quyidagicha izohlanishi mumkin: ushbu texnologiya vositasida o'quvchi (o'quvchi)ga real hayotiy vaziyatni anglash taklif etiladi, ayni paytda bu vaziyatning tavsifida nafaqat u yoki bu amaliy muammo, balki shu muammoni yechish natijasida egallanishi zarur bo'lgan bilimlar kompleksi aktuallashishi ham kuzatiladi. Ta'kidlash joizki, muammoning o'zi mohiyatan yechimga ega bo'lmaydi.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasining Rossiya ta'lim tizimiga kirib kelishi XX asrning 70-80-yillariga to'g'ri kelsa-da, amalda ushbu texnologiyaning ta'lim tizimi sharoitida ommalashuvi XXI asrning boshlariga to'g'ri keladi. Rossiyada ushbu metodni ishlab chiqish va asoslashga G.A.Bryanskiy, Yu.Yu.Ekaterinoslavskiy, O.V.Kozlova, Yu.D.Krasovskiy, V.Ya. Platov, D.A.Pospelov, O.A.Ovsiyannikov, S.Rapopport va boshqalar hissa qo'shdilar. Ayni paytda O'zbekiston ta'lim tizimiga ham keys-stadi ta'lim texnologiyasi muammoli ta'lim texnologiyalari qatorida kirib kelgan va bugungi kunda eng samarali metodlardan biri hisoblanadi.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi – bu ta'limdagi metodik yangilik bo'libgina qolmay, balki uning ta'lim tizimida keng ishlatilishi zamonaviy ta'lim tizimidagi vaziyatga ham bog'liq. Aytish mumkinki, ushbu texnologiya asosan

yangi bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishga emas, o'qituvchi va o'quvchilarning umumiy intellektual va kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.

Keys-stadi interaktiv ta'lim metodi sifatida o'quvchilar tomonidan eng afzal ko'riladigan metodlar qatoriga kirmoqda. Buning sababi sifatida ushbu metod o'quvchilarga tashabbus bildirish, nazariy holatni o'zlashtirishda hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda mustaqillikka ega bo'lish imkoniyatini berishida ko'rish mumkin. O'z navbatida vaziyatlarning analizi (tahlili) o'quvchilarning kasbiy shakllanish jarayoniga kuchli ta'sir o'tkaza olishi, ularning kasbiy jixatdan "ulg'ayishiga" xizmat qilishi, ta'lim olishga nisbatan qiziqish va ijobiy motivatsiyaning shakllantirishi alohida ahamiyatga ega. Keyslar metodi o'qituvchining tafakkur turi sifatida, alohida paradigma ko'rinishida gavdalanib, ijodiy salohiyatni rivojlantirish, noan'anaviy tarzda fikrlash imkoniyatini beradi. Bunga albatta, ta'lim tizimining demokratlashuvi va modernizasiyalashuvi, pedagogik kreativlikka ochilgan keng yo'l, ularda progressiv tafakkur uslubini hamda pedagogik etika, pedagogik faoliyat motivatsiyasini shakllantirishi ham misol bo'la oladi.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi tarkibidagi keysdagi harakatlar tavsif ko'rinishida berilishi mumkin, bunda o'quvchidan ushbu tavsifni anglash, ya'ni tavsiflangan vaziyatning natijalari, samaradorligi yuzasidan mushohada yuritish talab etiladi. Aks holda ular muammoning yechimlari sifatida taklif etiladi. Har ikkala holatda ham amaliy harakatlar modelini ishlab chiqish ta'lim oluvchilarning kasbiy fazilatlarini shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

V.Ya. Platov keys-stadi texnologiyasining quyidagi afzalliklari va boshqa ta'lim texnologiyalaridan ajralib turuvchi jixatlarini belgilaydi:

U yoki bu ijtimoiy-iqtisodiy tizim modelining mavjudligi hamda ushbu model holatining muayyan vaqt birligi ichida tahlil etilishi.

Muammo yechimini aniqlashga jamoaviy tarzda erishish. Muammoning echimida turli muqobil javoblarning mavjudligi. Yagona yechimning mantiqan mavjud emasligi.

Muammo yechimini izlashda yagona maqsadning qo'yilishi.

Faoliyatni baholashning guruhviy tizimining mavjudligi.

Ushbu o'ziga xosliklar va boshqa omillar ta'sirida keys-stadi ta'lim texnologiyasi ta'lim tizimi sharoitida keng tarqalmoqda. Ammo ushbu metodning ta'lim tizimida samarali qo'llanilishida bir qator qiyinchiliklar ham kuzatiladi. Eng avvalo, bunday qiyinchiliklar pedagog-kadrlarning tegishli metodning metodologik asosiga yuzaki yondashuvi natijasida vujudga keladi. Ko'pincha, keys-stadi ta'lim texnologiyasi ostida ta'lim tizimiga "soxta" vaziyatlar, boshqacha aytganda "hayotiy" vaziyatlarning kirib kelishi kuzatiladi, ta'limiy munozara esa "hayot haqidagi suhbat"ga aylanadi. Ammo ayni paytda keys-stadi ta'lim texnologiyasi o'qituvchining kasbiy kompetentligini oshirish vositasi bo'lib, ta'limning tarbiyaviy, ta'limiy va tadqiqotchilik funksiyalarini birlashtirishga xizmat qilishi mumkin. Ushbu metodning samaradorligini

oshiruvchi yana bir omillardan biri uning boshqa ta'lim metodlari bilan oson birikishidir.

Keys-stadi ta'lim metodining kategorial apparatini shakllantirish undan foydalanishning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkoniyatini beradi hamda ta'lim jarayonida metodning texnologizatsiyasiga yo'l ochadi. Keys-stadi ta'lim texnologiyasining asosiy tushunchalari qatoriga "vaziyat" va "tahlil", ushbu ikki tushunchaning uyg'unlashuvidan kelib chiqqan "vaziyat tahlili" kiradi. Falsafiy nuqtai nazardan "vaziyat" atamasi o'z ichiga bir qator kontekstlarni birlashtiradi. Shuning uchun, ushbu atama yuqori darajadagi barqarorsizlik bilan tavsiflanuvchi va o'z tarkibida bir qator ziddiyatlarga ega bo'lgan muayyan holat sifatida izohlanishi mumkin. Vaziyat aksariyat hollarda o'zgarish moyilligiga ega bo'lib, uning o'zgarishi ushbu vaziyatda ishtirok etuvchi insonlarning faoliyatiga bog'liq bo'ladi. Vaziyat insonlar ta'siriga nisbatan ochiq bo'lib, insonlarning xatti-harakatlari esa bu vaziyatda o'z maqsadlariga erishishlari va qiziqishlarini qondirishlariga bog'liq bo'ladi. Vaziyatlar shunday ijtimoiy tizimlarda "paydo bo'ladi"ki, ularda xulq-atvorning qattiq determinatsiyasi kuzatilmaydi, ijtimoiy sohada ko'plab ijtimoiy kuchlarning o'rtasida o'zaro ta'sir, raqobat va kurash mavjud bo'ladi. Shu tufayli vaziyatlar tahliliga asoslangan har qanday metod kabi keys-stadi ta'lim texnologiyasi plyuralizm, o'z-o'zini anglash va jamoaviylik, ayni paytda mustaqillikni taqozo etadi.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasining yana bir bazaviy kategoriyasi bu "tahlil (analiz)"dir. Tahlil etish kategoriyasi ob'ektni xayolan bo'laklarga bo'lish yoki ilmiy tadqiq etish sifatida tushunilishi mumkin. Analizning turli klasifikatsiyalari mavjud bo'lib ommaviy analiz tasnifini quyidagicha belgilaymiz: tizimli analiz, korrelyatsion analiz, faktorli analiz, statistik analiz va boshqalar. Umuman olganda aytish mumkinki, analizning ushbu barcha turlari keys-stadi texnologiyasi doirasida qo'llanilishi mumkin bo'lib, bu holat texnologiyaning imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Keys-stadida vaziyatni anglash, tafakkur qilish jarayonida amalga oshishi mumkin bo'lgan bir qator analitik faoliyat turlari ishtirok etishi mumkin. Bu esa o'z navbatida o'qituvchidan yuqori darajadagi metodologik madaniyatni talab etadi.

Quyidagi jadvalda keys-stadi texnologiyasida foydalanish mumkin bo'lgan analiz turlarining imkoniyatlari berilgan (1-jadval):

1-jadval.
Keys-stadi ta'lim texnologiyasida qo'llaniladigan tahliliy faoliyat turlari

№	Tahliliy faoliyatmyрларu	Tavsifi	Tasnifi
1.	Muammoli analiz	Muammolarni ajratish; Muammolar maydoni va ularning tasnifini shakllantirish.	1) vaziyatning muammoli mazmunini analiz qilish; 2) vaziyatning muammoli shartlarini analiz qilish; 3) vaziyatning muammoli oqibatlarini analiz qilish.
2.	Tizimli analiz	Ob'ektni tizimiy yondashuv pozitsiyasidan o'z strukturasi va funktsiyalariga ega tizim sifatida ko'rib chiqish	1) deskript analiz: mavjud struktura asosida funktsiyalarni shakllantirish; 2) konstruktiv analiz: mavjud funktsiyalar asosida struktura shakllantiriladi.
3.	Prakseologik analiz	Faoliyatli jarayonlarni ularni optimallashtirish nuqtai nazaridan ko'rib chiqish	Faoliyatni optimizatsiyalash usullarini analiz qilish; Faoliyatni modellashtirish va algoritmlashtirish
4.	Prognostik analiz	Vaziyatning keyingi rivojiga nisbatan farazlar keltirish	Normativ prognostik analiz; Izlanishga doir prognostik analiz

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi mohiyatan quyidagi didaktik tamoyillarning ketma-ketligiga asoslanadi:

Har bir o'quvchiga individual yondashuv, uning ehtiyojlarini va ta'limiy uslubini inobatga olish. Bu tamoyil ta'lim jarayonini tashkil etmasdan avval o'quvchilar haqida maksimal axborotni olishni nazarda tutadi.

Ta'limda maksimal darajada erkinlik berish (o'qituvchilarni tanlash imkoniyati, fanlarni tanlash imkoniyati, topshiriqlar va ularni echish uslublarini erkin tanlash imkoniyatining mavjudligi).

O'quvchilarni topshiriqlarni echishda zarur bo'lgan ko'rgazmali materiallar bilan etarli miqdorda ta'minlash (ilmiy maqolalar, video va audio tasmlar, u yoki mahsulotlar).

Asosiy muammolar atrofida jipslashtirilgan nazariy materialni ratsional uzatish.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlik munosabatlari.

O'quvchi istalgan vaqtda o'qituvchiga savol bilan murojaat qilishi mumkin.

O'quvchi shaxsining kuchli jixatlarini rivojlantirishga urg'u berish.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi o'qituvchining aks ettirish faoliyatining mahsuli hisoblanadi. Intellektual mahsulot sifatida u o'z manbalariga ega. Hayot keyslarning eng asosiy manbasi degan tezis hech kimda shubha uyg'otmasa kerak. Bu masalada faqatgina uning keysning mazmuni va shaklini qanchalik belgilashi mumkin ekani haqidagi fikrlar munozaraga sabab bo'lishi mumkin. Ijtimoiy hayot o'zining turfa xil ko'rinishlarida keys stadi tarkibidagi muammoli vaziyat syujeti, muammosi va omillar (faktorial) bazasini shakllantirib beradi. Keys stadining tarkibiy qismi – muammoli vaziyat (keys)ning yana bir muhim manbai bu ta'lim tizimidir. U ta'lim va tarbiya maqsad va vazifalarini, keys stadi texnologiyasining ta'limning boshqa metodlariga integratsiyasini belgilaydi. Fan bu keyslarning uchinchi manbaidir. Aynan fan keyslarning ikki asosiy metodologiyani belgilab beradi. Ular esa o'z navbatida analitik faoliyat va tizimiy yondashuv hamda muammoli vaziyatni hal etish jarayonida keys-stadi texnologiyasi tarkibiga integratsiyalashgan boshqa bir qator ilmiy metodlar bilan belgilanadi.

Keys-stadining muammoli vaziyatining determinatsiyasi asosiy manbalari turlicha tasnifga ega bo'lishi mumkin. Keys-stadini tuzishning amaliyotida asosan bir manbaning usutunlik qilishi kuzatiladi. Ushbu yondashuv, manbalarning ta'siriga ko'ra, keys-stadi texnologiyasi doirasida keyslarni tasnifga asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Bunda amaliy keyslarni ajratish mumkin, ular mutlaq hayotiy vaziyatlarni tavsiflaydi; bundan tashqari ta'limiy keyslar guruhini ham ajratish mumkin, ularning asosiy vazifasi ta'lim berishdir; ilmiy-tadqiqotchilik keyslari, tadqiqotchilik faoliyatini yuzaga keltirish maqsadini ko'zlovchi keyslar sirasiga kiradi.

Mavjud materiallarni umumlashtirish asosiyda keyslarning quyidagi tipologiyasini hosil qilish mumkin:

2-jadval.
Keyslar tipologiyasi

Tipologik belgilari	Keys turi
Asosiy manbalari	1. Bevosita obyektida olib boriladigan 2. Ta'lim jarayondagi 3. Ilmiy-tadqiqotchilik
Syujet mavjudligi	1. Syujetli

	2. Syujetsiz
Vaziyat bayonining vaqtdagi izchilligi	1. O'tmish va bugungi kunni bog'lash asosidagi keys 2. Avval bo'lib o'tgan voqelikka asoslangan keys 3. Istiqbolga yo'naltirilgan keys
Keys ob'ekti	1. Alohida ob'ektga yo'naltirilgan 2. Tashkiliy-institutsional 3. Ko'p ob'ektli
Materialni taqdim etish usuli	1. Hikoya 2. Esse 3. Tahliliy ma'lumot 4. Jurnalistik taftish 5. Hisobot 6. Ocherk 7. Faktlar majmui 8. Statistik materiallar majmui 9. Hujjatlar va ishlab chiqarish namunalari majmui

Amaliy keyslarning asosiy vazifasi – hayotiy vaziyatni mukammal darajada aks ettirishdir. Mohiyatan ushbu keyslar toifasi vaziyatning amaliy modeleni shakllantiradi. Bunday paytda keys-stadining ta'limiy vazifasi o'quvchilarda u yoki bu xulq-atvor andozlarini qaror toptirish, qaror qabul qilish va ma'lum bilim, ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Tabiiyki bu guruhdagi keyslar maksimal darajada ko'rgazmali va mukammal bo'lishi kerak. Uning asosiy mazmuni hayotni anglash va optimal faoliyat yuritish qobiliyatiga ega bo'lish hisoblanadi.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasi o'zida ta'limiy funktsiyani mujassam etsada, keys-stadining turli xillarida ushbu funktsiyaning namoyon bo'lish darajasi turlicha bo'ladi. Shuning uchun ta'limiy funktsiyasi yetakchilik qilayotgan keyslar hayotni o'ziga xos tarzda aks ettiradi.

Birinchidan, ushbu keyslar mutaxassis kundalik hayotida ko'p uchraydigan kasbiy faoliyat davomida to'qnash kelishi mumkin bo'lgan tipik vaziyatlar to'plamini aks ettiradi.

Ikkinchidan, ta'limiy keyslarda birinchi o'rinda ta'limiy va tarbiyaviy vazifalar turadi. Bu esa hayotni aks ettirishda ma'lum bir shartli holatlarni taqozo etadi.

Ayni shunday xususiyatlar tadqiqotchilik keys-stadi texnologiyasiga xos bo'lib, uning asosiy mazmunini insonning vaziyatga tegishli yangi ma'lumotga va unda o'zini tutishning yangi usullariga ega bo'lish tashkil etadi. Uning ta'limiy funktsiyasi ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini modellashtirish metodi vositasida egallashdan iborat bo'ladi. Shuning uchun bunday keyslar texnologiyasidan kadrlarga dastlabki kasbiy bilimlarni berishda emas, bevosita kadrlar malakasini oshirishda, ya'ni mukammal kasbiy ko'nikma va malakalarga

ega, tadqiqotchilik faoliyatiga tayyor sub'ektlar bilan ishlashda foydalanish maqsadga muvofiq.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasidan foydalanishda har bir keysning strukturasi (tuzilishi) alohida ahamiyaga ega bo'ladi.

Har qanday keys quyidagi strukturaga ega bo'ladi:

vaziyat– muammo, hayotdan misol;

vaziyatning konteksti – xronologik, tarixiy, joy konteksti, harakat ishtirokchilari o'ziga xosliklari;

muallif tomonidan keltirilgan izoh;

keys-stadi texnologiyasi bilan ishlashda topshiriqlar va savollar to'plami; ilova.

Qaysi turga kirishidan qat'i nazar keys-stadi texnologiyasi o'zi ichiga mana shu tarkibiy qismlarni oladi. Ularning to'g'ri ketma-ketlikda, zarur qonuniyatlar asosida joylashtirilishi texnologiya samaradorligini oshiradi. Shuning uchun keys-stadi texnologiyasini ishlab chiqish bosqichlarini alohida ko'rsatib o'tishni zarur deb bildik.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasini ishlab chiqish bosqichlari:

Ta'limiy maqsadlar tizimida ushbu keysning o'rnini belgilash.

Keysning mavzusiga bevosita dahldor bo'lgan institutsional tizimni izlash.

Vaziyat modelini tashkil etish yoki uni tanlash.

Tavsifni yaratish.

Qo'shimcha axborotni to'plash.

Yaxlit matnni tayyorlash.

Keys-stadi texnologiyasini prezentatsiyasini tayyorlash, munozarani tashkil etish.

Keys-stadi texnologiyasi bilan ishlash jarayonini tashkil etish. Keyslar bilan ishlashning turli variantlari bo'lib, ular o'qituvchining kreativlik qobiliyatidan kelib chiqadi. Quyida keys-stadi texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarning eng umumiy tasnifi keltirilgan.

Mashg'ulotni tashkil etish bosqichlari:

Birgalikdagi faoliyatga jalb etish bosqichi.

Uning asosiy vazifasi – umumiy faoliyatga motivatsiyani uyg'otish, tashabbus bildirishga undash.

Birgalikdagi faoliyatni tashkil etish bosqichi.

Uning asosiy vazifasi – muammoni echishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish. Faoliyat kichik guruhlarda yoki individual tarzda tashkil etilishi mumkin.

Birgalikdagi faoliyat refleksiya bosqichi.

Uning asosiy vazifasi – keys-stadi texnologiyasi bilan ishlashning ta'limiy va tarbiyaviy natijalarini tahlil qilish.

Keys-texnologiyasini amalga oshiruvchi o'qituvchi faoliyatining bosqichlari

1) tayyorgarlik bosqichi;

2) asosiy bosqich: keys-texnologiyasini amalga oshirish;

3) tahliliy, baholovchi bosqich.

Tayyorgarlik bosqichi. Auditoriyadan tashqarida bajariladigan murakkab ilmiy-tadqiqotchilik, uslubiy va konstruktiviyatlash faoliyatini o'z ichiga olib, o'qituvchi harakatlarining quyidagi izchilligi bilan bog'liq bo'ladi:

keysni yaratadi (agar tayyor keysdan foydalanilmasa);

ta'lim texnologiyasini loyihalashtiradi va rejalashtiradi;

o'quvchilarni tayyorlaydi, ularning keys bilan mustaqil ishlashi uchun o'quv va uslubiy ta'minotni ishlab chiqadi.

Keys – texnologiyasini loyihalashtirish.

O'qituvchi harakatlarining izchilligi:

Ishchi dastur asosida o'quv mashg'uloti shakli, turi va vaqtini belgilaydi (amaliy mashg'ulot+`mustaqil ish+` o'quv amaliyoti).

O'quv mashg'uloti maqsadini oydinlashtiradi, o'quv mashg'ulotidan kutiladigan natijalar va pedagogik vazifalarni belgilaydi.

Ta'limning optimal modelini (belgilangan vaqtda va qaror topgan sharoitlarda qo'yilgan maqsadning amalga oshirilishini va prognoz qilinadigan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan optimal ta'lim metodlari, shakl va vositalari majmui)ni tanlaydi.

Keysning tekshirilishi va baholanishi

Yaratilgan keys ekspert tekshiruvidan va bahosidan o'tishi kerak. Quyidagilar tekshirish usullari bo'lishi mumkin:

1. Keys loyihasining korxona xodimi tomonidan ko'rib chiqilishi va unda bayon qilingan axborotning real vaziyatga muvofiq kelishi, shuningdek keltirilgan faktlar talqini va shu kabilarning tekshirilishi.

2. Ekspertlik bahosi va hamkasblar fikrlari, o'qituvchi-keysologning keysning ta'limdagi qimmatini xususidagi fikri, uni tekshirishning ikkinchi usulidir.

O'quvchilar tomonidan keysni echish bosqichlari:

Jahon tajribasi ko'rsatishicha, agar o'quvchilarning keysni hal etish texnologiyasi ikki bosqichdan iborat bo'lsa, ta'limiy maqsadlarga erishishda yanada ko'proq samaraga erishish mumkin:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual (auditoriyadan tashqari) ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib (auditoriyada) ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo'yicha individual ish

O'quvchi mustaqil ravishda:

1) keys materiallari bilan tanishadi;

2) taqdim etilgan vaziyatni o'rganadi, izohlaydi va asoslaydi;

3) muammo va muammo osti muammolarni ajratadi, vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;

4) berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi; ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;

5) taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bo'yicha jamoa bo'lib ishlash

O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, birgalikda keys ustida ishlashadi:

1) guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;

2) yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;

3) muammoli vaziyat yechimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;

4) taqdimotga tayyorlanadilar va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

1) real vaziyat yechimiga doir o'z variantlarini taqdim etadilar;

2) tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydilar va yechimning to'g'riligini asoslaydilar;

3) boshqa guruh a'zolarining savollariga javob beradilar va o'z takliflarini asoslaydilar.

Jamoa bo'lib keys ustidan ishlash:

guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarining muhokamasi;

taklif etgan yechimlarning o'zaro baholanishi;

taklif etilgan yechimlarning xayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (o'quvchilar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

Keys-stadi ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonida qo'llanishi quyidagi natijalarga ega bo'ladi: ushbu metod keng ta'limiy imkoniyatlarga ega bo'lib, ularni quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin – ta'limiy natijalar: ular bilimlarni, ko'nikmalarni o'zlashtirish bilan bog'liq va tarbiyaviy natijalar: ular o'z navbatida ta'limning shaxsiy samaradorligiga erishish, o'quvchilarning o'zaro ta'sir jarayonida o'zida yangi shaxsiy va kommunikativ, kasbiy fazilatlarini kashf etishi.

3-jadval

Keys-stadi ta'lim texnologiyasidan kutiladigan natijalar

№	Ta'limiy natijalar	Tarbiyaviy natijalar
1.	Yangi axborotni o'zlashtirish	Mualliflik mahsulotini yarata olish
2.	Ma'lumotlarni to'plash ko'nikmalarini egallash	Shaxsiy maqsadlarga erishish

3.	Analiz qilish metodlarini o'zlashtirish	Kasbiy kompetentlik darajasining ortishi
4.	Matn bilan ishlashga o'rganish	Qaror qabul qilish, yangi vaziyatda o'zini boshqara olish, muammoni hal etish ko'nikmalarining shakllanishi
5.	Nazariy va amaliy bilimlarni taqqoslay olish ko'nikmasi	

O'quv loyihasi va uning o'ziga xosliklari

O'quv loyihasi – bu o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqotchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta'limni tashkil etish shakli.

Loyiha (design - dizayn) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (projekt) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'limiy tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan o'quvchining muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

“O'quv loyihasi” tushunchasi keng qamrovga ega bo'lib, quyidagi mazmunga ega:

muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan o'quvchilarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari;

rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

O'quv loyihasidan foydalanish o'zida quyidagi maqsadlarni aks ettiradi:

loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish;

tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;

qo'lga kiritiladigan natija uchun o'quvchilarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

O'quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari:

Tayyorgarlik (motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tanlash, loyihaning maqsadini belgilash).


Loyihalashga doir (umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtai nazar bilan bog‘liqlikda topshiriqlarni o‘quvchilar o‘rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhli ish, seminar, “aqliy hujam”, praktikum...).

Amaliy (muammoni tadqiq etish, ma'lumotlarni to‘plash va qayta ishlash, natija olish, natijalarni sinovdan o‘tkazish, natijalarni grafik ko‘rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish).

Analitik (rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash).

Nazorat va baholashga doir (muvafaqqiyatlarni va yo‘l qo‘yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to‘g‘rilash yo‘llarini izlash, real holat bilan bog‘liqlikda loyihaga o‘zgartirishlar kiritish).

Yakuniy (ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).



1-rasm. O‘quv loyihasining tuzilishi va mazmuni

Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida o‘quv loyihasining xilma-xil turlaridan foydalaniladi:

yetakchi faoliyat turiga ko‘ra: tadqiqot, amaliy yo‘naltirilgan va axborotli;

fanga yo‘naltirilganligiga ko‘ra: monoloyiha va fanlararo loyiha;

davomiyligiga ko‘ra: o‘zoq muddatli, o‘rta muddatli, qisqa muddatli;

loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli.

Shuningdek, ta'lim maqsadi bilan bog'liqlikda ham o'quv loyihasini turlarga ajratish mumkin: axboriy, tadqiqotchilikka doir, amaliy-yo'naltirilgan, ijodiy, o'yinli yoki rolly.

Masalan, agar o'qituvchi o'quvchida axborotlar bilan ishlash malakalarini, matnni tahlil etish, turli manbalardagi ma'lumotlarni tasniflash va tekshirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ysa, u holda axboriy tavsifdagi o'quv loyihasidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Axboriy tavsifdagi loyihaning maqsadi aynan ma'lumotlarni to'plash, axborotlarni rasmiylashtirish va taqdim etishdan iborat. Albatta, o'quv loyihasining istalgan turida axborot to'plash bosqichi bor, biroq bu yerda u o'quv ishi vositasi bo'lib xizmat qiladi, axboriy tavsifdagi loyihada esa, asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur holatda o'quvchi faoliyati aynan axborotlar bilan ishlashga yo'naltiriladi. Shu bilan birgalikda o'quvchida axboriy kompetentlikni rivojlantirish asosiy vazifa sifatida belgilanadi.

O'quvchilarning analitik, tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, idrok etishning mantiqiy usullarini o'zlashtirish va katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash maqsad qilib qo'yilsa, tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur o'quv loyihasining maqsadi loyiha farazini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tajriba-sinov ishlari o'tkazish, olingan natijalarni tahlil etish, umumlashtirish, taqqoslash, rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, bundan tashqari xulosalar chiqarish, o'z nuqtai nazarini asoslash zarur. Ana shu tarzda tadqiqotchilikka doir o'quv loyihasida asosiy e'tibor fikriy kompetentlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida odatda, fanga doir amaliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish zaruriyati paydo bo'ladi. Bunday holatda amaliy yo'naltirilgan loyihalardan foydalanish yaxshi samara beradi. Eng oddiy holatda, o'qituvchi o'quvchilardan fanga doir tarqatma materiallar yoki matematik o'yinlar stsenariysi, frazeologik lug'atlar, tarixiy atlaslar yaratish topshirig'ini buyurishi mumkin. Amaliy yo'naltirilgan loyihalar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarda nafaqat fanga doir bilim, ko'nikma va malakalar rivojlanibgina qolmay, balki faoliyatga doir kompetentlik ham qaror topadi.

O'quv loyihasida eng katta e'tibor o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Aynan ijodiy loyiha o'quvchilarga o'zini namoyon etish olish, istalgan janrdagi asarni yaratish imkonini beradi. Shuningdek, ijodiy loyihalar o'quvchilarni guruhdagi maqomining oshishi, o'z-o'zini baholashga imkon berishi orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Har qanday ijodiy ish uni taqdim etish va auditoriya bilan qayta aloqani taqozo etadi. Ana shu sababli ijodiy loyihalar o'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish shuningdek, o'yinli yoki rolly loyihalar davomida ham amalga oshadi. Bunday loyihadan ko'zlangan asosiy maqsad muammoni hal etish jarayonida ishtirokchilarning qamrovini kengaytirishda yorqin namoyon bo'ladi. Bunga erishish uchun esa, nafaqat axborotni izlash yoki san'at asarini yaratish, balki boshqalarning ham faoliyatini

tashkil etish, ularni ishga jalb eta olish, ishni hamma uchun qiziqarli bo'lishiga erishish lozim bo'ladi. Aynan kasb-hunar kolleji o'quvchilarining yosh xususiyatlari bilan bog'liqlikda o'yinli va rolly loyihalardan foydalanish ularning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, o'quv loyihalarining xilma-xil turlaridan foydalanish o'qituvchiga umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilishga qiziqishlarini oshirish, ta'lim-tarbiyaga doir turli vazifalarni hal etish imkonini beradi.

O'quv loyihalarining yana bir muhim jihati ularda qandaydir mahsulotning yaratilishida o'z aksini topadi. Ijodiy loyihalar ko'pincha turli janrdagi san'at asarlarini yaratish yoki ijodiy tadbirlar o'tkazish bilan yakunlanadi.

Amaliy yo'naltirilgan loyihalar qoidaga muvofiq moddiy mahsulotlar, ba'zan tadbirlar ko'rinishida yoki yozma ko'rsatmalar, tavsiyalar shaklida tugallanadi.

Tadqiqotchilikka doir loyihalar natijasida ilmiy maqolalar, risolalar, modellar yoki maketlar, o'quv filmlari, taqdimotlar yaratiladi.

Axboriy tavsifdagi o'quv loyihalarining yakuniy natijasi o'quvchilar qog'oz variantda yoki Internetda joylashtirishlari mumkin bo'lgan risola, jadvallar, chizmalar, grafiklar, diagrammalar tarzida shakllantiriladi.

O'yinli va rolly loyihalar deyarli hamma vaqt tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish ko'rinishida namoyon bo'ladi.

1-jadval

O'quv loyihasi turlari va tavsifi

Loyiha turi	Loyiha maqsadi	Loyiha mahsuli	O'quvchi-larning faoliyat turi	Shakllan-tirilishi ko'zda tutilgan kompetentlik
Amaliy yo'naltirilgan	Loyiha buyurtmachining vazifasini amaliy hall etish	Metodik tavsiyalar, tadbir stsenariylari, stendlar	Amaliy	Faoliyatga doir
Tadqiqotchilikka oid	Qandaydir farazni ilgari surish va to'g'riligini isbotlash	Belgilangan usulda rasmiy-lashtirilgan tadqiqot natijasi	Mantiqiy, fikriy va operatsion faoliyat	Fikrlashga doir
Axboriy tavsifga ega	Biror bir ob'ekt yoki hodisa haqidagi ma'lumotlarni to'plash	Statistik ma'lumotlar, ijtimoiy fikrga doir so'rov natijalari, biror masala	Axborot-lar bilan ishlashga doir faoliyayat	Axboriy

		yuzasidan turli mualliflarning fikrlarini umumlashtirish		
Ijodiy	Loyiha muammosiga badiiy qiziqishni oshirish	Badiiy asar(she'r, hikoya)lar, insho, esse	Ijodiy faoliyat	Kommunikativ
O'yinli va rolli	Loyiha muammosini izlab topish va uning hal etishga doir vaziyatni taqdim etish	Ishbop o'yin, viktorina, blits-so'rov, ekskursiya	Guruhiy faoliyat	Kommunikativ

O'quv loyihalaridan foydalanish jarayonida o'quvchilarning ham individual, ham guruhli faoliyati yo'lga qo'yiladi. O'quv loyihalarini baholashda aniq mezonlar va baholash me'yorlarga rioya etilishi lozim.

O'quv loyihalarini baholashning umumiy mezonlari sifatida quyidagilarni belgilab olish mumkin:

- muammoning dolzarbligi va ahamiyatini yoritib berish;
- muammoning to'liq yoritilganligi;
- muammoni hal etishdagi originallik;
- artistizm va ifodaning yorqinligi;
- axborot texnologiyalaridan foydalana olish;
- loyiha yuzasidan savollarga javob bera olish.

Mazkur umumiy mezonlar asosida besh ballik shkala bo'yicha baholashga doir me'yorlar shakllantirilishi maqsadga muvofiq:

“5” ball: agar o'quvchining bajargan ishi loyiha mavzusiga to'liq mos kelsa; muammo to'la yoritilgan bo'lsa; daliliy materiallar to'g'ri bo'lsa; muammo izchil, muayyan ketma-ketlikda bayon etilgan bo'lsa; nutqi ravon hamda stilistik va orfografik xatolar mavjud bo'lmasa qo'yiladi.

“4” ball: agar o'quvchining bajargan ishi loyiha mavzusiga to'liq mos kelsa; daliliy materiallar to'g'ri bo'lsa; muammo izchil, ketma-ketlikda bayon etilgan bo'lsa; matn tushunarli va yorqin ifodaga ega bo'lsa, ishda juz'iy bir yoki ikki kamchilikka yo'l qo'yilgan bo'lsa qo'yiladi.

“3” ball: agar o'quvchi loyiha muammosidan ba'zi o'rinlarda bir oz chetga chiqqan bo'lsa; loyihada ayrim daliliy materiallar yetarli bo'lmasa; ba'zi holatlarda loyihani bayon etish ketma-ketligi buzilgan bo'lsa; matnda ayrim g'alizlik va nutq yorqin ifodaga ega bo'lmasa qo'yiladi.

“2” ball: agar ish loyiha muammosiga to'g'ri kelmasa; dalillar yetarli bo'lmasa; fikrlarni bayon etishda ketma-ketlik va izchillikka rioya etilmagan bo'lsa, matn qisqa va to'liq bo'lmagan ko'rinishdagi gaplardan tuzilgan bo'lsa, yaxlitlikda loyiha mazmunida olti, nutqda esa yettita xatolik mavjud bo'lsa, qo'yiladi.

«Tushunchalar tahlili» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod o' quvchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o' zlashtirish darajasini aniqlash, o' z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qullaniladi.

O' tkazish bosqichlari:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o' quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo' lgan so' zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o' quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo' llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga etgach o' qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o' z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Mazkur tushunchalar-ningfani mazmunidagi o' rmini qanday baholaysiz?

«Xulosalash» metodi

Metodning maqsadi: Bu interfaol metod murakkab, ko' ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o' rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo' yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo' yicha o' rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o' quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu metod umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik guruhlarining, har bir qanta-shuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

- ✓ Bu interfaol metod mavzuni o' rganishning turli bosqichlarida qo' llanilishi mumkin:
- ✓ mashg'ulot boshida: o' z bilimlarini erkin faollashtirish;
- ✓ mavzuni o' rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab etish;
- ✓ yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar: aspekt bilan predmet, hodisa, tushuncha tekshiriladi; afzallik – biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz; fazilat – ijobiy sifat; nuqson – nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik; xulosa – muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish; ta'limdan tashqari «Xulosalash» metodi tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:, ya'ni jamoa, guruhlarda ishlash mahorati; muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati; murosalari qarorlarni topa olish mahorati; o'zgalari fikriga hurmat; xushmuomalalik; ishga ijodiy yondoshish; faollik; muammoga diqqatini jamlay olish mahoratini shakllantiradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- trener-o'qituvchi o'quvchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan o'quvchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, o'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlari bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Taklif etilayotgan yangi model

Pedagogik texnologiyalar ning ijobiyligi nimada...	Nima uchun hamma vaqt pedagogik texnologiyalar dan foydalanish mumkin emas...	Sizga tanish bo'lgan pedagogik texnologiyalarga munosabatingiz...	Xulosa
---	--	--	--------

Blits-o'yin" metodi

Metodning maqsadi: o'quvchilarda tezlik, axborotlar tizmini tahlil qilish, rejalashtirish, prognozlash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

“Blits-o'yin” metodini o'tkazish bosqichlari.

O'qituvchi ta'lim oluvchilarni mashg'ulotni o'tkazishning quyidagi tartibi bilan tanishtiradi:

1. Dastlab, o'quvchilarga belgilangan mavzu yuzasidan tayyorlangan topshiriq, ya'ni tarqatma materiallarni alohida-alohida beriladi va ulardan materialni sinchiklab o'rganish talab etiladi. Shundan so'ng, o'quvchilarga to'g'ri javoblar tarqatmadagi «yakka baho» kolonkasiga belgilash kerakligi tushuntiriladi. Bu bosqichda vazifa yakka tartibda bajariladi.

2. Navbatdagi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarni uch kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiradi va guruh a'zolarini o'z fikrlari bilan guruhdoshlarini tanishtirib,

bahslashib, bir-biriga ta'sir o' tkazib, o' z fikrlariga ishontirish, kelishgan holda bir to' xtamga kelib, javoblarini «guruh bahosi» bo' limiga raqamlar bilan belgilab chiqishni topshiradi. Bu vazifa uchun 15 daqiqa vaqt beriladi.

3. Barcha kichik guruhlar o' z ishlarini tugatgach, to' g'ri harakatlar ketma-ketligi o' qituvchi tomonidan o' qib eshittiriladi, va o' quvchilardan bu javoblarni «to' g'ri javob» bo' limiga yozish so' raladi.

4. «To' g'ri javob» bo' limida berilgan raqamlardan «yakka baho» bo' limida berilgan raqamlar taqqoslanib, farq bulsa «0», mos kelsa «1» ball quyish so' raladi. Shundan so' ng «yakka xato» bo' limidagi farqlar yuqoridan pastga qarab qo' shib chiqilib, umumiy yig'indi hisoblanadi.

5. Xuddi shu tartibda «to' g'ri javob» va «guruh bahosi» o' rtasidagi farq chiqariladi va ballar «guruh xatosi» bo' limiga yozib, yuqoridan pastga qarab qo' shiladi va umumiy yig'indi keltirib chiqariladi.

6. O' qituvchi yakka va guruh xatolarini to' plangan umumiy yig'indi bo' yicha alohida-alohida sharhlab beradi.

7. O' quvchilarning olgan baholariga qarab, ularning mavzu bo' yicha o' zlashtirish darajalari aniqlanadi.

“Birgalikda o' qiymiz” texnikasini qo' llash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

“BIRGALIKDA O'QIYMIZ” TEXNIKASI

Birgalikda o' qish: o' quv guruhi kichik guruhlariga bo' linadi. Har bir kichik guruh o' rganilayotgan mavzuning biror sohasida ekspert bo' ladi va boshqalarni o' rgatadi.

“Birgalikda o' qiymiz” texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. 5-6 o' quvchidan iborat guruhlar tuziladi, ularga o' quvchilarning takliflari asosida nom beriladi.
2. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi – umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o' quv guruhi ish olib boradi hamda ularga ekspert varaqlari taqdim etiladi.
3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.
4. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi
5. Sardor guruh ishi natijalarini taqdim qiladi.

Guruhlarda ishlash qoidasi

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.

Guruh ishlarida faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondoshing.

Agar yordam kerak b'ylsa, albatta, murojaat qiling.

Agar yordam kerak b'ylsa, albatta, yordam bering.

Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda barcha ishtirok etishi shart.

Aniq bilmog'imiz lozim:

A. Boshqalarga o' rgatish orqali o' zimiz o' rganamiz.

B. Biz bitta kemandamiz: yoki birgalikda suzib chiqamiz.

Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maks. ball	1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	1,0					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	0,6					
Guruhning faolligi	0,4					
Ballarning jami	2					

“BBB jadvali” bilan ishlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
B/ B/ B jadvali

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

B/B/B JADVALI - Bilaman /Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

O‘quvchilar:

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 -va 2 – bo‘limlarini to‘ldiradilar.

O‘qituvchi bayonini tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.

Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 – bo‘limni to‘ldiradilar

“Aqliy hujum” usulini qo‘llash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Aqliy hujum usuli
(breynstroming-aqllar to‘zoni) - amaliy yoki ilmiy muammolar echish g‘oyasini jamoaviy yuzaga keltirish.



Ishtirokchilar aqliy hujum vaqtida murakkab muammoni hal etishga harakat qiladilar: ularni tanqid qilishga yo‘l qo‘ymay uni hal etishning ko‘proq shaxsiy g‘oyalarini yuzaga keltiradilar, so‘ngra ko‘proq oqilona, samarali, maqbul va boshqa g‘oyalarni ajratadilar, ularni muhokama qiladilar va rivojlantiradilar, ularni isbotlash yoki qaytarish imkoniyatlarini baholaydilar.




Asosiy vazifasi - ta'lim oluvchilarni o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, ularni muammoni mustaqil tushunish va echishga qiziqtirish va ularda muomala madaniyati, fikr almashinish malakalarini rivojlantirishi, tashqi ta'sir ostida fikrlashdan ozod bo‘lish va ijodiy topshiriqni echishda birlamchi yo‘l fikrlarini engib y‘tishni tarbiyalaydi.

«Aqliy hujum» usulining asosiy qoidalari:

- Olg‘a surilgan fikr va g‘oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi;
- taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying!
- Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir xilda bebahodir.
- Fikr bildirilayotganda bo‘lmang!
- Maqsad – fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish.
- Qanchalik ko‘p fikr va g‘oyalar bildirilsa shunchalik yaxshi. Yangi va bebaho fikr va g‘oyaning paydo bo‘lish ehtimoli paydo bo‘ladi.
- Agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron bo‘lmang.
- Xayollar «to‘g‘shiga» ijozat bering.
- Bu muammo faqatgina ma'lum usullar yordamidagina hal bo‘lishi mumkin, deb o‘ylamang.
- «Fikrlar hujumi»ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat'iy rioya qilinishi shart.


Ishlar bosqichi va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchi
1-bosqich. Tayyorgarlik	O‘quv mashg‘ulotida “aqliy hujum” o‘rnini aniqlaydi, uning maqsadini shakllantiradi, muammoni va uni echish bo‘yicha taklif etilayotgan g‘oyalarni baholash mezonlarini aniqlaydi	
2-bosqich. Kirish	Mavzuni e‘lon qiladi, muammo bilan tanishtiradi, uni echishning izlash yo‘lini va baholash mezonini asoslaydi. Jamoaviy ishlash sharoiti va axloq qoidasi bilan tanishtiradi (eslatadi). Ishtirokchilarni 3-4 guruhga bo‘ladi (AH jamoaviy o‘qitish sharoitida to‘g‘ri olib borish mumkin, lekin bu boshqaruvni qiyinlashtiradi va samaradorlikni pasaytiradi). Ta'lim oluvchilarga ruhiy qiyinchilik va qo‘rquvlardan qutulish uchun, mavzuga to‘g‘ri borish bilan bog‘liq bo‘lmagan, balki yaqinroq mavzudan olingan kutilmagan, qiziq savollarga tez javoblar izlash mashqini o‘tkazadi. Berilgan muammoni eslatadi va boshlashga ruxsat beradi	Har bir guruh baho va maqbul, samarali, oqilona g‘oyalarni qayd etib borishi uchun ekspert tanlaydi. Guruh a‘zolari hamkorlikda ishlashlari mumkin bo‘lgan holda o‘tiradilar
3-bosqich. Asosiy qism	Kuzatadi, yo‘llaydi, rag‘batlantiradi. O‘zini tortishuvga aralashishini, o‘z nuqtai-nazarini aytishga yo‘l qo‘ymaydi. Chidash, chidamlilik, hayron bo‘lmaslikni namoyon qiladi. Kerak bo‘lganda guruhni xayrixohlik bilan ish holatiga qaytaradi	Muammoni echish bo‘yicha g‘oya va takliflarni aytadilar, ekspertlar esa ularni yozadilar
	1-variant. Aytilgan g‘oyalarni ekspertlar bilan muhokama qilishni, ularni taklif etilgan mezonlarga mos holda baholash va tanlashni tashkillashtiradi. Muammoni echish uchun tanlangan g‘oyalarni ekspertlar guruhi taqdimotini va ularning muhokamasini tashkil-lashtiradi.	Ekspertlar ishlayotgan paytda, boshqa barcha ishtirokchilar mavzular bosqichi bo‘yicha krossvord echadilar, o‘quv holatini muhokama qiladilar. Ekspertlar tanlangan g‘oyalarni taqdim etadilar. Ushbu g‘oya mualliflari himoyani olib boradilar
	2-variant. G‘oyani alohida baholash va eng yaxshilarini jamoaviy tanlashni tashkillashtiradi	
4-bosqich. Yakun yasash, tahlil qilish va baholash	Yakunlarni umumlashtiradi, guruhlar ishini tahlil qiladi va baholaydi: ijobiy, ijodkorlikning yuqori darajasi holatlari, jamoaviy faoliyat muvaffaqiyatlarini ko‘rsatadi	O‘z-o‘zlarini baholaydilar



"Tarmoqlar" metodi

Klasterni tuzish qoidasi

1. Hayolingizga nima kelsa, barchasini yozing. G‘oyalar sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Yozishni to‘xtatadigan omillarga e‘tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda hayolingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing. O‘zingizni erkin tuting.



“Rolli o‘yin” metodini qo‘llash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

Rolli hamda ishbop o‘yinlar

Ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda rolli hamda ishbop o‘yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqtsa. O‘yin cho‘ida mahsulдор emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganliga bois o‘quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o‘zlarining atrof-muhitga bo‘lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O‘yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oshirib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikma va malakalarga aylantarish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli hamda ishbop o‘yinlar o‘ziga xos o‘rin tutadi.

O‘yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o‘quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O‘yin jarayonida namoyon bo‘luvchi psixologik xususiyatlar har o‘quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o‘rnini barqarorlashtiradi, ularda o‘z-o‘zini bosh-qarish ko‘nikmalarini hosil qiladi. O‘yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlab qolmay, o‘quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

Pedagog va psixolog olimlar - D.N.Uznadze, L.S.Vngotskiy, A.N.Leontev, S.A.Shmakov, G.K.Selevko, P.Ya.Galperin, I.Olloyorov, AA.Verbitskiy va boshqalar o‘yinga asoslanuvchi faoliyatning mohiyati, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari borasida tadqiqot shnlarini olib borganlar. Ayni vaqtda biz bu borada zarur nazariy va amaliy ma'lumotlarga egamiz.

O‘yinlarni tashkil etish maqsadlari quyidagilardir:

Ta'limiy (didaktik) maqsad:

Tarbiyaviy maqsad;

Faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltiruvchi maksad;

Ijtimoiy maqsad.

S.Kallaganning ta'kidlashicha, rolli o‘yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur

- jamoa a'zolari o‘rtasida samimiy muhitni qaror toptirish;
- o‘yin jarayonida qat’iy talablar qo‘yilishini inkor etish;
- o‘qituvchi va o‘quvchilarning erkin, bermalol, o‘ziga ishongan holda, xotirjam harakat qilishlariga erishish;
- sinfda qulay sharoitning mavjud bo‘lishi (shovqin darajasini nazorat qilish, o‘quvchilarni chalg‘ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);
- sinfda tartibni tinchlikni saqlash maqsadida o‘quvchilarning o‘yin faolligiga ta'sir qilmaslik.

«Insert» texnikasi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod o‘quvchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

O‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni o‘quvchilarga tarqatadi;

O‘quvchilarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda o‘quvchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar

1-matn 2-matn 3-matn

“V” – tanish ma'lumot.

“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.

“Q” bu ma'lumot men uchun yangilik.

“– ” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?

Belgilangan vaqt yakunlangach, o‘ quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma'lumotlar o‘ qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

“O‘zbek tili” fanini bilim sohalari bo‘yicha kasbga yo‘naltirib o‘qitish yuzasidan ajratilgan mavzular bo‘yicha dars ishlanmalari.

“TA'LIM, GUMANITAR SOHA ” siga yo‘naltirib o‘qitish mumkin bo‘lgan mavzular: “Ustozlar maktabi”, “O‘zbek teatri va kinosi”.

Mavzu	“Ustozlar maktabi”
Ta'lim berish texnologiyasining modeli	
Mashg‘ulot vaqti - 2 soat	O‘quvchilar soni – 15 ta
Mashg‘ulot shakli	Mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulot rejasi	1. Mavzu yuzasidan og‘zaki nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar va topshiriqlarni bajarish. 2. Mavzu yuzasidan yozma nutqni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar va topshiriqlarni bajarish 3. Sifatning ma'no turlari, sifatlarning yasalishi. 4. “Yunus Rajabiy” matni.
Amaliy mashg‘ulotning ta'limiy maqsadi: O‘quvchilarning mavzu yuzasidan bilimlarini shakllantirish va mustahkamlash. Amaliy mashg‘ulotning tarbiyaviy maqsadi: dars tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni bajarish imkoniyatini beradi: jamoa bilan ishlash mahorati, xushmuomalalik, o‘zgalar fikriga hurmat, faollik, liderlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o‘zini xolis baholash va b. Amaliy mashg‘ulotning rivojlantiruvchi maqsadi: o‘quvchilarning og‘zaki nutqini va ijodiy tafakkurini o‘stirish.	
Mavzuni o‘zlashtirish uchun	1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma'naviyat”, 2008. - 176 b. 2. Rasulov R., Mirazizov A. O‘zbek tili.

zaruriy bo'lgan adabiyotlar ro'yxati	O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2006. 3. Shodmonov E., Rafiyev A., G'oyipov S. O'zbek tili. Darslik. –Toshkent: “O'zbekiston”, 1995. 4. Madvaliyev A., Mahmudov N., va b. O'zbek tilida ish yuritish (munshoot). - Toshkent: “O'zbek Milliy ensiklopediyasi”, 1990. - 223 b. 5. Rafiyev A. va boshqalar. O'zbek tili. Kasb-hunar kollejlarning rus guruhlari uchun o'quv qo'llanma. –Toshkent: “Ilm Ziya”, 2006 - 160 b.
Pedagogik vazifalar: - o'quvchilarda muayyan mavzu yordamida o'z kasbiga oid bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish, ularga kasbiga oid terminlar va tushunchalarning o'zbekcha nomlarini o'rgatish; bu borada o'quvchilarning shaxsiy fikrini aniqlash.sifatning ma'no turlari, sifatning yasalishi	O'quv faoliyati natijalari: - o'quvchilarning muayyan mavzu yordamida o'z kasbiga oid bilimlarini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, ular kasbiga oid terminlar va tushunchalarning o'zbekcha nomlarini o'rganadi;. - bu boradagi o'z shaxsiy fikrini bildiradi. - sifatning ma'no turlari, sifatning yasalishi
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor so'rov.
Ta'lim berish shakllari	Hamkorlikda ishlash texnologiyasi
Ta'lim berish vositalari	O'quv qo'llanma, kompyuter, proyektor, tarqatma material, ekspert topshiriqlari
Ta'lim berish sharoiti	AT ga moslashtirilgan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki savol-javob

1.2. “Ustozlar maktabi” mavzusidagi amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi. 2. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv topshiriqlarini ishlab chiqadi. 3. Ichki guruhlar ishini samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida ular uchun	

	yozma yoʻriqnomalarni tayyorlaydi. 4. Ekspert guruhlar ish natijalarini baholashi uchun mezonlarni ishlab chiqadi (1-ilova)	
1-bosqich. Oʻquv mashgʻulotiga kirish bosqichi (10 daqiqa)	1.1. Mashgʻulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatini asoslaydi (2-ilova, slayd). 1.2. Oldingi darsda oʻtilgan mavzu boʻyicha tezkor soʻrov oʻtkazib oʻquvchilarni faollashtiradi (3-ilova, slayd). 1.3. Oʻquvchilarga bugungi dars guruhlariga boʻlingan tarzda kechishini bildiradi. Guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi (ilova)	Tinglaydilar Oʻquvchilar berilgan savollarga javob beradilar Tinglaydilar.
2-bosqich. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Kursni 5ta guruhga boʻladi, ularni oʻquvchilar takliflari asosida nomlaydi. Har bir guruh mavzu asosida taqdimot tayyorlashini aytadi. 2.2. Mavzu boʻyicha tayyorlangan ekspert varaqasini tarqatadi. (ilova). 2.3. Guruhlarga topshiriqni bajarishda yordam beradi. Taqdimot materiallari toʻliq va toʻgʻri boʻlishini kuzatadi. 2.4. Taqdimot boshlanishini eʼlon qiladi. Guruh sardorlari taqdimotini tashkillashtiradi, ularga namunani taqdim qiladi (6-ilova). Aniqlik kiritish lozim boʻlsa, sardorni toʻxtatadi, savollar beradi, muhokamasini kursga havola qiladi. 2.5. Mavzu asosida berilgan maʼlumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi, faol ishtirok etgan oʻquvchilarni baholaydi va guruhga umumiy ball qoʻyadi. 2.6. Grammatikaga oid maʼlumotlarni beradi, ular yuzasidan savol-javoblar oʻtkazadi (ilova, slayd). 2.7. “Yunus Rajabiy” matnini oʻqitadi, unga berilgan topshiriqlarni bayon qiladi (ilova).	Kichik guruhlariga boʻlinadilar. Guruh sardorini saylaydilar. Taqdimot tayyorlaydilar. Taqdimotni taqdim qilishda sardorga yordam beradilar. Oʻquvchilar berilgan savollarga javob beradilar, matnni oʻqib, oʻqituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajaradilar. Tinglaydilar. Savol-javobda ishtirok etadilar. Oʻquvchilar matnni oʻqiydilar va topshiriqlarni bajaradilar
3-bosqich. Yakuniy	3.1. Oʻquv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi.	Tinglaydilar.

bosqich (15 daqiqa)	3.2. Mavzu maqsadiga erishishdagi o'quvchilar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarni qayta o'qib chiqishni tavsiya qiladi. 3.3. Uyga vazifa beradi.	Vazifani yozib oladilar.
----------------------------	---	--------------------------

ilova

“BIRGALIKDA O‘ QIYMIZ” TEXNIKASI

Birgalikda o‘qish: o‘quv guruhi kichik guruhlariga bo‘linadi. Har bir kichik guruh o‘rganilayotgan mavzuning biror sohasida ekspert bo‘ladi va boshqalarni o‘rgatadi.

“Birgalikda o‘ qiyimiz” texnikasidan foydalangan holda guruhlarda ishni tashkil etish jarayonining tuzilishi

1. 5-6 o‘quvchidan iborat guruhlar tuziladi, ularga o‘quvchilarning takliflari asosida nom beriladi.
2. Har bir guruhga bitta topshiriq beriladi – umumiy mavzuning bir qismi, uning ustida butun o‘quv guruhi ish olib boradi hamda ularga ekspert varaqlari taqdim etiladi.
3. Har bir guruh ichida umumiy topshiriq taqsimlanadi.
4. Hamma yakka tartibdagi topshiriqni bajaradi
5. Sardor guruh ishi natijalarini taqdim qiladi.

ИЛОВА

Guruhlarda ishlash qoidasi

Sherigingizni diqqat bilan tinglang.
Guruh ishlarida faol ishtirok eting, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondoshing.
Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta, murojaat qiling.
Agar yordam kerak bo‘lsa, albatta, yordam bering.
Guruhlar faoliyati natijalarini baholashda barcha ishtirok etishi shart.
Aniq bilmog‘imiz lozim:
A. Boshqalarga o‘rgatish orqali o‘zimiz o‘rganamiz.
B. Biz bitta kemadamiz!

Ekspert guruhlar ish natijalarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maks. ball	1	2	3	4	5
Axborotning to'liqligi	1,0					
Axborotning grafik shaklda ifoda etilishi	0,6					
Guruhning faolligi	0,4					
Ballarning jami	2					

ИЛОВА

Ekspert varag'i № 1 **O'quv topshirig'i**

Musiqa ustoziga ta'rif bering.
Musiqaga oid o'zbekcha terminlar va tushunchalarga misollar yozing

Ekspert varag'i № 2 **O'quv topshirig'i**

“Bular – ustozlarim” mavzusida kichik matn tuzing.
Musiqaga oid o'zbekcha terminlar va tushunchalarga misollar yozing

Ekspert varag'i № 3 **O'quv topshirig'i**

O'z musiqa ustozingiz haqida kichik matn tuzing
Musiqaga oid o'zbekcha terminlar va tushunchalarga misollar yozing


Ekspert varag'i № 4
O'quv topshirig'i

Musiqqa ustozini qanday bo'lishi kerak?


Musiqaga oid o'zbekcha terminlar va tushunchalarga misollar yozing

Ekspert varag'i № 5
O'quv topshirig'i


1. Topshiriq. Nuqtalar y'rniga kerakli so'zlarni qo'yib ko'chiring.
2. Sharqda ustozlarni aloqida 2. Shoirimiz ustozlarni ulug'lovchi ko'plab ... bitganlar. 3. Bugun mamlakatimizda ustozlar yanada 4. Ustoz va murabbiylar kuni respublikamizda keng



ASLIY SIFATLAR TUZILISHIGA KO'RA



NISBIY SIFATLAR



Ilova

MUSIQA USTOZIM (namuna)

Mening musiqa fanidan o'qituvchim Po'latova Fotima opa bo'lganlar. U kishi juda ochiq ko'ngil, mehribon inson. Ularni men chinakam do'st, samimiy inson sifatida eslab qolganman. Jajji qo'llarimizdan tutib notalarni yozdirganlari sira yodimdan chiqmaydi. Endilikda o'zim ham o'qituvchilikka o'qimoqdaman. Men ham yoshlarga musiqa o'rgataman. Ustozimning mashaqqatli mehnatlarini endi yana ?am ko'proq qadrlayapman, anglab etyapman.

Ustozim hozir ham bolalarga bilim berib keladilar. Men ularning tez-tez oldilariga borib turaman. Axir aytadilar-ku, "ustoz otaday ulug deb. Men barcha ustozlarga eng ezgu niyatlarni tilab qolaman.

YUNUS RAJABIY

Yunus Rajabiy O‘zbekistonda maqom maktabini yaratgan madaniyat arbobidir. 1940-41-yillarda Moskvada bastakorlar kurslarida o‘qib yurganida u Yevropa mumtoz musiqasi, klassik bastakorlar ijodi bilan tanishdi.

Yunus Rajabiy atoqli madaniyat arboblari Halim Ibodov, Xoji Abdulaziz Rasulov, Shorahim Shoumarov, Mulla To‘ychi Toshmuhammedovlardan maqomlar o‘rgandi.

Yunus Rajabiy “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Xolisxon” kabi spektakllarga xalq ashulalari asosida kuylar yaratdi.

“Bayot”, “Girya”, “Dugoh Husayniy”, “Ko‘cha bog‘i” kabi ashulalarni xalqimiz Yunus Rajabiy tufayli sevib qolgan.

Bastakor 1930- yillardayoq xalq musiqasi namunalarini notaga yozib olishga kirishgan, keyinroq ularni nashr eta boshlagan. “O‘zbek xalq muzikasi” kitobining I-V-jildlari Yunus Rajabiy yozib olgan musiqa namunalaridan iborat. Unda Toshkent – Farg‘ona maqom yo‘li, Buxoro “Shosh maqomi” alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston xalq artisti, respublika Fanlar Akademiyasining akademigi Yunus Rajabiy yaratgan taronalarni xalqimiz hanuz sevib tinglaydi.

Topshiriq. Matnni o‘qing. Notanish so‘zlar lug‘atini tuzing. Matn yuzasidan savol-javob qiling. Matn mazmunini so‘zlab berishga tayyorlaning.

Topshiriq. Savollarga javob bering.

1. O‘zbek bastakorlaridan kimlarni bilasiz?
2. Ularning qaysi asarlarini bilasiz?
3. Zamonaviy ijrochilardan kimlarni sevib tinglaysiz?
4. O‘zbek mumtoz ashulalarini eshitasizmi?
5. Matndan musiqa oid termin va tushunchalarni ajrating

Mavzu	O‘zbek teatri va kinosi
--------------	--------------------------------

1. Ta'lim berish texnologiyasi

Mashgʻulot vaqti 2 soat	Oʻquvchilar soni 15 ta	
Mashgʻulot shakli	Mavzu boʻyicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashgʻulot.	
Amaliy mashgʻulot rejasi	1. Teatr va kino san'atiga oid yangiliklar haqida. 2. Toshkent teatrlarida qoʻ yilayotgan spektakllar haqida suhbat. 3. “Toshkent shahridagi teatrlar” mavzusida matn tuzish. 4. Kasbga oid terminlarning minimal lugʻatini toʻplash va yozish. 5. Aniqllovchi ergash gapli qoʻ shma gaplar.	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Oʻquvchi nutqiy koʻ nikmalarini hosil qilish, oʻzbek tilining boy imkoniyatlaridan oʻz mutaxassisliklari doirasida foydalanish, fikrni toʻgʻri, aniq, mantiqli ifoda etishga oʻrgatish. Oʻquvchilarning aniqllovchi ergash gapli qoʻshma gaplar mavzusi yuzasidan bilimlarini mustahkamlash		
Pedagogik vazifalar: - Teatr va kino san'ati haqidagi matnlarni oʻ qish va mazmunini soʻ zlab berishga oʻ rgatish; “Toshkent shahridagi teatrlar” mavzusida matn tuzishga oʻ rgatish; - Atoqli oʻ zbek teatr va kino arboblari haqida ma'luot beradi; - Aniqllovchi ergash gapli qoʻ shma gaplarning xususiyatlarini tushuntiradi.		Oʻ quv faoliyati natijalari: “Teatr va kino san'ati haqidagi matnlarni oʻ qib mazmunini soʻ zlab beradi; “Toshkent shahridagi teatrlar” mavzusida matn tuzib, hikoya qiladi; - Atoqli oʻ zbek teatr va kino arboblari haqida ma'luotga ega boʻ ladi; - Aniqllovchi ergash gapli qoʻ shma gaplarning xususiyatlari haqida tushunchaga ega boʻ ladi.
Ta'lim berish usullari		Aqliy hujum, BBB, blits-oʻyin, xulosalash.
Ta'lim berish shakllari		Kichik guruhda ishlash.
Ta'lim berish vositalari		Darslik, tarqatma material
Ta'lim berish sharoiti		Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun moʻ ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash		Ogʻzaki nazorat: savol-javob

2. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni	

	shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o' quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, taqdimot, tayyorlaydi. B/B/B jadvali uchun materiallar tayyorlaydi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (15 daqiqa)	1.1. O' tilgan mavzuni mustahkamlaydi va yangi mavzuga ko' prik yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro' yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi 1.2. Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. 1.3. O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi. 1.4. Mavzu bo' yicha "aqliy hujum" metodidan foydalanib tezkor so'rov o'tkazadi va o'quvchilarni faollashtiradi. 1.5. Ish kichik guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi B/B/B jadvalining "Bilaman" ustunini to'ldirishni so' raydi.	Tinglaydilar, yozib oladilar Savollar bilan murojaaaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar. B/B/B jadvalining "Bilaman" ustunini to'ldiradilar. O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar O'quvchilar berilgan B/B/B jadvalining "Bilaman" ustunini to'ldirishadi
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. B/B/B jadvalining "Bilmoqchiman" ustunini to'ldirishni so' raydi. 2.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalar bilan tanishishni va topshiriqlarni bajarishni taklif etadi. 2.3. Slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo' yicha asosiy nazariy jihatlarini tushuntirib beradi. 2.4. O'quvchilarning olgan bilimlarini tekshirish maqsadida blits-o'yin o'tkazadi. 2.5. Har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi. 2.6. O'qituvchi tomonidan tahlillar mumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi	B/B/B jadvalining "Bilmoqchiman" ustunini to'ldiradilar. Tinglaydilar, yozadilar, savol-javoblarda ishtirok etadilar, muhim joylarini o'z daftarlariga qayd etadilar. Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo' yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi.
3. Yakuniy	3.1. B/B/B jadvalining "Bilib oldim"	B/B/B jadvalining

bosqich (10 daqiqa)	ustunini to‘ldirishni so‘raydi. 3.2. B/B/B chizmalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning umumiy tasavvurlarini aniqlaydi. 3.3. Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi. 3.4. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Uyga vazifa sifatida “Men yoqtirgan artist(kino yoki teatr)” mavzusida kichik hikoya yozish topshiriladi.	“Bilib oldim” ustunini to‘ldirib, tugatadilar va o‘z tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslaydilar. O‘z tasavvurlarini boyitadilar va to‘ldiradilar. Savollar beradilar Topshiriqni yozib oladilar.
--------------------------------	---	---

1-ilova

Guruhlarda ishlash – bu o‘quv topshirig‘ini hamkorlikda bajarish uchun tashkil etilgan, o‘quv jarayonida kichik guruhlarda ishlashda (2 tadan – 8 tagacha ishtirokchi) faol rol o‘ynaydigan ishtirokchilarga qaratilgan ta’limni tashkil etish shaklidir. Bunda asosiysi topshiriq – natija emas balki, guruh ichidagi hamkorlik jarayonidir.

2-ilova

“O‘zbek teatri va kinosi” mavzusi bo‘yicha

«Aqliy hujum» usulining asosiy qoidalari:

Olg‘a surilgan fikr va g‘oyalar tanqid ostiga olinmaydi va baholanmaydi; taklif qilinayotgan fikr va g‘oyalar qanchalik fantastik va antiqa bo‘lsa ham, uni baholashdan o‘zingizni tiying!

Tanqid qilmang – hamma bildirilgan fikrlar bir hilda bebahodir.

Fikr bildirilayotganda bo‘lmang!

Maqsad – fikr va g‘oyalar sonini ko‘paytirish.


Qanchalik ko‘p fikr va g‘oyalar bildirilsa shunchalik yaxshi. Yangi va bebaho fikr va g‘oyaning paydo bo‘lishi extimoli paydo bo‘ladi.

Agar fikrlar qaytarilsa asabiylashmang va hayron bo‘lmang.

Xayollar «to‘zg‘ishiga» ijozat bering. Bu muammo faqatgina ma’lum usullar yordamidagina hal bo‘lishi mumkin, deb o‘ylamang.

«Fikrlar hujumi»ni o‘tkazish vaqti aniqlanadi va unga qat’iyan rioya qilinishi shart.

Berilgan savolga qisqacha (1-2 so‘zdan iborat) javob beriladi.



- Sizning fikringizcha hozirgi kunda kino san'atida qanday yutuq va kamchiliklar mavjud
- Bunga sabab nima?
- Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilinishi kerak?
- Yanada yuqori natijalarga erishish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak.?
- Bir xil ampuvadagi aktyor deganda nima tushunasiz?
- Tipaj so'ziga ta'rif bering?
- Komik va tragik aktyorlarga qanday talablar qo'yiladi?
- Qaysi janrdagi filmlarni sevib tomosha qilasiz?
- Kino va teatr san'atiga oid qanay yangiliklarni bilasiz?

B/B/B JADVALI

3-ilova

B/ B /B JADVALI – Bilaman / Bilishni xohlayman / Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

O'quvchilar:

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

“Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz” va “Nimani bilishni xohlaysiz” degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.

O'qituvchi bayonini tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplarning xususiyatlari

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap. ССП с придаточным определительным. В нем придаточное поясняет признак члена предложения в составе главного, выраженного существительным: *Kimning bilimi kuchli bo'lsa, uning mulohazalari ham chuqur bo'ladi.* (У кого глубокие знания, у того и широкие рассуждения).

4-ilova

TOPSHIRIQLAR

“Oltin gepard” Toshkent xalqaro kinoforumi

Jahon kino jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi yorqin va o'ziga xos kino asarlarini jalb qilish; kino sohasida xalqaro aloqalarni rivojlantirish va mustahkamlash; milliy kinematografiyani rivojlantirishga hissa qo'shish, uni jahonda ommalashtirish hamda o'zbek kinosi oltin fondini tarqib etish; jahon kino sanoati mutaxassislarini jalb etish maqsadida O'zbekistonning noyob tarixiy merosini namoyish etish; mahalliy tomoshabinlarni zamonaviy jahon kinematografiyasi bilan tanishtirish; yosh, iste'dodli kinematografiya ustalarini kashf etish va ularning ijodini qo'llab-quvvatlash kabilar kinoforumning asosiy vazifalari qatoriga kiradi.

Kinoforum shiori – “XXI asr tamaddunlari – madaniyatlar muloqoti” - festival tarzidagi maxkur loyihaning asosiy strategik maqsadini ifodalaydi, bu esa kino san'ati orqali turli mamlakatlar o'rtasida madaniyatlararo muloqotlar o'rnatish va rivojlantirishdan iborat. Shuningdek, kino namoyishlari uchun har yili alohida shior ham tanlab olinadi, u tanlovning aynan shu yildagi mavzusini ochib beradi.

“Oltin gepard” Toshkent xalqaro kinoforumi tanlov asosida nufuzli hakamlar hay'ati ishtirokida o'tkaziladi. Tanlovlarda to'liq metrajli, qisqa metrajli a animatsion filmlar ishtirok etadi.

Kinoforum uchayotgan nozik gepard tarzida aks ettirilgan bo'lib, u loyiha mutasaddilarining jahonning etakchi kino ko'riklari qatoriga kirishga bo'lgan intilishlarini bildiradi. Gepard timsoli o'zbek madaniyatida tarixiy ildizlarga ega. U qadim Choch (Toshkent)ning hukumati gerbida bo'lgan. “Oltin gepard” haykalchalari eng yaxshi rejissyorlar, stsenariychilar, akyotrlar va boshqa kino arboblari quyidagi nominatsiyalar bo'yicha topshiriladi:

- “Eng yaxshi to'liq metrajli film”
- “Eng yaxshi qisqa metrajli film”
- “Eng yaxshi animatsion film”
- “Eng yaxshi rejissyor”
- “Eng yaxshi aktyor”
- “Eng yaxshi aktrisa”



TOPSHIRIQ . Quyidagi aktyorlar (aktrisalar) qaysi spektakl va kino filmlarda rol ijro etishgan?

Nabi Rahimov
Sora Eshonto'raeva
Lutfixon aya Sarimsoqova
To'ti Yusupova
Rixsi Ibragimova
Yoqub Ahmedov
Yodgor Sa'diev

Razzoq Hamroev
Amin Turdiev
Rixsi Pirmuxamedov
Obid Jalilov
To'lqin Tojiev
Obid Yunusov
Fatxulla Ma'sudov

Baxtiyor Ixtiyorov
Nozim To'laxo'jaev
Mehri Bekjonova
Gulchehra Jalilova
Saida Rametova
Murod Rajabov
Hojiakbar Nurmatov

Alisher Uzoqov
Alisher Xamroev

Ulug'bek Qodirov
Farrux Soipov

Dilnoza Kubaeva
Asal Shodieva

Topshiriq. Berilgan qo'shma gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Вы уже спали, когда я к вам приходил ночью. Я хочу сказать вам то, о чем вы ещё не знаете. Мы должны делать то, что требуется по закону. Декан сказал, что все должны участвовать на соревнованиях. Я много думал, прежде чем сказать об этом.

Topshiriq. Internetdan olingan quyidagi xabarlar bilan tanishing, ularni rus tiliga tarjima qiling.

KINO VA TEATR SAN'ATIGA OID YANGILIKLAR

«Theatre.UZ» xalqaro teatr festivali

Festivalining asosiy maqsadi poytaxtimiz sahnalarida mahalliy va xorijiy teatrlar yutuqlarini ko'rsatish, ularning ijodiy salohiyatini ochib berishdir. Bundan tashqari turli mamlakatlar sahna madaniyatlarini yaqinlashtirish orqali teatr san'atining eng yaxshi an'analariga nisbatan o'zaro tushunish, hurmat qilish tuyg'ularini uyg'otish, O'zbekiston teatr hayotini yanada boyitishdir.

Gretsiyada “O‘ ZBEK KINO KUNLARI” festivali bo‘lib o‘ tdi.

O‘zbekiston va Gretsiya Respublikalari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning 20 yilligi munosabati bilan Gretsiya poytaxti Afina shaxrida “O‘zbek kino kunlari” birinchi festivali bo‘lib o‘tdi. Festivalda “O‘zbekkino” milliy agentligi tomonidan bir qancha badiiy filmlar jumladan : Ayub Shaxobiddinovning “O‘tov”, Zulfiqor Musoqovning “Qo‘rg‘oshin” va b. namoyish etildi.

“SEHRLANGAN SHAHZODA”

O‘zbek Milliy akademik drama teatrida aktrisa Shohida Ismoilova rejissyorligida “Sehrlangan shahzoda” nomli spektakl sahnalashtirildi. Mazkur sahna asaridagi aktyorlarga aktrisa, dizayner Shahzoda Muhammedova g‘oyasi asosida uning guruhi tomonidan oltmish beshta libos (bosh kiyimi bilan) tikildi. Spektaklni tezroq muxlislar hukmiga havola etish rejalashtirilgan.

DILBEK TO‘RAEVNING XAZINASI

Iste’dodli rejissyor Dilbek To‘raev “Xazina” nomli navbatdagi filmini suratga olish ishlarini boshlab yubordi... Rejissyorning ta’kidlashicha, “Xazina” o‘zbek kinosidagi mutlaqo yangi yo‘nalishga ega kino bo‘lishi kutilmoqda. Biroq, u filmni ming xadik bilan suratga olganini sir tutmadi. Boisi film jangovar–sarguzasht janridagi blokbuster.

Topshiriq. Har bir guruhga kino yoki spektakllardan namunalar aks etgan fotosuratlar tarqatiladi. O‘quvchi unda aks ettirilgan lavha qaysi kinofili yoki spektakldan ekanligini aniqlashi va yodida bor obrazni improvizatsiya qilishi lozim.

Fotogalereya





“Blits-o‘yin” metodi asosida topshiriqni bajaring

5-ilova

«Blits- o‘yin” metodi

Bunda o‘quvchilarga qo‘shma gap va uning turlariga misollar noto‘g‘ri tartibda beriladi. O‘quvchi darsda olgan bilimiga va daftaridagi yozuvlarga asoslangan holda ularni to‘g‘ri tartibda yozib chiqishi zarur bo‘ladi. Yani berilgan gaplar qaysi qo‘shma gap turiga tegishli ekanligini aniqlashi lozim.

Blits o‘yin

№	Mazmuni	Sizning javobingiz	To‘g‘ri javob	Misollar
1.	Sodda gap			Tadbir so‘ngida kontsert berildi va badiiy film namoyish qilindi.
2.	Qo‘ shma gap			Biz ko‘p kutdik, biroq undan darak bo‘lmadi.
3.	Bog‘langan qo‘shma gap			Eshik ochilib, ichkariga Navoiy kirib keldi.
4.	Bog‘lovchisiz qo‘shma gap			Kim birovga yaxshilik qilsa, o‘zi ham yomonlik

				koʻrmaydi.
5.	Ergashgan qoʻshma gap			Sobir keldi – oʻyinni boshlaymiz.
6.	Ega ergash gapli qoʻshma gap			Kimki koʻp oʻqisa, uning bilimi keng boʻladi.
7.	Aniqlovchi ergash gapli qoʻshma gap			Bahor keldi.

2-3 – toʻgʻri javob – qoniqarli; 4-5 – toʻgʻri javob – yaxshi; 6-7 – toʻgʻri javob – aʼlo tartibida baholanadi.

6-ilova

Xulosalash

Kino va teatr san'ati	Hozirgi kino va teatr san'atiga munosabatini-giz	Sizning fikringizcha hozirgi kunda kino va teatr san'atida qanday yutuq va kamchiliklar mavjud	Koʻrsatilgan kamchiliklarni bartaraf etishga nisbatan Sizning tavsiyalarangiz
XULOSA			



**“IJTIMOIY FANLAR, BIZNES VA HUQUQ SOHA” siga yo‘naltirib
o‘qitish mumkin bo‘lgan mavzu: “Tarixni o‘rganamiz”.**

Mavzu	Tarixni oʻrganamiz	
1.Ta'lim berish texnologiyasi		
Mashgʻulot vaqti 2 soat	Oʻ quvchilar soni 15 ta	
Mashgʻulot shakli	Mavzu boʻyicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashgʻulot.	
Amaliy mashgʻulot rejasi	1. Oʻzbekiston tarixidan hikoyalarni oʻqish. 2. Oʻzbekistonda joylashgan tarixiy obidalarini tavsiflash. 3. “Amir Temur muzeyi” mavzusidagi matnni oʻqish. 4. Koʻmakchi va toʻliqsiz fe'llarning qoʻ llanish xususiyatlari.	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Oʻquvchi nutqiy koʻnikmalarini hosil qilish oʻzbek tilining boy imkoniyatlaridan oʻz mutaxassisliklari doirasida foydalanish, fikrni toʻgʻri, aniq, mantiqli ifoda etishga oʻrgatish. Koʻmakchi va toʻliqsiz fe'llarning qoʻllanish xususiyatlari haqidagi bilimlarini mustahkamlash.		
Pedagogik vazifalar: - Oʻzbekiston tarixidan hikoya qilishga oʻrgatish; - Oʻzbekistonda joylashgan tarixiy obidalarini tavsiflab, kichik matn yozdirish; “Amir Temur muzeyi” haqida ma'lumot beradi; - Koʻmakchi va toʻliqsiz fe'llarning qoʻ llanish xususiyatlari, uning tuzilishi haqida ma'lumot beradi.		Oʻ quv faoliyati natijalari: - Oʻ quvchi Oʻzbekiston tarixidan hikoya qilib beradi; - Oʻzbekistonda joylashgan tarixiy obidalarini tavsiflab kichik matn yozadi; “Amir Temur muzeyi” haqida ma'lumotga ega boʻ ladi; - Koʻmakchi va toʻliqsiz fe'llarning qoʻ llanish xususiyatlari, uning tuzilishi haqida ma'lumotga ega boʻ ladi.
Ta'lim berish usullari		Suhbat, tezkor-soʻrov, tushuntirish, insert, loyihalash (Oʻ quv loyihasi).
Ta'lim berish shakllari		Kichik guruhda ishlash
Ta'lim berish vositalari		Darslik, tarqatma material
Ta'lim berish sharoiti		Texnik taʼminlangan, guruhlarda ishlash uchun moʻljallangan auditoriya
Monitoring va baholash		Ogʻzaki nazorat: savol-javob

2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Loyiha usuli qo' llanilgan o' quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va mazmuni	F a o l i y a t	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik	Loyiha mavzulari va maqsadini aniqlaydi. Ta'lim oluvchilarni loyihalash yondashuvi mohiyati bilan tanishtiradi. Bir qancha mavzular taklif etadi, loyiha mazmuni to'g'risida ma'lumot beradi, ular doirasini shakllantiradi, ish turlari, ularning natijalari va baholash mezonlarini sanab o'tadi	Guruhga birlashadilar, loyiha mavzusini tanlaydilar va muhokama qiladilar. Kerak bo'lganda qo'shimcha axborotlar oladilar. Maqsadni aniqlaydilar, loyiha bo'yicha ish natijalarini muhokama qiladilar
1 – bosqich Rejalashtirish	G'oyalarni taklif etadi, takliflarni aytadi. Axborot manbai va uning yig'ish usullari va tahlilini tavsiya etadi. Ish tartibi va oraliq bosqichlarni baholash mezonlari va umuman jarayonni belgilaydi	Harakat rejasini tanlaydilar: vazifalarni shakllantiradilar, yo'nalish va bajarish bosqichlarini, ular tartibini aniqlaydilar, vazifalarni guruh a'zolari o'rtasida taqsimlaydilar. Ta'lim beruvchi bilan natijalarni tahlil etish usulini(hisobot shaklini) ma'qullaydilar
2 – bosqich Tadqiq qilish	Kuzatadi, maslahat beradi, axborot manbasini izlashga yordam beradi, o'zi axborot manbai hisoblanadi	Tadqiqotni bajaradilar. Axborot to'playdilar, oraliq vazifalarni echadilar,
3 – bosqich Axborot tahlili. Xulosalarni shakllantirish.	Butun jarayonni boshqaradi, qaytar aloqani ushlab turadi	Olingan axborotni tahlil qiladilar, xulosalarni shakllantiradilar
4 – bosqich Hisobot	Eshitadi, oddiy ishtirokchi bo'lib, maqsadga yo'naltirilgan savollar beradi, quvvatlaydi va rag'batlantiradi	Hisob beradilar. Ish natijalarini: og'zaki hisobot materiallarini namoyish bilan og'zaki hisobot, loyiha ko'rinishida yozma hisobot shakllarida taqdim etadilar
5 – bosqich Jarayon va natijalarni baholash.	Muammoni echishning to'liqlik darajasini, guruhlar harakati strategiyasi, ta'lim oluvchilar kuchi, manbalardan foydalanish sifati, ijodiy yondashuv, ishni davom ettirish imkoniyati, hisobot sifati va boshqalarni baholaydi	Jamoaviy muhokama orqali ish natijalari va uning borishi, shu jumladan muammoni echishning to'liqlik darajasi va harakat strategiyasini himoya qiladilar, baholaydilar



1. В узбекском языке для указания разной характеристики действий, а так же передачи различных модальных значений употребляются вспомогательные глаголы.

В современном узбекском языке в качестве вспомогательных могут употребляться глаголы: **ol, ber, yot, tur, yur, o'tir, bo'l, boshla, qol, qo'y, chiq, bor, kel, ket, yubor, ko'r, yoz** и др.

При этом они полностью или частично теряют свое лексическое значение. Глагол, с которым связуется вспомогательный, называют основным, и он всегда – употребляется в деепричастной форме с аффиксами **-(i)b; -a(y)**.

Например: **yoza olmoq** - мочь писать, **o'qib chiqmoq** - закончить читать, **aytib ko'rmoq** - попробовать сказать и т.д.

Эту форму нельзя путать со сложными глаголами типа **olib bermoq** (купить кому-то), **olib ketmoq** (уносить) и т.д.

Сложный глагол обозначает одно единое действие.

Форма со вспомогательным глаголом выражает различные модальные значения. Например, глагол **olmoq** (брать). В сочетании с формой на **-(i)b** указывает, что действие совершается в интересах субъекта: **yozib olmoq** (записать для себя); **bilib olmoq** (узнать); в сочетании же с формой на **-a(-y)**, указывает на возможность совершения действия (и переводится глаголом мочь): **yoza olmoq, o'qiy olmoq**. Глагол **bermoq** указывает на то, что действие совершается для другого субъекта: **yozib bermoq** (написать для кого-то), **o'qib bermoq** (прочитать кому-то) или на продолжительность действия выраженного основным глаголом: **yozavermoq** (продолжать писать), **o'qiyvermoq** (продолжать читать). В этом случае глагол произносится и пишется как вер.

SAMARQAND

Samarqand tarix mobaynida mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotida yetakchi o'rinni egallab kelgan shahar hisoblanadi. Bir necha asrlar mobaynida Samarqand Movorounnahr poytaxti va markazi bo'lib kelgan. Samarqand eramizdan avvalgi VIII asrda tashkil topgan bo'lib, hozirda u yurtimizning san'at va moziy uyg'unlashgan go'shalaridan biri hisoblanadi. Uni umrida bir bor ko'rgan inson hech qachon yodidan chiqarmaydi. Tarixda Samarqand Marokanda, So'g'diyona nomlari bilan atalagan. "Avesto" da yozilishicha Samarkand So'g'd davlatining poytaxti sifatida ta'kidlangan. Yunon va rim tarixchilari yozib koldirgan yodgorliklarida u birinchi bor Marokanda nomi bilan tilga olinadi. 1220 - yilda mo'g'ullar tomonidan butunlay yuk qilingan shahar vaqt o'tishi bilan yana o'zini tiklab oladi va qayta tug'iladi. Uning gullab yashnashida Temuriylar davri alohida o'rin tutadi. Amir Temur bu shaharni Movorounnaxrdagi ilm fan, tijorat, me'morchilik va madaniyat rivojlangan eng katta shaharga aylatiradi.

Samarqand shahri asrlar davomida Buyuk Ipak Yo'lining yirik savdo markazi sifatida tilga olingan. Samarqand shahrining tarixiy va madaniy qiymatini hisobga olgan holda O'zbekiston hukumati ushbu qadimiy va hamisha navqiron shaharning tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlashga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, 2007 yilda YuNESKO boshchiligidagi bir qator xalqaro tashkilotlar bilan birgalikda nishonlangan Samarqand shahrining 2750 yilligi oldidan Shohi Zinda majmui, Hazrat Xizr masjidini qayta tiklash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borildi.

Shaharning markazida joylashgan Registon maydoni o'zining go'zalligi bilan barchani e'tiborini tortadi. Registon maydoni o'rta asrlarda shahar markazi vazifasini o'tagan bo'lsa, hozirda u uch me'morchilik ansanblidan tashkil topgan kompozitsiya hisoblanadi. U erda joylashgan uch madrasa : Ulug'bek madrasasi, Tilla Qori madrasasi va Sherdor madrasalari uzining alohida yaratilish tarixlariga ega. Go'ri Amir maqbarasida esa buyuk bobakalonimiz Amir Temur oxirgi qo'nim topgan joy hisoblanadi. Bibi xonim madrasasi esa o'zinign betakororligi va mem'orchilik namunalari bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

XIVA

Xivani bejiz Sharq durdonasi deb atamaydilar. Bu Al Xorazmiy, Shayx Najmiddin Kubro, Paxlavon Mahmud, Ogahiy va Feruzni voyaga keltirgan va taqdim etgan mo'jizaviy makondir. 1997 yil 20 oktyabrda Xivaning 2500 yilligi nishonlandi. Xiva mana necha davrlardan buyon gullab yashnab kelmoqda. Kun sayin husniga husn qo'shilib kelayotgan bu shahar o'zining baland minoralari-yu, sharqiy me'morchiligi bilan dunyoning turli chekkalaridan sayyohlarni o'ziga jalb etadi.

Xiva tarixi Xorazm tarixi va uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealari bilan chambarchas bog'liq. Xorazm yoki Xvarizm, tarjimada quyosh shaxri ma'nosini anglatib, u tarixda Tuproq qal'a, Qirg'iz qal'a, Quyqirilgan qal'a, Xazorasp kabi qadimiy shaharlarning tarixiy va madaniy markazi hisoblangan. Bu erdan eramizdan avvaligi 2000 (ikki minginchi) yillar, neolit davriga tegishli qishloq xo'jaligida foydalanilgan birinchi sug'orish qurilmalari topilgan. Bu uning tarixi qanchalar uzoq ekanligidan darak berib qoladi.

Xivaga - eramizdan avvalgi 5 asrda asos solingan bo'lib, kup asrlar davomida u Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan, Buyuk Ipak yulining nuqtalaridan biri hisoblangan. Afsonalardan biriga ko'ra, karvonsaroyda to'xtagan savdogarlar u erda joylashgan zilol buloqlardan suv ichib lazzatdan "Xey Vax" – iborasini kup qo'llaganlar va shu tufayli Xeyvak so'zi paydo bo'lgan.

Boshqa afsonaga ko'ra esa, Nuh payg'ambarning o'g'li Sim katta g'arqlikdan keyin cho'lda kezib yurib uxlab qoladi va tushida 300 ta yonib turgan ma'shalani ko'radi. Uyg'onib u xursandligidan kema shakliga o'xshash shahar quradi va "Xeyvak" qudug'ini qaziydi va shu quduq nomi bilan shahar Xiva deb ataladi. Hatto hozir ham Xivada kema shaklida qurilgan obidalar va Xiva markazida "Xeyvak" qudug'i mavjud.

O'z tarixi mobaynida Xiva ancha qiyin kunlarni boshidan kechiradi, ammo doimo o'zini tiklab olgan bu shahar juda ham boy va ajabtovur qadimiy asoru atiqalar joylashgan joydir.

Xivaning asosiy qismi eski shahar- Ichan Qal'adan iborat bo'lib, uning maydoni 26 gektarni tashkil etadi. Asosiy tarixiy obilar Ichan Qal'ada joylashgan bo'lib, ularga Kalta minor, Muxammad Aminxon madrasasi, Kun Arka, Juma masjidi, Polvon Darvozasi, Qo'rnishxon saroyi, Paxlavon Mahmud maqbarasi, Islom xoji minorasi va Dishan qal'ani kiritish mumkin. 2010 yil may oyida Ichan Qal'ada Asrlar sadosi milliy ko'rgazmasi o'tkazildi.

BUXORO

Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, Abdulxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan minglab allomalarning vatani hisoblanmish 2500 yillik tarixga ega Buxoro haqidadir. Birgina Buxoroning o'zida 7000 dan ortiq avliyolar yashab o'tgan. Islom ahli o'rtasida Buxoro viloyati hududida joylashgan olamga mashhur "Yetti pir"ning qadamjolarini ziyorat qilish muqaddas haj ziyoratiga tenglashtirilgan.

Buxoro 2500 yillikdan ortiq boy tarixga ega. Buxoro shahriga eramizdan avvalgi 500 yillarda asos solingan bo'lib, qadimda u Varaxsha nomi bilan atalgan. Buxoro so'zining so'g'd tilidan tarjimasi omadli joy ma'nosini anglatadi. Qadimiy Buyuk Ipak yo'li Buxoro viloyati orqali o'tgan va bu Sharif shahar ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va Islom dini madaniyatining yirik markazlaridan biri bo'lgan.

Buxoro viloyati hududida juda ko'plab betakror qadimiy obidalar saqlanib qolgan bo'lib, mustaqillik yillarida ular obod va go'zal ziyoratgohlarga aylantirilgan. Ana shunday tarixiy obidalarining 2000 dan ortig'i YUNESKO tashkilotining muhofazasiga olingan. Viloyatning boy madaniy me'rosi ming yillar davomida butun dunyoni o'ziga rom etib kelgan.

Buxorodagi Labi-hovuz, Poyi qal'a, Goushkon, Ark qal'asi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Zindon, Toishmachit, Chor Bakir, Baxovuddin, Sitorai moxi xosa, Chor minor ansanblari o'zinig go'zalligi, betakrorligi va milliy koloriti bilan yiliga 50000 ga yaqin sayyohlarni jalb etadi. Bu saqlanib qolgan obidalarining barchasi maxalliy me'morchilik maktabining naqadar oliyigidan va betakrorligidan darak beradilar.

1500 yilda Buxoro xonligiga aylantiriladi, 1756 yildan esa u Buxoro amirligi deb atala boshlandi. Buxoro ayniqsa Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrida xozirgi ko'rinishiga keldi. Usha davrda Buxoro shaxrida ko'pdan ko'p machit va madrsalar, minorai maqbaralar bunyod etildi. Usha davrlarda birgina Buxoroning o'zida 350 dan ortiq daxa va 60 dan ortiq ichki bozorlar bo'lgan. Eski Buxoro ko'chalaridan yursangiz qadimgi sivilizatsiya va tarixiy sayoxatga g'arq bo'lasiz. Uning barcha ko'chayu maydonlari moziy bilan hamnasafdir.

Bugungi kunda ham Buxoro viloyati O'zbekiston Respublikasining ilm-fan, hunarmandchilik, ma'naviyat va sayyohlik markazlaridan biri hisoblanadi. Buxoro viloyati aholisining ilmiy salohiyati, ma'naviy yetukligi hamda mehnatsevarligiga ko'ra Respublikada eng oldingi o'rinlarda turadi. Viloyat hududida tabiiy gaz, neft, grafit, betonit, marmar, granit, gips, oltingugurt, ohak va boshqa qurilish mollari uchun xom ashyoning boy konlari o'rganilgan.

Albatta bu shaxar haqida to'xtovsiz uzoq so'zlash mumkin. Uning betakror xusn ko'rki Buxoroni bir bor ko'rganlarning hayoli va ko'z o'ngidan ancha vaqt ketmaydi. Bejiz Fond forum tomonidan tashkillashtirilgan Asrlar sadosi milliy ko'rgazmasi uchun bu yil Buxoro shaxri tanlanmadi. Buxoroga tashrif buyuring va bunga amin bo'lasiz.

TOSHKENT

Toshkent – juda qadimiy va navqiron shahar. Uning yoshi 2000 yildan oshib ketgan. U tarixda Choch, Shosh, Binkent kabi nomlar bilan atalgan.

Toshkent - go‘zal shahar. Ayniqsa, mustaqillik yillarida uning chiroyi yanada ortib bormoqda. Ko‘plab yangi binolar, ko‘chalar barpo etilmoqda.

1997- yilda Toshkent metrosining birinchi yo‘nalishi ish boshlagan. Hozirda uning Chilonzor, O‘zbekiston va Yunusobod yo‘llari bo‘ylab poyezdlar qatnovi yo‘lga qo‘yilgan. Uning Alisher Navoiy, Amir Temur xiyoboni, Chorsu, Chilonzor kabi go‘zal va ozoda bekatlari kishi ko‘zini quvontiradi.

Toshkentda ko‘plab madaniy muassasalar mavjud. Bog‘lar, teatrlar, kontsert zallari xalqimiz xizmatida. Toshkentda bir qancha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi shular jumlasidandir. Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hikoya qiladilar.

Toshkentga har kuni minglab sayyohlar, chet ellik ishbilarmonlar, halqaro delegatsiyalar tashrif buyuradilar. Shahrimiz mehmonlarni iliq qarshi oladi. Ular uchun shinam mehmonxonalar qurilgan. Muhimi mehmondo‘st O‘zbekiston xalqi ularni ochiq chehra bilan kutib oladi.



Jahonga yuz tutgan O‘zbekistonimizning qadimiy va hamisha navqiron poytaxti Sharq yulduzi deb bejiz tarannum etilmasligini mehmonlarimiz ham ta’kidlashmoqda.

“Tarixni o‘rganamiz” mavzusi yuzasidan insert jadvali

Abzats №	Bilaman V	Men uchun yangi ma'lumot +	Men bilgan ma'lumotni inkor qildi -	Mazkur ma'lumotni tushunma- dim, izoh kerak?
1.				
2.				
3.				
4.				

O‘quvchilar bilimini faollashtirish va muammoli vaziyatni shakllantirish uchun savollar

1. O‘zbekistonning qadimiy shaharlarini sanab o‘ting.
2. Toshkent qadimda qanday nom bilan atalgan? (Shosh- turkcha nomlanishi).
3. Samarqandda qanday tarixiy obidalar mavjud?
4. Qaysi muzeyda Amir Temur haqida to‘liq ma'lumot taqdim etilgan?
5. Siz poytaxt mehmonlariga qaysi muzeylarga borishni tavsiya etasiz?
6. O‘zbekiston hududida qanday tarixiy obidalar mavjud?





O‘ QUV LOYIHA

“Tarixni o‘rganamiz”

LOYIHA TOPSHIRIG‘I

Kirish. Dunyoda O‘zbekistonning tarixiga bo‘lgan qiziqish o‘tib bormoqda. Bunga misol tarzida mamlakatimizga qadimiy tarixga ega bo‘lgan O‘zbekistonning tarixiy obidalarini bilan tanishishni xohlovchi ko‘p sonli mehmonlar tashrif buyurayotgani, sayyohlar sonining kundan-kunga oshib borayotgani dalil bo‘la oladi. Biroq barcha aholi tariximiz haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar.

Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", "O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi". Ma'rifatli, ma'naviyati yuksak odam, tug'ilib o'sgan yurtida o'zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko'tarib yuruvchi inson, albatta o'z tarixini yaxshi bilgan bo'lishi darkor. Chunki, tarixiy xotirasi bor inson-irodali inson. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi. Shunday ekan biz o'z yurtimizning tarixi haqida bilishimiz lozim.

Loyiha doirasida o'z yechimini topuvchi, muammo: yashovchi aholi va mehmonlarni O‘zbekiston tarixi to‘g‘risidagi qisqa ma'lumotlar bilan ta'minlash.

O‘quv loyiha mavzulari:

1. Toshkent - O‘zbekiston poytaxti
2. O‘zbekistonning qadimiy shaharlari
3. Toshkent: kecha, bugun, ertaga
4. O‘zbekiston hududidagi arxitektura yodgorliklari (Samarqand, Buxoro, Xiva)
5. Amir Temur muzeyi.

Loyiha maqsadi (u nima uchun yaratiladi): O‘zbekiston tarixi to‘g‘risida ma'lumotni ishlab chiqish.

Yakuniy natija: O‘zbekiston tarixi to‘g‘risida qisqa va tuzilmaviy axborotni o‘z ichiga oluvchi, ma'lumotnoma.

Foydalanuvchilar: O‘zbekiston aholisi va mehmonlar.

Loyiha doirasi: bajarish muddati: 5 kun???

ishtirokchilar soni: beshtagacha

Loyiha tuzilishi va mazmuni

- Kirish – ma'lumotli axborotning mohiyati va vazifasi ochib beriladi.
- Loyiha mavzusini yoritib beruvchi, axborot.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati.

Loyiha guruhi ishtirokchilarining vazifalari

1. Axborot manbalarini aniqlash, uni yig‘ish.
2. Axborotni tanlash va tuzilmaga keltirish.
3. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.

4. Loyiha faoliyati natijalari to'g'risida og'zaki axborot tayyorlash.
5. Hisobot tayyorlash.

II. LOYIHA TOPSHIRIG'INI BAJARISH BO' YICHA USLUBIY KO'RSATMALAR

Loyiha faoliyatini bosqichma-bosqich bajarish uchun yo'riqnoma

1 bosqich. Tayyorgarlik

1.1. Loyiha faoliyati jarayonida echimini topish talab etiladigan, muammo, maqsad va loyiha natijalari, vazifalar hamda ishtirokchilarning loyihaviy faoliyati turlarini aniqlang.

1.2. Loyiha faoliyati jarayonida echimini topish talab etiladigan, muammoni, loyiha maqsadi va natijalarini, loyiha faoliyati ishtirokchilarining vazifalarini aniqlang.

1.3. Axborot manbalarini aniqlang.

2 bosqich. Loyiha faoliyatini rejalashtirish

2.1. Maqsadga erishish yo'lini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing:

ishtirokchilar o'rtasida loyihani ishlab chiqish bo'yicha hamda uni rasmiylashtirish, taqdimotga va hisobotga tayyorlash bo'yicha vazifalarni taqsimlang.

bajarish vaqti va tayyor natija turini aniqlang.

Loyihani bajarish bo'yicha ish rejasi (Lavha)

Ishtirokchi-lar F.I.	Vazifa	Ish mazmuni	Tayyor mahsul turi	Bajarish muddati

3 bosqich. Amalga oshirish

3.1. Olingan axborotni yig'ing va uni matn, jadval, chizma hamda sharh ko'rinishida rasmiylashtiring.

3.2. Natijalarni ma'lumotli materiallar ko'rinishida rasmiylashtiring (oxirgi mahsul).

3.3. Hisobotni tayyorlash yo'riqnomasi bo'yicha, hisobotni tayyorlang.

3.4. Loyihani Microsoft Power Point bo'yicha tayyorlash yo'riqnomasidan foydalanib, taqdimotga tayyorlang.

3.5. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasidagi vazifalarni aniqlang. Og'zaki taqdimotga tayyorgarlik vaqtida uning qoidalariga rioya qiling, og'zaki taqdimot sirlarini esdan chiqarmang.

2. Loyiha ishi to'g'risida hisobotga tayyorgarlik bo'yicha yo'riqnoma

1. Siz taklif, va tavsiya etayotgan loyihani tatbiq etishni isbotlovchi, xulosalarni (1 betdan ko'p bo'lmagan matn) asosida ifodalang.

2. Siz hal etmoqchi bo'lgan muammoni (5-6 so'z bilan) asoslang.

3. Loyiha maqsadini: uni nima uchun yaratilishi, oxirgi mahsulni qanday bo'lishi va u kimga qaratilganligini (1-3 taklif orqali) ko'rsating.

4. Loyiha vazifalarini (qisqa va bir ma'noli) ifodalang.

5. Loyihaning ish rejasini (jadval) bayon eting.

6. Vazifani echimi natijalarini va loyihada bajarilgan ishlarni ko'rsating.

7. Siz taklif etgan loyiha mahsulini tatbiq etish imkonini tasdiqlovchi, xulosalarni shakllantiring.

8. Bajarilgan ish bo'yicha foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtiring.

9. Baholang:

- loyiha sifatini,

- loyiha ustida ishlash jarayoni: ishning natijaviyligi, qiyinchiliklar va uni engib o'tish yo'llari.

10. Ilovalarni tarkiblashtiring: loyiha ishtirokchilarining Anketalari va loyiha ishining ish materiallarini kiriting (hohishingizga ko'ra).

3. Loyiha taqdimotini MS Power Point da tayyorlash bo'yicha yo'riqnomasi

1. MS Power Point da taqdimotni yaratish jarayoni quyidagi harakatlardan iborat:

taqdimot turini tanlash;

taqdimotni umumiy rasmiylashtirish turini tanlash;

slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlarini tanlash;

yangi slaydlar va ularning mazmunini qo'shish;

slaydlarni belgilashni tanlash;

zarur bo'lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o'zgartirish;

slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

2. Taqdimot quyidagi tavsiflarga ega bo'lishi kerak:

slaydlar miqdori: 8-12.

Slaydlarning mazmunli ko'rsatkichlari:

birinchi slayd: loyiha nomi, mualliflar familiyasi, o'quv guruhi tartib raqami, loyiha yaratilish vaqti ko'rsatilgan ma'lumotlardan iborat;

oxirgi slayd axborot manbalarini yoritishga bag'ishlangan;

boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.

Texnik bajarish: slaydlar avtonamoyish etish tartibida yoki sichqoncha yordamida namoyish etiladi.

3. Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasi

Agarda, matn og'zaki bo'lsa, quyidagicha bo'lishi zarur:

yuqori axborotli;

bog'lovchili;

aniq va qisqa;

oddiy sintaktikli (...quyidagilarga e'tibor bering, quyida taqdim etilayotgan... ro'yxatlar kabi aylantiruvchi kirish so'zlari kamroq bo'lishi) - ularni barchasini ma'ruzachini o'zi gapirishi mumkin. Oddiy tuzilgan gaplar o'zini bilan tanishtiradi va yozuvni kattaroq qilishga imkon beradi;

(asosan termin va ta'riflarda), tushunarli, mantiqiy, aniq bo'lishi zarur. Ommaga taqdim etishdan oldin matnni tekshirishga erinmang.

Ovoz tiniq bo'lishi kerak. Taqdimotni ovozli qilish kerak emas, bunda sharhlovchining ovozi eshitib bo'lmaydi - eng yaxshisi ma'ruzachini jonli ovozi hisoblanadi.

Rasmlar aniq va etarlicha kattaroq bo'lishi zarur. Rasmlar o'lchamini katta qilishga urinmang - faqatgina Siz sifatni yo'qotasiz.

Video - tasmlar taqdimot oynasining uch qismini egallashi zarur. Rasmlar namoyishli bo'lishi kerak. Bezaklar chalg'itishi mumkin.

Jadvallar ajratuvchi ma'lumotlarni, xuddi shunday aniq, ularning tagiga yirik yozuvlardan, jadvallar nomlanishi zarur.

Jadvallarni haddan ziyod ma'lumotlar bilan to'ldirish kerak emas! Jadvalga qancha ko'p ma'lumotlar kiritilsa, ularni ekranda qabul qilish qiyin bo'ladi.

Taqdimot boshlashdan avval auditoriyada o'tirganlarga jadval va rasm nusxalaridan tarqatish zarur.

Chizmalar bir bo'limdan boshqa bo'limga aniq va mantiqiy ravishda o'tishga moslashtirilishi kerak. O'tish chiziqlari ekranda yaxshi ko'rinishini tekshiring.

Ог'закі тақдімотга тайёрланишда риога этиладиган, қоида

Taqdimot qoidasi

Taqdimotda nima bo'lishi zarur?

Birinchi navbatda muammo echimi! Shu bilan birga:

Namoyish etish reglamentiga rioya qilish.

Namoyish etish ketma-ketligiga rioya qilish.

Guruh a'zolari orasida vazifalarni aniq taqsimlash va ular harakatini kelishib olish.

Axborot grafikli ya'ni chizma va jadvallar ko'rinishida taqdim etilishi kerak.
 Grafikli ko'rinishda berilgan barcha axborot sharxlanishi zarur.
 Taqdimotda nima bo'lmasligi kerak?
 Ishtirokchilar chiqishlarida qarama-qarshiliklar.
 Tushunarsiz, noaniq fikrlar.

Og'zaki taqdimot qoidalar:

Taqdimot o'z-o'zini taqdim etishdan boshlanadi: loyihani bajaruvchilar tanishtiriladi: «Men,».

So'zga chiqqanlar reglamentga rioya qiladilar. Taqdimotning umumiy davom etish vaqti: 7-10 daqiqadan kam va 15 daqiqadan ko'p bo'lmasligi kerak.

Taqdimot vaqtida nekorrektnqe so'zlardan (fikrlardan) foydalanilmaydi.

Muvaffaqiyatli taqdimotning sirlari

doimo ishonch bilan gapiring;

aniq hamda muhim joylarini ajratgan holda gapiring;

fikringizni tugalgan jumlar bilan, muhim tomonlarini intonatsiya bilan ajratgan holda ifoda eting;

bir maromda va sekin gapirmang, baland ovozda ham gapirmang;

hushmuomala va ziyrak bo'ling, jahldor bo'lmang;

doimo kulib turgan holda boshlang va shunday tugating (faqat meyorida);

“Bo'lishi mumkin”, “Kim biladi”, “Balki” va boshqa shu kabi jumalarni qo'llamang.

Bunday jumlar sizning chiqishingizdagi qat'iyatsizlikni ko'rsatadi, ishonchlilikni yo'qotasiz;

tinglovchilarga qarashga harakat qiling (har bir qatnashchiga 3 sekunddan);

oyoqni chalishtirmang, qo'lni orqada ushlamang, minbarga suyanmang, kuchli imo-ishora qilmang, ruchka, markerni qo'lingizda aylantirmang, elpig'ich, qog'oz bilan elpimang;

har bir savol, javob va taklifga minnatdorchilik bildiring!

5. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

Guruhli loyihada quyidagilar baholanadi:

loyiha mahsuli - Ma'lumotnoma (eng yuqori 10 ball);

hisobot (eng yuqori 8 ball);

loyiha taqdimoti (eng yuqori 5 ball);

Og'zaki taqdimot (eng yuqori 2 ball).

Bajarilgan loyiha bo'yicha mahsulotni baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	<i>Loyiha mazmunining belgilangan maqsadga muvofiqligi</i>	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 3 ball.
2.	Erishilgan natijaning belgilangan vazifalarga muvofiqligi	<i>Erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 5,0 ball: -yangi;</i>

		- loyiha vazifasini to'liq aks ettiradi; -keng manbalarga asoslangan.
3.	Axborot sifati	Agarda axborot talab darajasiga muvofiq kelsa: sarlavha, matn tarkiblashtirilgan bo'lsa, 0,5 ball.
		Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo'lsa maks.0,5 ball: - ma'lumot mazmunini to'liq aks ettiradi; - standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan.

Loyihani MS Power Point da tayyorlangan taqdimotini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo'riqnomaga izchilligi bo'lsa, maks. 2,5 ball.
2.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo'riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo'riqnomaga rioya etilgan bo'lsa, 1,0 ball
3.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etish	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1,5 ball.

Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks.0,5ball.
2.	Tanlangan mavzuning asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 0,5 ball.
3.	Echimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball.
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlarini bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilari faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.3 ball.
5.	Loyiha vazifalarini belgilanishi	Loyiha vazifalari aniq belgilangan bo'lsa, 0,5 ball.
6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiq tuzilgan bo'lsa, 1,0 ball.
7.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalarini keltirish.	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo'lsa, maks. 1,0 ball.
8.	Хулосаларни ифодалаш	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 1,5ball.
9.	Фойдаланилган манбалар рo'йхатини таркиблaштириш	Foydalanilgan manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lsa, 0,2 ball.
10.	Loyiha faoliyatini o'zi baholashi	Tanqidiy baho: - mahsul sifati, - loyiha ustida ishlash: har bir ishtirokchi ishining natijaviyligi, qiyinchilik va uni engish berilgan bo'

		Isa, 1,0 ball
11.	Ilovalarning borligi	Иловаларда лойиҳа иштирокчиларининг анкеталари ва лойиҳа ишининг иш материаллари бо'lsa, 1,0 балл.

Bajarilgan loyihaning og'zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash

	Baholash mezonlari	Baholash ko'rsatkichlari
1.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rio etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; So'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rio etishlari (7 – 15 min.); Taqdimot vaqtida bo'ladavsizlik holatlariga yo'ql qo'yilmasliklari. Maks. 0,2ball;
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etgan bo'lsa, maks. 1 ball. Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 0,8 ball.

**Loyiha topshirig'iga ilova
Loyihada erishilgan yutuqlarni o'zini-o'zi baholash uchun
Anketa**

F.I. _____
O'quv guruhi _____

1. Loyihada erishilgan yutuqlaringizni quyidagi mezonlar asosida baholang:
2 ball - to'liq bilaman; 1 ball – qisman bilaman; 0 ball- bilmayman.

Bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat	Loyihani boshlanishi	Loyihani tugashi
Loyihalashtirishni umumiy izchilligini bajarishi:		
- g'oyani ilgari surish,		
-muammoni ajratish,		
- maqsadni aniqlash va uni echish vazifalarini ifodalash;		
- vazifalarni echish vositalarining asoslangan maqbul yo'llarini tanlashni amalga oshirish;		
- loyiha topshirig'ini ishlab chiqish;		
- hamkoriy ishlashni rejalashtirish va loyihada majburiyatlarni taqsimlash;		
- natijalarni rasmiylashtirish; faoliyat natijalarini jamoali (ma'ruza shaklida og'zaki va texnik vositalardan foydalangan ko'rgazmali) taqdimotini o'tkazish;		
- bajarilgan ish to'g'risida hisobot tayyorlash;		
- o'zini-o'zi baholashni va o'zini amalga oshirgan faoliyatini tahlil qilishni amalga oshirish.		

2. Hamkorlikka tayyorlik va qobiliyat:		
- guruhda samarali o‘zaro harakatni amalga oshirish;		
-murosalarini kuchsiz yo‘l bilan boshqarish;		
-murosaga kelishish.		
3.Og‘zaki muomalaga tayyorlik va qobiliyat:		
- ikki va undan ortiq kishi bilan og‘zaki suhbatni olib borish;		
- tanqidiy muhokama olib borish: boshqalar fikrini eshitish va inobatga olish; o‘z fikrini bildirish, isbotlash.		
4. Zamonaviy texnik vositalarni bo‘lishi:		
kompyuter;		
faks;		
printer;		
modem;		
kseroks.		
5. Axborot va muloqatning zamonaviy texnik vositalarini bilishi:		
- elektron pochta,		
- Internet.		
6. Izlash, qayta ishlash, qabul qilish, kiritish, yaratish, saqlash, etkazish va axborotni taqdim etishning dasturlashtirilgan vositalarini bilishi		
7. Axborot bilan ishlash:		
-katalog bo‘yicha axborotlarni topish,		
- axborotni Internetda izlash;		
- axborotni tarkiblashtirish, asosiysini ajratish;		
- axborotni chizmalı shaklda berish.		
8. Tayyorlik va qobiliyatga ega bo‘lish:		
- shaxsiy xulosalar qabul qilish va ular uchun majburiyatni olish;		
- turli ijtimoiy vazifalarni: sardorlik, ijro etuvchi va boshqalarni bajarish;		
- tashabbusni o‘z qo‘liga olish;		
- tartibga rioya qilish;		
- o‘z kuchiga ishonch.		

2. Loyihada o'z faoliyatingizni baholang va tahlil qiling:

1. Loyiha topshirig'ini muvaffaqiyatli bajarishga nima yordam berganini ko'rsating (keragini tagiga chizing, to'ldiring): bilim, ko'nikma, qobiliyat, boshqalar yordami, o'qituvchini maslahati, _____

2. O'z aybingiz bo'yicha nimani uddalay olmadingiz? _____

Bunga sabab (keragini tagiga chizing, to'ldiring): tushunmaslik, bilmaslik, axborotning etishmasligi, _____

3. Ob'ektiv sabablarga ko'ra Siz nimani uddalay olmadingiz, bunga sabab va kelgusida bunday muvaffaqiyatsizlikni _____ qanday _____ oldini _____ olish mumkin? _____

4. Agarda hammasi muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa, buning siri nimada? _____

**“ISHLAB CHIQARISH VA TEXNIK SOHA”siga yo‘naltirib o‘qitish
mumkin bo‘lgan mavzu: “Jamoat transporti”**

Mavzu	Jamoat transporti
--------------	--------------------------

1.Ta'lim berish texnologiyasi

Mashgʻulot vaqti 2 soat	Oʻ quvchilar soni 15 ta	
Mashgʻulot shakli	Mavzu boʻ yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashgʻulot.	
Amaliy mashgʻulot rejasi	1. Yerusti transporti tizimi turlari, ularning tarkibiy qismlari xususida ma'lumot. 2. Transportda yurish odobi haqida. 3. “Jamoat transporti” mavzusida dialogik matn tuzish. 4. Hol ergash gapli qoʻ shma gaplar.	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Oʻquvchi nutqiy koʻnikmalarini hosil qilish, oʻzbek tilining boy imkoniyatlaridan oʻz mutaxassisliklari doirasida foydalanish, fikrni toʻ gʻri, aniq, mantiqli ifoda etishga oʻrgatish. Oʻquvchilarning hol ergash gapli qoʻshma gaplar mavzusi yuzasidan bilimlarini mustahkamlash.		
Pedagogik vazifalar: • Yerusti transporti tizimi turlari, ularning tarkibiy qismlari haqida ma'lumotlar berish; • Oʻzbekiston transporti va yoʻ llari haqida hikoya qilishga oʻ rgatish; • “Jamoat transporti” mavzusida dialogik matn tuzishga oʻ rgatish; • Hol ergash gapli qoʻ shma gaplar haqida ma'lumot beradi.		Oʻ quv faoliyati natijalari: • Yerusti transporti tizimi turlari, ularning tarkibiy qismlarini aytib beradi; • Oʻzbekiston transporti va yoʻ llari haqida hikoya qilib beradi; • “Jamoat transporti” mavzusida dialogik matn tuzadi; • Hol ergash gapli qoʻ shma gaplar haqida ma'lumotga ega boʻ ladi.
Ta'lim berish usullari		Munozara, suhbat, tezkor soʻrov, klaster, tushunchalar tahlili.
Ta'lim berish shakllari		Kichik guruhda ishlash.
Ta'lim berish vositalari		Darslik, tarqatma material
Ta'lim berish sharoiti		Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun moʻ ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash		Ogʻzaki nazorat: savol-javob

2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. Kichik guruhlar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Kichik guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (15 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatligini dolzarbliligini asoslaydi. O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi hamda klaster qoidalari bilan tanishtiradi (ilovalar). 1.2. Mavzu bo'yicha tezkor so'rov o'tkazib talabalarni faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. O'quvchilarni 3 ta kichik guruhga bo'ladi va mavzuga oid nazariy ma'lumotlar bilan tanishtiradi, lug'at ishini o'tkazadi. 2.2. Har bir guruhga matnning bir qismini tarjima qilishni va muayyan mashqni yozma bajarishni topshiradi. 2.3. O'quvchilarga transport turlari bo'yicha klaster tuzish topshiriladi. 2.4. Guruhlarga topshiriq larni bajarishda yordam beradi. 2.5. Guruh sardorlari bajarilgan topshiriqni o'qib eshittirganda, aniqlik kiritilishi lozim bo'lsa, guruh sardorini to'xtatib, yana qo'shimcha savollar beradi. Mashqlar bajarilishini tekshiradi, barcha o'quvchilar bilan muhokama	Kichik guruhlariga bo'linadilar. Tinglaydilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar. Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Klaster tuzadilar. Savollarga javob beradilar, boshqa guruh a'zolarining javoblarini muhokama qiladilar

	qiladi. 2.6. O'quvchilarga mavzuga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi 2.7. Mavzu asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan o'quvchilarni rag'batlantiradi va umumiy baholaydi.	O'quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2. Mashg'ulot maqsadiga erishishdagi o'quvchilar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi. Uyga vazifa o'zi yashayotgan hududdagi transport tizimi haqida yozma ma'lumot tayyorlash topshiriladi.	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.

1-ilova

Topshiriq. Matnni o'qing.

Ko'chada, jamoa orasida yurgan-turganda amal qilinishi lozim bo'lgan bir qator odob qoidalari mavjud. Ularga amal qilish har bir kishining vazifasidir. Inson uzoq-yaqin yo'lga otlanganda, avvalambor, ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan poklanishi kerak. Uzoq safarlarga asosan jamoat transportlarida qatnaymiz. Jamoat transportlarida yurishning esa o'ziga xos tartiblari bor;

— O'zingizga qulay bo'lishi barobarida o'zgalarga ham qulay vaziyat yarating.

— Jamoat transporti ichida chekilmaydi, spirtli ichimliklar ichilmaydi.

— Hammaning ko'zi oldida yog'li taomlar tanavvul qilinmaydi. — Baland ovozda gapirilmaydi, chunki yo'lovchi sherigingizning salomatligi zaif bo'lishi mumkin. Baland ovoz, shovqin-suron ularga malol keladi.

— Jamoa transportiga o'tkir atirlardan foydalanib chiqilmaydi. Hammaning didi har xil sizga yoqqan xid, boshqa birovga yoqmasligi mumkin.

— Nojo'ya so'zlar tilga olinmaydi, bu odobdan emas.

— Uzoq yo'lga chiqqanda har bir inson kiyinish odobiga rioya qilishi lozim.

Jamoat transportida ochiq-sochiq kiyinish atrofdagilarga nisbatan hurmatsizlik bo'lishi bilan birgalikda, o'sha insonning naqadar didsiz, tarbiyasiz ekanligini ko'rsatib turadi.

Yana bir mulohazali masala ustida to'xtalib o'tamiz. Hozirgi kunda qo'l telefonlaridan foydalanish keng urf bo'lgan. Yoshlarimiz unutmasligi kerakki, qo'l telefonlari o'yinchoq, ko'z-ko'z qilinadigan matoh yoki maqtanish vositasi emas. Telefon - ehtiyoj. Uni ehtiyoj darajasida ishlatish lozim. Ko'pchilik yoshlarimiz o'z telefonlarini noo'rin paytda, noo'rin joylarda bo'lar-bo'lmasga baralla qo'yib foydalanadilar. Vaholanki, telefondan foydalanish ham madaniyatni talab qiladi.

Yuqoridagi mavzu bo'yicha aytilgan fikr-mulohazalarni davom ettiring! O'lis yo'llarda keta turib, ufqli osmonga, bepoyon dalalarga, orqangizdan mung'ayib qolayotgan dov-daraxtlarga qarab xayolingizdan nimalar kechadi?!

Oq yo'l! Safaringiz bexatar bo'lsin!


Gulnora ALIMATOVA,

Termiz davlat universiteti

ma'naviyat asoslari fani o'qituvchisi

Transport turlari bo'yicha klaster tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G'oyalari sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.
2. Xatni to'xtatadigan omillarga e'tibor bermang.
3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to'xtatmang. Agarda aqlingizda g'oyalar kelishi birdan to'xtasa, u holda qachonki yangi g'oyalar kelmaguncha qog'ozga rasm chizib turing.



Tramvay -
 Metro -
 Marshrut yo'nalishdagi taksi -
 Avtomobil (taksi) -
 Samolyot -
 Poezd -
 Avtobus -
 YERUSTI TRANSPORTI
 YEROSTITRANSPORTI
 HAVO TRANSPORTI
 SUV TRANSPORTI

TOSHIRIQLAR

Uyingizdan Siz o‘qiydigan kollejga qaysi transport bilan yetib borish mumkin?

Ko‘rsatilgan manzillarga yetib borish yo‘nalishini og‘zaki ifodalang

Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona.

Amir Temur muzeyi.

Nizomiy nomidagi TDPU.

Milliy bog‘.

Alisher Navoiy nomidagi kinoteatr.

O‘zbek Milliy akademik drama teatri.

Topshiriq. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Istagim shu, hech so‘nmasin yongan chirog‘ing. 2. Biz istaymiz, barcha ellar, elatlar bir-biriga bo‘lsin yana yaqinroq. 3. Shuni unutmangki, biz ozod zamonda yashayapmiz. 4. Kimki halol bo‘lsa, u hurmatga loyiq. 5. Hech shubha yo‘qki, biz g‘olib bo‘lamiz. 6. Yurak tandir emaski, o‘t yoqib qizdirsang.

Kasbingizga oid terminlarga 10 ta misol keltiring.

3-ilova

Jamoat transporti mavzusiga

«Tushunchalar tahlili» metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod o‘quvchilarni mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qullaniladi.

O‘tkazish bosqichlari:

ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma‘no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma‘lumot beradilar;

belgilangan vaqt yakuniga etgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Tushunchalar tahlili

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Quyidagi tushunchalar-ning sohangizdagi ahamiyati qanday.
Transport		
Yerusti transporti		
Yerosti transporti		
Havo transporti		
Suv transporti		
Jamoat transporti		

“QISHLOQ VA SUV XO‘JALIGI” sohasiga yo‘naltirib o‘qitish mumkin bo‘lgan mavzu: “Sharq bozori ne‘matlari”.

Mavzu	Sharq bozori ne‘matlari
1. Таълим бериш технологияси	
Mashg‘ulot vaqti 2 soat	O‘quvchilar soni 15 ta
Mashg‘ulot shakli	Amaliy mashg‘ulot
Amaliy mashg‘ulot rejasi	1.«Pul tarixidan» matni 2. Savdo-sotiq sohasidagi so‘z va iboralar 3.«Biznes-reja qanday ishlanadi?» 4. Sifat va ravishlarda modal ma'noning ifodalanishi.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘quvchilarning biznes va tadbirkorlik borasidagi dunyoqarashini kengaytirish barobarida o‘zbek tili taraqqiyoti masalalariga e'tibor qaratish, sifat va ravishlarda modal ma'noning ifodalanishi bo'yicha mavjud bilimlarni mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar: - Ishbilarmon odamlar, kishilar o‘rtasidagi zamonaviy munosabatlar, bozor iqtisodiyoti to‘g‘risida o‘zbek tilida fikr bildirish; - Savdo-sotiq sohasiga oid o‘zbekcha so‘z va iboralarni o‘rganish, yozish, ular ishtirokida dialog tuzish; «Pul tarixidan» matnni tarjima qilish. - Sifat va ravishlarda modal ma'noning ifodalanishi haqidagi bilimlarni mustahkamlash	O‘quv faoliyati natijalari: - Bozor iqtisodiyoti to‘g‘risida o‘zbek tilida fikr bildiradi; - Savdo-sotiq mavzusida dialog tuzadi; - Matnni tarjima qiladi, lug‘atda berilgan so‘zlar ishtirokidagi gaplarni ko‘chirib yozadi; - Sifat va ravishlarda modal ma'noning ifodalanishiga oid bilimlarini mustahkamlaydi
Ta'lim berish usullari	Musobaqa, suhbat, keys stadi, rolli o‘yin.
Ta'lim berish shakllari	Guruhlarda ishlash.
Ta'lim berish vositalari	Tarqatma materiallar, mulyajlar.
Ta'lim berish sharoiti	Guruhlarda ishlash uchun mo‘ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob, yozma mashqlar

2. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, tarqatma material tayyorlaydi. Kichik guruhlar ishlash , keys stadi va rollo o'yin uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Kichik guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (15 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi dolzarbliligini asoslaydi. O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha tezkor so'rov o'tkazib o'quvchilarni faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi.	Tinglaydilar
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. «Pul tarixidan», «biznes reja qanday ishlanadi?» matnlari ustida ishlashni nazorat qiladi. 2.2. O'quvchilarni 5 ta kichik guruhga bo'ladi va lug'at ishini o'tkazadi. 2.3. Har bir guruhga keys stadi topshiriqlarini bajarish shartlarini tushuntiradi. 2.4. Guruhlarga topshiriq	Matnlarni tarjima qiladilar, yangi so'zlarni yozib oladilar Matnni o'qiydilar. Kichik guruhlariga bo'linadilar. Keys stadi topshiriqlarini bajaradilar.

	larni bajarishda yordam beradi. 2.4. Guruh sardorlari bajarilgan ishni o‘qib eshittirganda, aniqlik kiritilishi lozim bo‘lsa, guruh sardorini to‘xtatib, yana qo‘shimcha savollar beradi. Mashqlar bajarilishini tekshiradi barcha o‘quvchilar bilan muhokama qiladi. 2.5. O‘quvchilarga “Xaridor va sotuvchi” mavzusida dialog tuzish va rollarga bo‘lgan holda matnni o‘qish vazifasi topshiriladi. 2.6. Mavzu asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan o‘quvchilar ni rag‘batlantiradi va umumiy baholaydi.	Topshiriq bo‘yicha ishlaydilar. Guruh sardorlarini tayinlaydilar va hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar, boshqa guruh a'zolarining javoblarini muhokama qiladilar Dialog tuzadilar va rolli o‘yinga kirishadilar. Tinglaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O‘ quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2 Mashg‘ulot maqsadiga erishishdagi o‘ quvchilar faoliyatini tahlil qiladi va o‘zlashtira olmagan joylarini qayta o‘qib chiqishni tavsiya etadi. Uyga vazifa sifatida “Meva va sabzavotlar ko‘r-gazmasi” mavzusida gazetaga maqola tayyorlash topshiriladi.	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.

1-Ilova

Topshiriq. Matnni o‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘z va so‘z birikmalarining ma’nosini izohlang.

PUL TARIXIDAN

Turli xalqlarda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan.

Masalan, Qadimgi Yunoniston, Rimda, arab va hind qabilalarida pul o‘rnini **chorva** bosgan. XX asr boshlarida Afrikaning ba’zi bir xalqlarida **chorva tuyog‘idan** pul o‘rnida foydalanilgan. Tinch okeani va Afrika **qit’asi** xalqlarida qimmatli **chig‘anoqlar** pul vazifasini bajargan. Markaziy Afrikada - **fil suyagi**, Qadimgi Misrda – **bug‘doy**, Xitoyda – **tuz**, Mo‘g‘ulistonda - **choy ayirboshlash** jarayoni **pul muomalasi** o‘rniga o‘tgan.

Qadim zamonlardan beri pul vazifasini **qimmatbaho metallar** ham o‘tab kelgan. Miloddan oldingi uch minginchi yillarda Shumer davlatida **asal** va **kumush** pul vazifasini bajargan. Kumush pullar miloddan oldingi ikki minginchi yillari Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan.

Topshiriq. Matn bilan tanishing. Asosiy tavsiyalarni daftaringizga ko‘chirib oling.

BIZNES-REJA QANDAY ISHLANADI?

O‘z (shaxsiy) ishingizni boshlamoqchi bo‘lsangiz, albatta biznes-reja tuzishingiz kerak. Mazkur jarayonni yengillashtirish uchun quyidagi besh bosqichda ish tutishni tavsiya etamiz:

1. Maqsadingizni aniqlang. Birinchi bosqichda kim uchun ma‘lumot tayyorlashingiz kerak, kompaniyangiz haqida ular nimani bilishi kerakligini tushunib oling. Kompaniya faoliyatining qaysi tomonlarini bo‘rttirib ko‘rsatish maqsadga muvofiq, qaysilari haqida kamroq gapirish, qaysilari to‘g‘risida esa umuman gapirmaslik zarurligini belgilang.

2. Biznes-rejaning taxminiy mundarijasini tuzing. Maxsus talablarni hisobga olgan holda tuzilgan mundarija oddiy yoki murakkab bo‘lishi mumkin. Biroq mundarija qanchalik batafsil yozilsa, biznes-rejani tayyorlash shuncha oson kechadi.

3. Keyingi bosqichda mundarijani diqqat bilan tekshirib chiqish kerak. Kelgusida biznes-rejangizni o‘qiydigan odamlarning fikrini va o‘z maqsadingizni e‘tiborga olib, ahamiyatli deb hisoblangan ma‘lumotlarni kengaytirish, juz‘iy tomonlarni ilovada berish mumkin.

4. Biznes-rejani yozing. Ko‘pchilik ishni bozorni o‘rganish va moliyaviy ma‘lumotlarni to‘plashdan boshlaydi. Siz mazkur ma‘lumotlardan rejaning strategiyasini belgilash uchun, taxminlar qilish uchun foydalanasiz. Biznes-rejaning qoralamasini tayyorlang. Bunda umumiy bo‘linga katta e‘tibor bering, unda boshqa barcha bo‘limlarga tegishli ijro, moliyalashtirish masalalari bo‘yicha umumiy ma‘lumotlar mujassamlashtiriladi.

5. Biznes-rejani menejment bo‘yicha mutaxassisga bering. U rejaning qamrovi, o‘qishga qulayligi, bayonning mantiqiyliigi, ishning to‘g‘ri rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqsin. So‘ng ko‘rsatilgan takliflarni hisobga olib, biznes-rejangizga o‘zgartirishlar kiriting. Va, albatta, ushbu rejani muntazam ravishda yangilab boring.

Omad sizga yor bo‘lsin!

Lug‘at

faoliyat – деятельность

bo‘rttirib ko‘rsatish – преувеличивать

taxminiy – приблизительный

mundarija – содержание, оглавление

batafsil – подробно

juz‘iy – незначительный

qoralama – черновик

ijro – исполнение

moliyalashtirish – финансирование

mujassamlashtirmoq – вобрать в себя

«Keys-stadi» metodi

«Keys-stadi» - inglizcha soʻz boʻlib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – oʻrganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni oʻrganish, tahlil qilish asosida oʻqitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 - yilda Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan.

Keys-stadini amalga oshirish bosqichlari:

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish	• yakka tartibdagi audio-vizual ish; • vaziyat bilan tanishish; • axborotni umumlashtirish; • axborot tahlili; • muammolarni aniqlash
2-bosqich: Muammoli vaziyatni aniqlashtirish va muammoli topshiriqni belgilash	• individual va guruhda ishlash; • muammolarni dolzarblik ierarxiyasini aniqlash; • asosiy muammoli vaziyatni belgilash
3-bosqich: Muammoli topshiriq echimini izlash, hal etish yoʻllarini ishlab chiqish	• individual va guruhda ishlash; • muqobil echim yoʻllarini ishlab chiqish; • har bir echimning imkoniyatlari va toʻsiqlarni tahlil qilish; • muqobil echimlarni tanlash
4-bosqich: Muammoli topshiriq echimini shakllantirish va asoslash	• yakka va guruhda ishlash; • muqobil variantlarni amalda qoʻllash imkoniyatlarini asoslash; • ijodiy loyiha taqdimotini tayyorlash; • yakuniy xulosa va vaziyat echimining amaliy aspektlarini yoritish

Dialog

Sotuvchi: Kelib qoling, olib qoling! Eng sara qovun, tarvuzlar bizda!

Xaridor: Assalomu alaykum!

Sotuvchi: Vaalaykum assalom. Keling xizmat?

Xaridor: Menga qovun, tarvuz kerak edi.

Sotuvchi: Marhamat, qaysi navidan boʻlsin? Qaysinisidan beray?

Xaridor: _____

Sut mahsulotlari

1. Hozirgi kunda bozorlarda mavjud bo'lgan sut mahsulotlarining nomini sanab o'ting.
2. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
3. Ushbu gaplardan matn hosil qiling va uni aytib bering.
4. Ko'rgazmada ishtirok etish uchun ushbu sut mahsulotlariga reklama matnini tayyorlang. Bunda Siz o'z mahsulotingizni afzallik tomonlarini keltiring.
5. Ushbu jadvaldan sut mahsulotlariga tegishli so'zlarni topib belgilang.

S	U	K	E	N	G	Sh	O'	Z	X
F	U	Q	U	K	N	E	O	G	M
S	U	T	I	P	S	U	Z	M	A
M	A	I	P	P	V	U	F	Q	T
S	V	A	P	Q	I	Ch	Y	F	F
F	Q	V	A	O	P	Sh	R	O	L
Y	U	K	E	M	R	E	L	K	S
S	A	P	R	Y	L	D	J	O	E
M	F	U	V	A	P	R	D	J	Q
Q	A	T	I	Q	A	P	O	R	N

Go'sht mahsulotlari

1. Hozirgi kunda bozorlarda mavjud bo'lgan go'sht mahsulotlarining nomini sanab o'ting.
2. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
3. Ushbu gaplardan matn hosil qiling va uni aytib bering.
4. Ko'rgazmada ishtirok etish uchun ushbu go'sht mahsulotlariga reklama matnini tayyorlang. Bunda Siz o'z mahsulotingizni afzallik tomonlarini keltiring.
5. Ushbu jadvaldan go'sht mahsulotlariga tegishli so'zlarni topib belgilang.

Q	F	Q	V	A	P	R	O	L	K
E	A	N	T	I	S	A	P	O	O
U	V	Z	M	T	I	K	T	B	L
U	T	U	I	M	P	E	J	Y	B
F	Y	I	S	O	S	I	S	K	A
D	U	D	L	A	N	G	A	N	S
V	M	Y	K	U	E	R	T	G	A
Q	V	A	R	P	O	L	T	O'	A

U	K	I	E	Y	O	N	U	Sh	P
Q	A	R	T	A	V	A	U	T	K

Meva

1. Hozirgi kunda bozorlarda mavjud bo'lgan mevalarning nomini sanab o'ting.
2. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
3. Ushbu gaplardan matn hosil qiling va uni aytib bering.
4. Ko'rgazmada ishtirok etish uchun reklama matnini tayyorlang. Bunda Siz o'zingiz etishtirgan mahsulotingizni afzallik tomonlarini keltiring.
5. Ushbu jadvaldan mevalarga tegishli so'zlarni topib belgilang.

O	N	U	K	E	O'	Sh	G	O'	D
L	R	O	L	D	R	I	V	K	U
Ch	U	Ch	I	O	I	N	B	K	E
A	N	O	R	T	K	L	D	J	E
K	N	O	L	X	O'	R	I	P	G
G	U	E	Sh	A	F	T	O	L	I
M	I	T	O	D	Sh	O'	Z	I	S
V	U	L	P	N	O	O	L	M	A
S	M	I	O	U	E	K	R	O	P
K	U	I	T	S	K	U	M	N	Y

Sabzavot

1. Hozirgi kunda bozorlarda mavjud bo'lgan sabzavotlarning nomini sanab o'ting.
2. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
3. Ushbu gaplardan matn hosil qiling va uni aytib bering.
4. Ko'rgazmada ishtirok etish uchun reklama matnini tayyorlang. Bunda Siz o'zingiz etishtirgan mahsulotingizni afzallik tomonlarini keltiring.
5. Ushbu jadvaldan sabzavotlarga tegishli so'zlarni topib belgilang.

O	G	Y	U	K	E	P	I	Y	Z
L	Q	K	A	R	T	O	Sh	K	A
A	N	I	G	Sh	Sh	O'	Z	X	L
A	N	O	Z	P	O	A	L	D	J
Q	I	Z	I	L	E	L	I	T	A
G	S	I	Sh	A	L	T	G'	L	I
T	I	A	A	E	N	I	N	O	T
S	T	L	B	O	B	O	A	M	M

U	K	I	N	I	G	V	N	O	I
T	U	R	U	P	U	K	T	N	J

Poliz ekinlari

1. Hozirgi kunda bozorlarda mavjud bo'lgan poliz ekinlarining nomini sanab o'ting.
2. Shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.
3. Ushbu gaplardan matn hosil qiling va uni aytib bering.
4. Ko'rgazmada ishtirok etish uchun reklama matnini tayyorlang. Bunda Siz o'z mahsulotingizni afzallik tomonlarini keltiring.
5. Ushbu jadvaldan poliz ekinlariga tegishli so'zlarni topib belgilang.

O	Sh	N	O'	L	O'	K	Y	T	G
L	T	U	L	D	R	U	M	I	K
Ch	Sh	V	D	Y	I	M	Y	O	R
A	N	O	R	K	K	R	D	P	P
T	O	Q	O	B	O	Q	I	K	K
G	B	Sh	Sh	A	F	A	O	L	I
G	I	E	D	J	P	R	A	I	U
K	I	L	Q	V	P	V	L	M	A
T	O	J	O	T	Ch	U	V	O	S
X	A	N	D	A	L	A	K	N	A

Matn

SHARQ BOZORI NE'MATLARI

№	Matn nomi	
1.	Sut mahsulotlari	
2.	Go'sht mahsulotlari	
3.	Mevalar	


4.	Sabzavotlar	
5.	Poliz ekinlari	

Guruhlarning ish natijalarini baholash varaqasi

Guruh	1 (1ball)	2 (1ball)	3 (1ball)	4 (1ball)	5 (1ball)	jAMI (5 balls)
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						

Topshiriq. «Biznes-reja qanday ishlanadi?» matni bilan tanishing. Asosiy tavsiyalarni daftaringizga ko‘chirib oling.

Supermarketlardan Sharq bozorining qanday afzalliklari mavjud?



“O‘zga yurtga yo‘ling tushsa, avval uning bozorlarini borib ko‘r”, degan naql bejiz aytilmagan. Zero, odamlarning turmush farovonligi, madaniyati va ma‘naviyati aynan bozorlarda o‘z ifodasini topadi

Mamlakatimizda bozorlarni tartibga keltirish, yangilarini qurish, mavjudlarini rekonstruksiya qilish, sotuvchi va xaridorlar uchun qulay shart-sharoit yaratish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Buni Toshkent shahridagi bozorlar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Ayni kunda bu yerda qariyb yuzga yaqin katta-kichik bozor shahar ahli va poytaxt mehmonlariga xizmat ko‘rsatmoqda. Ular o‘zining milliy va zamonaviy qiyofasi, to‘kinligi, xizmat ko‘rsatish madaniyatining yuqori darajasi bilan xaridorlar e‘tiborini tortmoqda.

Yurtimiz azaldan gavjum va to‘kin bozorlari bilan dovrug‘ qozongan. Hunarmandchilik, dehqonchilik kabi ishlar bilan shug‘ullangan aholi va Buyuk ipak yo‘lidan o‘tgan savdo karvonlari ana shu bozorlarda mahsulot mo‘l-ko‘lligini ta‘minlagan.

Istiqlol sharofati bilan mamlakatimizda Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida xususiy mulkchilik shakli yo‘lga qo‘yildi, erkin savdoga keng yo‘l ochildi va bozorlarimiz qayta chiroy ochdi. Ularning faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan yangi savdo uyushmalari, konsern va firmalar tuzildi.

Davlatimiz rahbarining 1996 - yil 5 - martda qabul qilingan “Bozorlarning faoliyatini tashkil etishni va aholiga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bu borada muhim dasturilamal bo‘lmoqda.

O‘tgan yillar mobaynida ushbu hujjat ijrosi yuzasidan poytaxtimizda ulkan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, “Oloy”, “Eski juva” bozorlarida keng qamrovli qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borildi. “Farhod dehqon bozori” hududi kengaytirilib, avtomobillar uchun to‘xtash joyi, ixtisoslashgan doimiy savdo do‘konlari barpo etildi.

Go'sht, baliq hamda gul rastalari zamonaviy uslubda qayta jihozlandi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari sifatini aniqlaydigan uskunalar bilan jihozlangan laboratoriya tashkil etildi. Savdo rastalari soni salkam mingtaga ko'paytirildi.

“Mirobod dehqon bozori” – poytaxtimizning ko'rkam maskanlaridan biri. Bu yerda usti yopiq 1375 savdo nuqtasi bor. Bundan tashqari, o'nlab sut va sut mahsulotlari rastasi, 70 ga yaqin doimiy savdo do'konlari faoliyat ko'rsatmoqda. Yaqinda 100 do'kon foydalanishga topshirildi. Shuningdek, bozorda ko'plab maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari ishlab turibdi.

Umumiy maydoni 4,2 gektarni tashkil etadigan “Yunusobod dehqon bozori”da 2320 o'rinli qishloq xo'jalik mahsulotlari rastasi mavjud. Bozor atrofida zamonaviy do'konlar, choyxona, novvoyxona, omborxonalar, bank bo'limlari, valuta almashtirish shoxobchalari, maishiy xizmat ko'rsatish maskanlari joylashtirilgani xaridorlar uchun keng qulaylik tug'dirmoqda.

Bozorda qishloq xo'jalik mahsulotlari sotishga mo'ljallab, dehqonlar uchun yana qo'shimcha 163 soyabonli rasta foydalanishga topshirildi. Qibray va Toshkent tumanlari fermerlari o'z mahsulotlarini sotishi uchun alohida joy ajratildi.

Toshkent tumanidagi “Nurafshon fayz baraka” fermer xo'jaligi vakili Barno Abdusamatova ham shu bozorda fermer xo'jaligida yetishtirilgan pomidor, bodring, karam, kartoshka, piyoz va boshqa mahsulotlar savdosi bilan band.

- Mamlakatimizda fermer xo'jaliklari har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda, – deydi B.Abdusamatova. – Bozorlarda fermer xo'jaliklari uchun alohida joy ajratilgani nafaqat biz, fermerlar, balki xaridorlar uchun ham katta qulaylik yaratdi. Bu mahsulotlar sifati oshib, narxi sezilarli darajada tushishiga xizmat qilmoqda.

- Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganimga 17 yil bo'ldi, – deydi “Yunusobod dehqon bozori”da savdo qiluvchi Asqar Hoshimov. – Ilgari ochiq rastalarda, qishda oyog'imizdan zax o'tib, yozda issiqqa “pishib” ishlardik. Har kuni ertalab mahsulotimizni omborxonadan navbat kutib olish, aravaga ortish, tushirish, rastaga yoyish ortiqcha mehnat, vaqt va chiqim talab etardi. Kechqurun yana shu alfozda tovarlarimizni omborxonaga topshirardik. Endi bunday ovoragarchilik ortda qoldi. Ertalab kelib do'konni ochamiz, kun bo'yi savdo-sotiq qilib, kechqurun do'konni qo'riqlash xizmatiga topshiramiz-da, xotirjam uyga qaytamiz.

Keyingi yillarda Toshkent bozorlari hududida yuzlab mana shunday sharqona va zamonaviy do'konlar foydalanishga topshirildi. Har birining o'z tartib raqami, kassa apparati, kiyim do'konlarida esa maxsus garderoblari borligi xaridorlarning o'ziga ma'qul buyum va mahsulotni oson tanlab olishi, zarur bo'lganda, tegishli tartibda almashtirishi yoki qaytarishi uchun imkoniyat yaratmoqda. Shuningdek, iste'molchilarning huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta'minlamoqda.

Bozorlarning ko'pligi bozor iqtisodiyotining muhim sharti – raqobatni rivojlantiradi. Raqobat bor joyda esa narx-navo pasayib, mahsulot va xizmatlar sifati yanada oshadi.

Barcha joyda bo'lgani kabi poytaxtimizda ham bozorlar faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sotuvchi va xaridor uchun qulay shart-sharoit yaratish, milliy savdo madaniyatini oshirish, sanitariya holatini yaxshilash, transport qatnovi va yo'llarni tartibga solish borasida amalga

oshirilayotgan keng qamrovli ishlar o'z samaralarini bermoqda. Jumladan, bozorlarning ixtisoslashgani avvalgidek tovarlarning qorishib ketishiga, mahsulot sifati buzilishiga barham berdi.

- O'zbekiston bozorlari o'zining tartibliligi, ozodaligi va to'kin-sochinligi bilan ajralib turadi, – deydi germaniyalik Kyoler Rotman. – Ayniqsa, yurtinigiz mevalarining totli mazasini ta'riflashga so'z ojiz.

Haqiqatan ham, bozorlarimiz, ularda sotilayotgan meva-chevalar ana shunday ta'rif va tahsinga munosib. Buni yurtimizga kelib, bozorlarimiz bilan tanishgan ko'plab chet ellik fuqarolar ham e'tirof etmoqda.

© O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi "Jahon" axborot agentligi. "Jahon" axborot agentligi sayti materiallaridan foydalanildi.

Topshiriq. Har bir guruhga bir nechta meva va sabzavotlarning mulyaji beriladi. Ushbu meva va sabzavotlarga sifat, ravish so'z turkumlariga oid so'zlardan foydalanib ta'rif berish talab etiladi.

Bozorlar – xalq turmushi farovonligi ko'zgusi. Bozorlar faoliyatini takomillashtirish va savdo madaniyatini yuksaltirishga qaratilayotgan alohida e'tibor o'zining amaliy ifodasini topmoqda. Joylarda sotuvchi va xaridorlar uchun barcha qulayliklarga ega ko'rkam bozorlar barpo etilyapti, mavjud bozorlar qayta rekonstruksiya qilinib, zamonaviy qiyofa kasb etmoqda.

Fotogalereya: O'zbekiston bozorlari



Musobaqa uchun tarqatma material

Topshiriq. Savdo-sotiq sohasida keng qo'llanadigan so'z va iboralarni yozing, ular ishtirokida dialog tuzing. (Xaridor va sotuvchi)

“SOG‘LIQNI Saqlash VA IJTIMOIIY TA‘MINOT” sohasiga yo‘ naltirib o‘qitish mumkin bo‘ lgan mavzu: “Sog‘liq - tuman boylik”


Mavzu		Sogʻliq – tuman boylik	
1.Ta'lim berish texnologiyasi Mashgʻulot vaqti 2 soat		Oʻ quvchilar soni 15 ta	
Mashgʻulot shakli		Mavzu boʻ yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashgʻulot	
Amaliy mashgʻulot rejasi		1. Sogʻlom turmush tarzi 2. Matn yuzasidan savol-javob 3. Mashq va topshiriqlar 4. Fe'l nisbatlari	
Oʻquv mashgʻulotining maqsadi: Giyohvandlikka qarshi kurash, sogʻlom turmush tarzi kabi mavzular doirasida oʻzbek tilida fikr almashish, fe'l nisbatlari boʻ yicha bilimlarni mustahkamlash.			
Pedagogik vazifalar: • Oʻ quvchilarni dars mavzusi, maqsadi, borishi bilan tanishtiradi; • sogʻlom turmush tarzi toʻ gʻrisida ma'lumot berish; • mavzu doirasidagi soʻ z va iboralar ishtirokida gaplar tuzish; • fe'l nisbatlari bilan tanishtirish.		Oʻ quv faoliyati natijalari: • Dars mavzusi, maqsadi, borishi va unda bajariladigan topshiriqlarni anglaydi; • sogʻlom turmush tarzi toʻ gʻrisida oʻ zbek tilida ma'lumot beradi; • tegishli soʻ z va iboralar ishtirokida gaplar tuzadi; • fe'l nisbat turlarini sanab oʻ tadi.	
Ta'lim berish usullari		Muammoli savol-javob, suhbat,muammo, esse, rolli oʻ yin	
Ta'lim berish shakllari		Guruhlarda ishlash	
Ta'lim berish vositalari		Oʻ quv qoʻ llanma, proektor	
Ta'lim berish sharoiti		Oʻ TV bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya	
Monitoring va baholash		Ogʻzaki nazorat: savol-javob, yozma	

	ishlarni baholash
--	-------------------

2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	1. Mavzu bo'yicha o'quv mazmunini tayyorlash. 2. O'quvchilar o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish. 4. O'quv fanini o'rganishda foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish.	
1. Mavzuga kirish (15 daqiqa)	1.1. Mavzuni e'lon qiladi, adabiyotlar ro'yxatini beradi. 1.2. Mashg'ulot mavzusining nazariy qismi bilan tanishtiradi. 1.3. O'quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar Tinglaydilar Tinglaydilar O'quvchilar berilgan savollarga javob beradilar.

2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Yoshlarning dolzarb muammolaridan biri haqida gapiradi, savollar beradi. 2.2. Sogʻlom turmush tarzi tushunchasini izohlashni soʻraydi. 2.3. Oʻquvchilarga “Salomatlik” mavzusida esse yozishni topshiradi 2.4. Mavzuga oid matnni oʻqib, aytib berish jarayonini boshqaradi. 2.5. Oʻquvchilarga ma'lum kasallik turi yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Oʻquvchilar ushbu kartochkalarda belgilangan kasallik turi bilan bemor qaysi shifokor qabuliga borishi kerakligini aniqlaydilar va guruhlariga boʻlingan holda “shifokor qabulida” mavzusida dialog tuzib, rolli oʻyinga kirishadilar. 2.6. Mashq va topshiriqlarni bajarish jarayonini nazorat qiladi 2.7. Oʻquvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.	Tinglaydilar. Muammoning yechimini topadilar. Savollarga javob beradilar. Esse yozadilar. Matnni aytib beradilar. Oʻquvchilar guruhlariga boʻlinadilar. Oʻquvchilar dialog tuzib, rolli oʻyinga kirishadilar Mashq va topshiriqlarni bajaradilar. Oʻquvchilar berilgan savollarga javob beradilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzu boʻyicha oʻquvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, yakunlovchi xulosa qiladi. 3.2 Mustaqil ishlash uchun darslikda berilgan matnlarni oʻqishni tavsiya etadi.	Savollar beradilar Vazifani yozib oladilar.



1. Категория залога выражает отношение к субъекту и объекту действия. Это отношение обозначают специальные формы глагола. С изменением залога происходит изменение в объекте и субъекте действия.

В узбекском языке пять залогов глагола:

Aniq nisbat (действительный залог) имеет нулевой показатель. Субъект действия, обозначенного в форме этого залога, выражается подлежащим, а объект дополнением в винительном падеже: *O‘qituvchi yangi mavzuni tushuntirdi*. Учитель объяснил новую тему.

O‘zlik nisbati (возвратный залог) выражает действие исходящее от субъекта и возвращающееся на него. Образуется прибавлением к основе глагола аффиксов: **-(i)l; -(i)n**; иногда **-(i)sh**; **yuvmoq** – мыть, **yuvinmoq**– мыться, **kiymoq**– одевать, **kiyinmoq**– одеваться, **kermog**– потянуть, **kerishmoq**– потягиваться.

Majhul nisbat (страдательный залог) указывает на действие, объектом которого является подлежащее, а субъектом – косвенное дополнение (в предложении он может быть пропущен). **Xat yozildi** – Письмо было написано. Образуется эта форма прибавлением к основе аффиксов: **-(i)l; -(i)n**: **qurildi** – построен, **solindi**– положен, **ko‘rildi** – рассмотрен и т.д.

Birgalik nisbati (взаимно-совместный залог) указывает на действие, выполненное двумя или более субъектами. Образуется с помощью аффикса **-(i)sh**: **ko‘rishmoq** – видеться, **yozishmoq**– переписываться, **yuvishmoq**– помочь мыть и т.д. Эта форма может указывать на то, что действие совершено несколькими субъектами: **Bolalar sayrga chiqishdi** – Дети вышли на прогулку; на то, что субъект помог другому в выполнении действия: **Hadicha onasiga kir yuvishdi** – Хадича помогла матери стирать. Аффикс **-(i)sh** является синонимичным аффиксу **-lap** (множественного числа): **o‘qidilar** – **o‘qishdi**, **yozdilar** – **yozishdi**.

Orttirma nisbat (понудительный залог) выражает действие, производимое субъектом через другое лицо. Образуется прибавлением к основе глагола аффиксов: **-t; -tir(dir); -gaz; -giz; -sat; -ar; -ir; -iz**; Например: **yoz-yozdir, ko‘r-ko‘rsat, sana-sanat, bit-bitir, chiq-chiqar, oq-oqizi** т.д. *Salima yangi ko‘ylak tiktirdi*–Салиме сшили новое платье.

В одной словоформе может быть несколько аффиксов залогов, в том случае он определяется по последнему аффиксу, образующему залог: **yuvintirishdi** – глагол взаимно-совместного залога.

Nima deb o‘ylaysiz nimalarga amal qilinsa uzoq umr ko‘rish mumkin? O‘z fikr-mulohazangizni bildiring.

2- ilova

**Qanday omillar inson
salomatligiga ijobiy va salbiy
ta'sir ko'rsatadi?**

**Ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi
omillar;**

**Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi
omillar;**

“Muammo” metodi

Kasallik turi	Kelib chiqish sabablari	Ushbu kasallikning oldini olish yo'llari

3-ilova

TOPSHIRIQ

“Salomatlik” mavzusida 20 ta so'zdan iborat bo'lgan esse
yozing.

1-topshiriq. Matnni o‘qing va fe’llarni topib, daftaringizga ko‘chirib yozing. Mazmunini aytib bering.

BESH TABIB

Tabiblarning ulug‘i Ibn Sino kunlardan birida qattiq og‘rib, ko‘rpa-to‘shak qilib yotib olibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do‘st-birodarlari yig‘ilishibdi. Ular yaxshi so‘z aytib, ulug‘ tabibning ko‘nglini ko‘tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari uni dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar. O‘limi yaqinligini Ibn Sino shogirdlariga shunday debdi:

- Ey, shogirdlarim, mening kunim bitgan ko‘rinadi. Shu boisdan meni davolayman deb, behudaga harakat qilmanglar. Vafot etsam, yig‘i-sig‘i, oh-voh qilib o‘tirmanglar. Faqat haqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar bas. Va yana, ustoz olamdan o‘tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg‘urmanglar. O‘rnimga beshta zo‘r tabibni qoldirib ketmoqdaman. Shularning maslahatlariga doimo amal qilinglar, boshqalarni ham shunga da’vat etinglar, - debdi. Shogirdlaridan biri:

- Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar ekan? – deb so‘rabdi. Shunda Ibn Sino:

- Men qoldirib ketayotgan zo‘r tabiblarimning biri – tozalik, ikkinchisi – parhez, uchinchisi – badan tarbiyadir. Va qolgan ikkisi mijoz va kayfiyat hisoblanadi. Doimo pokiza, ozoda bo‘lishlik, duch kelgan ovqatni yeya bermaslik, ichimlikka ruju qo‘ymaslik, badan a‘zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mijozni unutmaslik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish lozim. Aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, hattoki bevaqt o‘lim ham orqaga chekinishi mumkin.

Lug‘at

tabib – лекарь

qattiq og‘rib – сильно захворав

do‘st-birodarlar – друг, приятель, брат, товарищ

kayfiyat – самочувствие, настроение

shogirdlar – ученики

qabrni ziyorat qil – посети могилу

qayg‘urmang – горевать, печалиться

parhez – диета, воздержание в еде

Topshiriq. Matnni o‘qing va mazmunini aytib bering.

TABIATNING O‘ZI TABIB

Dilingizda rejalar bisyor. Qilaman degan ishlaringiz oshib-toshib yotibdi. Buyog‘I, semestrning oxirgi kunlari. Vaqtingiz qolib ketgan konspektlarni yozishu yakuniy nazorat ishlariga hozirlik ko‘rish bilan o‘taqi. Asabiylashasiz. Mana shunday vaziyatda yodingizdan chiqarmang, kishida turli xastaliklarga chalinish ehtimoli bir qadar kuchayadi. Siz endigina suyagi qotayotgan yoshdasiz. Har nimaga asabiylashavermang. Hatto, ayrimlar nazarida eng yengil xastalik sanalmish shamollash ham doim kayfiyatsiz yuradiganlarga tezroq “yopishadi”.

Tabiatning o‘zi tabib deydilar. Bekorga uni onaga qiyos etishmaydi. Kuzatsangiz, har bir dardga tabiat ne‘matlari davo bo‘ladi. Avvalo, siz, mening navqiron talaba do‘stlarimga sog‘liq doimo yo‘ldoshingiz bo‘lishini tilayman. Buning uchun sizga bir ne‘matni tavsiya etamanki, shoyad sizga asqotib qolsa.

Na‘matak. Ba‘zi viloyatlarda itburun deb ataladigan ushbu o‘simlikning mevalari asosida tayyorlangan damlama qon to‘xtatuvchi, isitma tushiruvchi dori sifatida qo‘llaniladi. U nafaqat shamollash, balki gripp va boshqa turli yuqumli kasalliklarga nisbatan immunitetni oshiruvchi samarali vositadir. Na‘matak preparatlari mador qurishi, kamqonlida ham yaxshi foyda berishi isbotlangan. Xo‘sh, uni uy sharoitida qanday tayyorlash mumkin? Buning uchun og‘zi yopiladigan sirli idishga ikki stakan suv quyiladi va bir qoshiq maydalangan (“yong‘oqcha”laridan ajratilgan) mevadan solib, o‘n daqiqa davomida qo‘yib qo‘yiladi. Qaynatma dokada suzilgach, unga shakar qo‘shib ta‘mi yaxshilanadi. Qarabsizki, yoqimli, xushta‘m va shifobaxsh ichimlik tayyor. “Sariq devni minib” asari qahramoni Hoshimjonning tili bilan aytganda, “baniyati shifo bo‘lsin” deysiz-u, kuniga yarim stakan (yoki bir payola)dan uch mahal ichasiz.

Tavsiyamizni erinmasdan bajaring, do‘stim. Bilaman, o‘qishdagi tashvishlar tufayli, sizda bu kabi “mayda” ishlar bilan shug‘ullanib o‘tirishga vaqt ham, hafsala ham kam. Biroq unutmangki, sog‘lik barchasidan ustun.

(M.Nabiyev)

Lug‘at

tabiat – природа

reja – план

xastalik – болезнь, недуг

tabib – лекарь

ne‘mat – блага, пища

na‘matak – шиповник

damlamoq – заваривать

isitma – жар, высокая температура

shifobaxsh – исцеляющий, целебный

Yana qanday o‘simliklarning shifobaxsh xususiyatlari haqida bilasiz?


Topshiriq. Gaplarni o‘qing. Fe’llarning qaysi nisbatdaligini ayting. Rus tiliga tarjima qiling.

1. Maktabimizda mingga yaqin o‘quvchi o‘qiydi.
2. Bu yil universitetga mingdan ziyod talabalar qabul qilindi.
3. Saida bilan Nozima derazalarni yuvishdi.
4. Biz maktab bog‘iga terak nihollarini o‘tqazdik.
5. Akam bu yil institutni bitiradi.
6. Shahodat shirin hayollarga berildi.
7. Tohir shu kuni uzoq yo‘lga otlandi.

Topshiriq. Fe’llarning mumkin bo‘lgan nisbat shakllarini yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Bil, tushun, top, tani.

TOPSHIRIQ. Odamning ichki a‘zolari nomini toping.





Б. Части головы

Лицо:



Череп:



Rolli o‘yinlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulot o‘quvchilarda nazariy bilimlarni puxta egallashni ta'minlaydi. Ushbu texnologiya orqali o‘quvchilarning nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, egallangan nazariy bilimlaridan amaliyotda mustaqil va samarali foydalana olish ko‘nikmalarini hosil qilish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni uyushtirishga tayyorlash, ijtimoiy faollikni shakllantirish, axloqiy sifatlarni tarkib toptirish, teran va sog‘lom fikr, keng dunyoqarash egasi bo‘lgan komil shaxsni kamol toptirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarni guruhlariga bo‘lgan holda har bir guruh uchun ma'lum kasallik turi yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar ushbu kartochkada belgilangan kasallik qaysi shifokor qabuliga borishi kerakligini aniqlaydilar va shu tarzda “Shifokor qabulida” mavzusida dialog tuzib, rolli o‘yinga kirishadilar.

Tumov

Yurak sanchig‘ida

Oshqozon og‘riganda

Tomoq og‘rig‘i

Tish og‘riganda

Shamollashda

***Shamollashda
(bolalar shifokori)***

Ko‘z kasalliklarida

***Tanada toshmalar
paydo bo‘lganda***

Yod tanqisligida

SHIFOKOR QABULIDA



Oftalmolog
Kardiolog
Lor
Nervopatolog
Terapevt
Pediatr
Endokrinolog
Dermatovenerolog
Stomatolog



j0214098.wav

**“XIZMATLAR” sohasiga yo‘ naltirib o‘qitish mumkin bo‘lgan mavzu:
“Safar rejasii”**

Mavzu	Safar rejasii
--------------	----------------------

1.1.Ta'lim berish texnologiyasi

Mashg‘ulot vaqti 2 soat	O‘ quvchilar soni 15 ta
Mashg‘ulot shakli	Mavzu bo‘ yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg‘ulot.
Amaliy mashg‘ulot rejasii	1. O‘zbekistonning yirik shaharlari tabiatini hikoya qilib berish. 2. O‘zbekistonda mavjud bo‘ lgan sayr-sayohat maskanlarini tavsiflash. 3. “Buyuk ipak yo‘li” mavzusidagi matnni o‘ qish. 4. O‘zbekistonga kelgan sayyohlar bilan o‘ zbekcha muloqot qilish formulalarini yod olish. 5. Ega ergash gapli qo‘ shma gaplar, uning tuzilishi.
O‘quv mashg‘ulotining maqsadi: O‘quvchi nutqiy ko‘ nikmalarini hosil qilish, o‘ zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘ z mutaxassisliklari doirasida foydalanish, fikrni to‘ g‘ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘ rgatish. O‘quvchi ega ergash gapli qo‘ shma gaplar, uning tuzilishi mavzusi yuzasidan mavjud bilimlarini mustahkamlash.	
Pedagogik vazifalar: • O‘zbekistonning yirik shaharlarining tabiatini hikoya qilishga o‘ rgatish; • O‘zbekistonda mavjud bo‘ lgan sayr-sayohat maskanlarini tavsiflash; • O‘zbekistonga kelgan sayyohlar bilan o‘ zbekcha muloqot qilish formulalari haqida ma'lumot beradi. • Ega ergash gapli qo‘ shma gaplar, uning tuzilishini tushuntiradi.	O‘quv faoliyati natijalari: • O‘quvchida O‘zbekistonning yirik shaharlarining tabiatini hikoya qilib beradi; • O‘zbekistonda mavjud bo‘ lgan sayr-sayohat maskanlarini tavsiflaydi; • O‘zbekistonga kelgan sayyohlar bilan o‘zbekcha muloqot qilish formulalari haqida ma'lumotga ega bo‘ladi, ularni yod oladi. • Ega ergash gapli qo‘ shma gaplar, uning tuzilishi haqida tushunchaga ega bo‘ladi.
Ta'lim berish usullari	Munozara, suhbat, tezkor-so‘ rov, klaster sayohat, rolli o‘ yin, sinkveyn.
Ta'lim berish shakllari	Kichik guruhda ishlash.
Ta'lim berish vositalari	Darslik, tarqatma material
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo‘ ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og‘zaki nazorat: savol-javob

2. Amaliy mashg‘ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat mazmuni
------------------------	-------------------------

va vaqti	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi. Kichik guruhlar ishi uchun yozma tarzda savollarni tayyorlaydi. Kichik guruhlar ish natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (15 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyatliligi dolzarbliligini asoslaydi. O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi qoidalari bilan tanishtiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha tezkor so'rov o'tkazib o'quvchilarni faollashtiradi. 1.3. Ish guruhlarda o'quv topshiriqlarini bajarish orqali amalga oshirilishini e'lon qiladi	Savollarga javob beradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. O'quvchilarni 4 ta kichik guruhga bo'ladi. Mashg'ulot mavzusining nazariy qismi bilan tanishtiradi. Lug'at ishini o'tkazadi. 2.2. Har bir guruhga matnning bir qismini tarjima qilishni va mashqlarni yozma bajarishni topshiradi. 2.3. Klaster tuzish qoidasi bilan tanishtiradi. Guruhlarga topshiriqlarni bajarishda yordam beradi. 2.4. Har bir guruhga "O'zbekistonning qadimiy shaharlariga sayohat" mavzusida kichik matn tuzish	Kichik guruhlarga bo'linadilar va guruh sardorlarini belgilaydilar. Topshiriq bo'yicha ishlaydilar. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar va berilgan topshiriqni bajaradilar. Matn tuzadilar.

	topshiriladi. 2.5. “Gid va chet ellik mehmon” mavzusida dialog tayyorlashni va uni rollarga bo‘lib o‘qib berish kerakligini aytadi. 2.6. Har bir guruhga sinkveyn topshirig‘i beriladi. 2.7. Guruh sardorlari bajarilgan topshiriqni o‘qib eshittirganda, aniqlik kiritilishi lozim bo‘lsa, guruh sardorini to‘xtatib, yana qo‘shimcha savollar beradi. Mashqlar bajarilishini tekshiradi, izohini tinglaydi, barcha o‘quvchilar bilan muhokama qiladi. 2.8. Mavzu asosida berilgan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi. Faol ishtirok etgan o‘quvchilar ni rag‘batlantiradi va umumiy baholaydi.	“Gid va chet ellik mehmon” mavzusida dialog tayyorlaydilar va uni rollarga bo‘lib o‘qib beradilar. Sinkveyn topshirig‘ini bajaradilar. Hamkorlikda ishlaydilar. Savollarga javob beradilar, boshqa guruh a'zolarining javoblarini muhokama qiladilar Tinglaydilar.
3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. O‘ quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.2 Mashg‘ulot maqsadiga erishishdagi o‘quvchilar faoliyatini tahlil qiladi va o‘ zlashtira olmagan joylarini qayta o‘ qib chiqishni tavsiya etadi. Uyga vazifa “Safar xotiralari” mavzusida kichik hikoya yozishni topshiradi.	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.

Qo'shma gap

Bog'langan qo'shma gap
(Сложносочиненные предложения)

Bog'lovchisiz qo'shma gap
(Бессоюзные сложные предложения)

Ergashgan qo'shma gap
(Сложноподчинительные предложения)

Ergash gapli qo'shma gap
(Сложноподчиненное предложение)

Ega ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным подлежащим)

O'rin ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным места)

Kesim ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным сказуемым)

Sabab ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным причины)

Aniqllovchi ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным определительным)

Maqsad ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным цели)

To'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным изъяснительно-объектным)

Natija ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным следствия)

Payt ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным времени)

Shart ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным условным)

To'siqsiz ergash gapli qo'shma gap
(СПП с придаточным уступительным)

Ergash gapli qo'shma gaplar. (Сложноподчиненное предложение)

Сложноподчиненное предложение состоит из двух или более простых предложений, которые не равноправны. В составе сложноподчиненного предложения имеются **bosh gap** (главное предложение) и **ergash gap** (придаточное предложение).

Главное предложение несет в себе основную мысль, придаточное же поясняет главное предложение (или отдельный его член). К примеру в предложении: **Biz zalga kirganimizda, kontsert hali boshlanmagan edi.** (Когда мы вошли в зал, концерт еще не начинался) главным является второй компонент, а первый компонент (придаточное предложение) указывает на время совершения действия, обозначенного главным. В предложении: **Kim halol mehnat qilsa, elda hurmat topadi** (Кто трудится честно, тот заслуживает уважения) придаточное предложение (первый компонент) поясняет лишь подлежащее в составе главного предложения.

Эти предложения условно можно разделить на две группы. Первая из них - ССП с придаточным подлежащим, сказуемым, определительным, изъяснительно — объектным относятся к конкретному члену предложения (подлежащему, сказуемому, определению, дополнению), выраженному местоимением или пропущенному. Например: **Shunisi ma'lumki, u kecha mashg'ulotlarga qatnashmagan** (Известно то, что он отсутствовал вчера на занятиях). Подлежащее в главном предложении выражено указательным местоимением шуниси, а придаточное поясняет его значение. **Bilginki, sening ulug' noming bor** (Знай, что у тебя гордое имя) — придаточное предложение поясняет значение дополнения, пропущенного в составе главного и т.д.

Ко второй группе можно отнести все остальные виды сложноподчиненных предложений, которые поясняют главное предложение, указывая на способ совершения, место, время, цель, последствия, условие совершения, меру действия, обозначенного в главном предложении. Например: **Shamol oldindan esar edi, shuning uchun yurish qiyin bo'ldi** (Ветер бил и лицо, по этому ходить было трудно) придаточное (первый компонент) указывает на причину действия, обозначенного главным предложением.

Topshiriq. O‘zbekistonning tarixiy obidalari haqida nimalarni bilasiz? Ular haqida gapirib bering.

Topshiriq. Matnni o‘qing.

BUYUK IPAK YO‘LI

Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent, Farg‘ona vohasi, Qarshi cho‘llari – qadimiy Buyuk Ipak yo‘lidagi asosiy manzillardir. Arxeologlarning ta’kidlashicha, uning tarixi eramizgacha bo‘lgan II asrga borib taqaladi. Karvon yo‘llari Markaziy Osiyoning ikki asosiy daryosi – Amudaryo va Sirdaryo yoqalab Qizilqum va Qoraqum qumloqlari bilan borib, Tyan-Shan tog‘ devonlari va Pomir – Oloy tizmalari osha Sharqni G‘arb bilan, Yaponiyani Hindiston va Xitoy bilan, Angliya, Frantsiya va Portugaliya bilan ulangan. Qadimiy o‘zbek tuprog‘i hududidagi necha-necha shaharlar, vohalar, sahrolar, daryolar, tog‘lar va cho‘llar bu yo‘l ular oralig‘ida ko‘prik vazifasini o‘tagani madaniyatning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tarixning shoxidlik berishicha, Ipak yo‘li necha ming yillar mobaynida ikki qit‘adagi necha-necha xalqlarning bir-biriga integratsiyasida yaqinlashishida eng muhim rol o‘ynagan. Mahsulot, bilim, texnologiya va madaniyat almashinuvi aynan shu yo‘l orqali sodir etilgan va natijada shaharlar hudud, davlatlar rivojlanib borgan.

Lug‘at

voha	долина
sahro	степь
tog‘ devonlari	горный перевал
yo‘l	пустыня
qit‘a	континент
madaniyat	культура
tarix	история
mahsulot	товар
shoxidlik bermoq	свидетельствовать

1. (Samarqand –Toshkent) Samarqanddan Toshkentgacha 365 km.
2. (Toshkent – Namangan)
3. (Toshkent – Nukus).....
4. (Qarshi – Termiz)
5. (Farg‘ona – Toshkent)
6. (Buxoro – Urganch).....
7. (Samarqand – Buxoro).....
8. (Termiz – Toshkent)

Sayohat

4-ilova

Buxoro

Samarqand

Toshkent

Xiva

5-ilova

TOPSHIRIQ. “Gid va chet ellik mehmon” mavzusida dialog tayyorlang, uni rollarga bo‘lib o‘qib bering.

“Sinkveyn” metodi

6-ilova

Buxoro
Go‘zal, qadimiy
Tomosha qilamiz, sayr qilamiz, dam olamiz.
O‘zbekistonning qadimiy shaharlaridan biridir.
Ko‘hna.

Samarqand

Sifat _____

Fe'l _____

Gap _____

Sinonim _____

Toshkent

Sifat _____

Fe'l _____

Gap _____

Sinonim _____

Xiva

Sifat _____

Fe'l _____

Gap _____

Sinonim _____

Xulosalar

Ta'lim sohasi	O'zbek tilini kasbiy yo' naltirib o'qitishda e'tibor qaratish zarur bo'lgan masalalar
Ta'lim, gumanitar soha	O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitishda ko'proq didaktik ahamiyatga ega bo'lgan va gumanitar sohaga oid bo'lgan matnlardan foydalanish, ta'lim-tarbiya va ta'lim sohasiga oid ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda pedagogikaga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, o'z kasbiga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan ta'lim va gumanitar sohaga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Darsda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar mazmuni ham sohaga moslashtirilishi zarur. Masalan, dars mashg'uloti aks etgan blits-so'rov, dars jarayoniga taalluqli klasterlar, aqliy hujum, xulosalash usullari, BBB jadvali va b.
Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq	O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohasiga yo'naltirib o'qitishda sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohasiga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohasiga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Kasbiy yo' naltirilib o'qitilayotgan mavzular rusiyzabon o'quvchilarga O'zbekistonning tarixiy obidalar haqida ma'lumotlar berishi, o'quvchilarni kasbga oid atama va so'zlar bilan tanishtirishi zarur. Darsda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar mazmuni ham sohaga moslashtirilishi zarur. Masalan, insert, sohaga oid klasterlar, loyihalash (o'quv loyihasi) usuli va b.
Ishlab chiqarish va texnik soha	O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni ishlab chiqarish va texnik sohaga yo'naltirib o'qitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda ishlab chiqarish va texnik sohaga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va

	soʻzlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan ishlab chiqarish va texnik sohaga taalluqli boʻlishiga erishish lozim. Kasbiy yoʻnaltirilib oʻqitilayotgan mavzular rusiyzabon oʻquvchilarga ishlab chiqarish, texnik jarayonlar haqida ma'lumotlar berishi, oʻquvchilarni kasbiga oid atama va soʻzlar bilan tanishtirishi lozim. Darsda qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalar mazmuni ham sohaga moslashtirilishi zarur. Masalan, ishlab chiqarish amaliyoti va texnik jarayonlarga oid tushunchalar tahlili, mazkur jarayonlarni aks ettiruvchi klaster, tushunchalar tahlili usullari va b.
Qishloq va suv xoʻjaligi	Oʻzbek tili fani boʻyicha dasturda mavjud mavzularni qishloq va suv xoʻjaligi sohasiga yoʻnaltirib oʻqitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon oʻquvchilarda qishloq va suv xoʻjaligi sohasiga oid atamalar boʻyicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va soʻzlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan qishloq va suv xoʻjaligi sohasiga taalluqli boʻlishiga erishish lozim. Kasbiy yoʻnaltirilib oʻqitilayotgan mavzular rusiyzabon oʻquvchilarga qishloq va suv xoʻjaligi haqida ma'lumotlar berishi, oʻquvchilarni kasbiga oid atama va soʻzlar bilan tanishtirishi lozim. Darsda qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalar mazmuni ham sohaga moslashtirilishi zarur. Masalan, fermer xoʻjaligi, qishloq xoʻjaligi mahsulotlariga oid rolli oʻyinlar, keys stadi, klaster usullari va b.
Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot	Oʻzbek tili fani boʻyicha dasturda mavjud mavzularni sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot sohasiga yoʻnaltirib oʻqitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon oʻquvchilarda sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot sohasiga oid atamalar boʻyicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va soʻzlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminot sohasiga taalluqli boʻlishiga erishish lozim. Kasbiy yoʻnaltirilib oʻqitilayotgan mavzular rusiyzabon oʻquvchilarga sogʻliqni saqlash va ijtimoiy taʼminotga doir jarayonlar haqida ma'lumotlar berishi, oʻquvchilarni kasbiga oid atama va soʻzlar bilan tanishtirishi lozim. Darsda qoʻllanilayotgan pedagogik texnologiyalar

	mazmuni ham sohaga moslashtirilishi zarur. Masalan, shifokor va bemor munosabatlariga asoslangan rolli o'yinlar, muammo usuli sohaga doir klasterlar, sohaga oid bilimlarni esse orqali tekshirish va b.
Xizmatlar	O'zbek tili fani bo'yicha dasturda mavjud mavzularni xizmatlar sohasiga yo' naltirib o' qitishda mazkur sohaga oid matnlardan foydalanish, vizual materiallar, kasbga doir ma'lumotlar orqali rusiyzabon o'quvchilarda xizmatlar sohasiga oid atamalar bo'yicha tasavvur hosil qilish, kasbga oid atama va so'zlar bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Dars davomida berilayotgan topshiriq va vazifalarning ham aynan xizmatlar sohasiga taalluqli bo'lishiga erishish lozim. Kasbiy yo'naltirilib o'qitilayotgan mavzular rusiyzabon o'quvchilarga xizmatlar jarayoni haqida ma'lumotlar berishi, o'quvchilarni kasbiga oid atama va so'zlar bilan tanishtirishi lozim. Darsda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar mazmuni ham sohaga moslashtirilishi zarur. Masalan, xizmatchi va mijoz munosabatlari asosidagi rolli o'yinlar, xizmatlar turini aks ettiruvchi klasterlar, sohaga oid bilimlarni tekshirish uchun sinkveyn va b.

GLOSSARIY

AKMEOLOGIYA - (akme – gullagan davr, oliy nuqta, yuqori cho‘qqi) – o‘qituvchi faoliyatida yuksak professionallikka ya'ni kasbiy etuklikka erishish bilan izohlanadi.

AKSIOLOGIYA - ijtimoiy sub'ektlar yaratgan pedagogik qadriyatlar yig‘indisini ifodalab, insonni eng oliy qadriyat deb biladi va jamiyat rivojlanishining maqsadi deb hisoblaydi.

DARS – ta'limni tashkil etish shakli bo‘lib, belgilangan vaqt (45 daqiqa) davomida o‘qituvchi va o‘quvchilarning aniq maqsad asosida, hamkorlikdagi faoliyati ko‘rinishi.

DTS - ta'lim oluvchi shaxsi egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning minimal miqdori belgilangan me'yoriy hujjat.

INNOVATSIYA – yangilik, yangi g‘oya kiritish.

INTERAKTIV METOD – («inter» - o‘zaro va «act» - harakat qilmoq) o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatini, o‘quv axborotlarini o‘zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantirishga, shuningdek, o‘qitish maqsadlarining to‘laqonli amalga oshirishga yordam beruvchi chora-tadbirlar majmuasi.

ISTIQBOLLI O‘QITISH – ta'lim mazmunidagi o‘zlashtirilishi qiyin bo‘lgan axborotlar tizimini kichik hajmlarda oldindan o‘zlashtirib borish.

KASBIY BILIM - aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo‘lgan nazorat, bilim, amaliy malaka va ko‘nikmalar birlashmasidir.

KASBIY BILIMDONLIK - pedagogik jarayon mantig‘ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko‘ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo‘nalishlarini tushunish, anglash.

KASBIY YO‘NALGANLIK - shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo‘lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat'iy ishonchi (a.b. seyteshev); 2) kasb tanlash, qiziqish, qat'iy ishonch hamda kasb tanlash motivlari o‘rtasidagi aloqaning shaxsiy sifatlarda etakchilik qilishi (n.k.stepankova).

KASBIY TAYYORGARLIK - maxsus nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy, kasbiy sifatlarni o‘zlashtirish asosida shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

KOMMUNIKATIVLIK – bu o‘qituvchining alohida xususiyati bo‘lib, unda o‘quvchilar va hamkasblari bilan o‘zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. bunda pedagogik faoliyatning samaradorligi uning muloqotchanligiga bog‘liq bo‘ladi.

KOMPITENTLIK - shaxsning o‘zlashtirgan muayyan bilim, ko‘nikma va tajribasini ijtimoiy-kasbiy sohadagi aniq vaziyatlardagi muammo va vazifalarni echishga qodirlik darajasi, yaroqliyligi.

KONSTRUKTIVLIK - (loyihalay olish qobiliyatiga egalik) – bu pedagogning shaxsiy faoliyati va tarbiya maqsadlarini hisobga olgan holdagi faolliklarini alohida loyihalashtirishni ko‘zda tutadi.

MAHORAT – kasbiy individuallikning yorqin ko‘rinishi.

metod – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli, harakat qilish tarzi; 2) maqsadga eltuvchi yo‘l, ya’ni, maqsadga erishish yo‘lidagi xatti-harakatlarning o‘ziga xosligidir.

MILLIY MODEL - kadrlar tayyorlashning milliy tuzilmasi. milliy modelning tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan ishlab chiqarish.

MODEL - (frantsuzcha “modele” – “namuna”, lotin tilida “modulus” – “me'yor”) – qandaydir ob'ektning shartli qiyofasi, ob'ekt va ob'ekt haqidagi inson bilimlari o‘rtasidagi munosabatni aks ettirish uchun xizmat qiladi.

MOTIV – ma'lum ehtiyojlarni qonildirish uchun asos bo‘ladigan kishining ichki harakatlari mazmuni.

PEDAGOGIK JARAYON – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini kashf qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o‘zaro munosabatlari.

PEDAGOGIK KVALIMETRIYA – pedagogik jarayon sifat darajasining o‘lchovchi.

PEDAGOGIK MAHORAT - yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishi, pedagogik texnikani mukammal egallash, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko‘rinishi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA - ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlari va o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligiga tayangan holda ishlab chiqilgan va ta'limiy maqsadga erishishni kafolatlovchi o‘quv-tarbiya jarayonining loyihasi.

PEDAGOGIK FAOLIYATGA YO‘NALGANLIK - 1) shaxsning “pedagogik kasbga qiziqishi va faoliyatning ushbu turi bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ishtiyoqi” (N.V. Kuzmina); 2) bolalarga bo‘lgan munosabat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, pedagogik kuzatuvchanlik qobiliyati (V.A. Slastenin). Demak, shaxsning pedagogik faoliyatga yo‘nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbga qiziqishi, u bilan shug‘ullanishga bo‘lgan layoqati bilan belgilanadi.

PROFESSIOGRAMMA – ma'lum tizimga keltirilgan mehnatni psixologik tomondan o‘rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko‘rsatib berilgan xujjatdir.

REFLEKSIYA - lotincha “refleksio” – “orqaga qaytish”, sub'ektning ichki psixik holatlarini o‘zida anglash jarayoni.

RIVOJLANISH - miqdor o‘zgarishlaridan sifat o‘zgarishlariga o‘tishi, o‘sish.

TARBIYA - shaxsning ma'naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta'sir o‘tkazish ta'sirida shakllanuvchi uzliksiz jarayon.

TARBIYA TEXNOLOGIYASI - tarbiyaviy jarayonga kompleks yondashuvni anglatib, bu tarbiyaviy ta'sir va o‘zaro hamkorlik maqsadlari, vazifalari, mazmuni, metodi va shakllarining birligidan iboratdir.

TA'LIM - maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan kishilar rahbarlikda o‘tkaziladigan, ta'lim oluvchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarni o‘stirib, dunyoqarashlarni tarkib toptiruvchi jarayon.

TA'LIM MAZMUNI - ta'lim oluvchilarning o‘qish jarayonida, egallab olishi lozim bulgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko‘nikmalarning aniq belgilangan doirasi.

TEXNOLOGIK KARTA – texnologik jarayonning har bir bosqichi mazmuni to‘liq yoritilgan hujjat.

TEXNOLOGIYA – 1) Ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati xususiyati, shaklini o‘zgartirish metodlari to‘plami. 2) texnos- san'at, mahorat, logos- ta'limot.

TRENING - tahsil oluvchi faoliyatiga mo‘ljallangan ta'lim shakli bo‘lib, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o‘zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o‘qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o‘rganishni ko‘zda tutadi.

O‘Z-O‘ZINI ANGLASH – insonning o‘zi haqidagi tasavvurlar - hulq-atvori, faoliyati va ehtiyojlarini anglashida namoyon bo‘ladi.

O‘QITISHNI INDIVIDUALLASHTIRISH – ta'lim mazmunini o‘quvchi shaxsi, uning individual xususiyatlariga moslash.

O‘QUV DASTURI - aniq fanning maqsadidan, o‘quv rejasi bo‘yicha ajratilgan soat va bilim hajmidan kelib chiqib tuzilgan va mavjud jamiyatning g‘oyaviy-siyosiy yo‘nalishini o‘zida aks ettirgan davlat hujjati.

O‘QUV REJA - mutaxassis shaxsi bilishi va o‘zlashtirishi zarur deb belgilangan o‘quv fanlari, ularni o‘qitish uchun ajratilgan soatlar va o‘quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati.

FAOLIYAT – ongli ruhiy faoliyat bilan boshqariladigan kishining ichki, tashqi faolligi.

SHAXS – muayyan jamiyatning a'zosi bo‘lgan, ruhiy, jismoniy, ma'naviy-ahloqiy barkamol bo‘lgan, o‘z hatti-harakatlarini onгла baholab, unga javob bera oladigan, jamiyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha oladigan inson.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. “Ta’lim to’g’risida” gi qonun G’G’ Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori T., 1997.27-bet.
3. Qahhorova H., Muhamedova S. O‘zbek tili. - Toshkent: Universitet, 2004.
4. Mirzayev I. va boshqalar. O‘zbek tili . - Toshkent, 2004.
5. Muhiddinova X. va b. O‘zbek tili. – Toshkent, 2006.
- Rasulov R., Mirazizov A. O`zbek tili. O`rta mxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan guruhlar uchun o`quv qo`llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006.
6. Tolipov O‘.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. O‘ quv qo‘ llanma. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.
7. Ishmuhamedov R.J. va boshq. Ta’limda innovatsiyalar. . – Toshkent: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008.
8. Adilova S., Mirazizov A., Kuvandikova I., Sidikova M. Amaliy o‘zbek tili. Metodik qo‘ llanma. – Toshkent, 2010.
9. Adilova S., Mirazizov A., Mirazizova D., Yunusova Sh. Amaliy o‘zbek tili. Metodik qo‘ llanma. – Toshkent, 2010.
10. Golish L.V., Fayzullaev D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish: O‘ quv-uslubiy qo‘ llanma. Innovatsion ta'lim texnologiya seriyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2011. -206 b.
11. Mirsalieva M. Pedagogik kollejlarda o‘ quv tarbiya jarayonini modernizatsiyalash . – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. 100 b.

Elektron ta'lim resurslari:

1. **www. tdpu. uz**
2. **www. pedagog. uz**
3. **www. Ziyonet. uz**
4. **www. edu. uz**
5. **tdpu-INTRANET. Ped**
6. **www. nutq. intal. Uz**
7. **<http://www.connect.uz/>** - Образовательный портал Узбекистана.
8. **<http://www.uzsci.net/>** – Научная и образовательная сеть Узбекистан
9. **<http://courier.com.ru>** – «Курьер образования».
10. **<http://www.osp.ru/school/>** – Журнал «Компьютер в школе» – на сервере издательского дома «Открытые системы».
11. **<http://de.ifmo.ru>** – курсы дистанционного обучения. Методика преподавания.
12. **Олам.uz.** - портал Узбекистана
13. Примеры использования педагогических технологий в профильном обучении [Электронный ресурс]. - Режим доступа:
<http://edu.of.ru/attach/17/7031.doc>

MUNDARIJA

Kirish.....	
Fan dasturi.....	
“O‘zbek tili” fanini bilim sohalari bo‘yicha kasbiy yo‘naltirib o‘qitish yuzasidan tavsiyalar.....	
“O‘zbek tili” fanini o‘qitish jarayonida ilg‘or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo‘llash.....	
Sohalarga kasbiy yo‘naltirib o‘qitish bo‘yicha dars ishlanmasi namunalari.....	
Xulosalar.....	
Glossariy.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	